

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 yilligiga bag'ishlanadi

**YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI -
HUQUQIY-DEMOKRATIK DAVLAT, ERKIN
FUQAROLIK JAMIYATI BARPO ETISHNING
MUSTAHKAM POYDEVORI**



*Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to'plami
2023 yil 6 dekabr*

Toshkent – 2023

UDK 34 (575.1)

BBK 67.7 (5O'z)

YA 18

Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi – huquqiy-demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning mustahkam poydevori. (maqolalar to'plami) -T.: TDPU, 2023. 230 b.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligiga bag'ishlab tayyorlangan mazkur maqolalar to'plamiga Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatini, uni mustaqil davlatchiligimizning huquqiy poydevori, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlovchi hujjat ekanligi masalalariga bag'ishlangan maqolalar kiritilgan. Mazkur to'plamda Oliy Majlis deputatlari, adliya maslahatchisi, Respublika Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, professional ta'lim va umumiy o'rta ta'lim o'qituvchilari va malaka oshirish instituti professor-o'qituvchilari, magistr, talabalarning maqolalari o'z aksini topgan.

Mas'ul muharrirlar: p.f.d. (PhD) v.b.professor N.M.Akayeva
p.f.d. (PhD) v.b. dotsent A.I.Murodov

Nashr uchun mas'ul: p.f.d. (PhD) dotsent U.B.Nigmanova

Taqrizchilar: t.f.n. S.Tillaboyev
t.f.n. Z.Ilxomov

Mazkur maqolalar to'plami Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti Ilmiy-uslubiy kengashining 2024 yil 5 fevraldagi 6 - sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Vatanimiz mustaqilligi, xalqimiz tinch osoyishta hayoti, fuqarolarning huquq va erkinliklari qonuniy manfaatlarining mustahkam huquqiy kafolatidir. Har bir davlat o'z taraqqiyot yo'lini tanlar ekan, xalqning xohish va irodasidan kelib chiqib, tinch va farovon turmush tarziga huquqiy asos bo'luvchi tartiblarni asosiy qonunida mustahkamlab oladi.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi va unda belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun nafaqat qonunlarimiz mustahkamlanishi, balki Konstitutsiyamizda ham inson sha'ni, uning qadr qimmatini yuksaltirishga qaratilgan normalarni yanada takomillashtirib, bugungi kun talablariga moslashtirish ehtiyojini paydo qildi.

O'zbekistonda konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazishning nazariy-metodologik jihatlarini Asosiy qonunni yangilashning, davr talablariga mos tarzda takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari tashkil etadi. Yangi Konstitutsiyaviy islohotlarning maqsadi-Konstitutsiyani mukammallashtirish va uning asosida butun qonunchilik tizimini modernizatsiya qilish tendensiyalari hamda yo'nalishlarini tahlil etishdan iborat. Zamonaviy sharoitlarda konstitutsiyaviy islohotlarni o'tkazish murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayon bo'lib, uni muvaffaqiyatli, jamiyat va davlat rivojlanishi ehtiyojlariga mutanosib tarzda o'tkazish ham siyosiy, ham huquqiy jihatdan puxta ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi.

Ma'lumki, 2023-yil 10-martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qarori va Senatning 14-martdagi uni ma'qullashga oid qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, uning yangi tahririni tasdiqlash to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining loyihasi matbuotda e'lon qilindi. Bu esa mamlakatimizdagi konstitutsiyaviy islohotlarning yangi bosqichini anglatadi. Avvalgi Konstitutsiyamiz 128 moddadan iborat edi. Referendumga qo'yilgan Konstitutsiyaviy qonun loyihasida Asosiy qonunimizning moddalari 155 tani tashkil etdi. Agar avvalgisida 275 ta norma mavjud bo'lgan bo'lsa, yangilangan Konstitutsiyada ularning soni 434 tani tashkil etdi. Boshqacha aytganda, Bosh qonun matnining qariyb 65 foizi yangilandi.

Konstitutsiyaning qudratli huquqiy-ahloqiy salohiyatini tarannum etish, uning ustuvor g'oyalari, asosiy jihatlari va qoidalarini huquqiy tafakkurimiz hamda madaniyatimiz tarkibiy qismiga aylantirish yurtimizda ijtimoiy-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga puxta zamin yaratadi. Zero, bunday davlatchilik va jamiyatni qaror toptirish uning siyosiy-huquqiy mafkurasini ijtimoiy ongimizga singdirishdan boshlanadi.

Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari
2023 yil 6 dekabr

Yangi O'zbekistonni barpo etishga yo'naltirilgan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ezgu maqsadlarga erishishga qaratilgan umumxalq sa'y-harakatlarida faol ishtirok etish, bunda fidoyilik namunalarini namoyon qilish har birimizning Vatan ravnaqi va saodati yo'lidagi muqaddas insoniy burchimizdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 31 yilligiga bag'ishlab tayyorlangan mazkur maqolalar to'plamida Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatini, uni mustaqil davlatchiligimizning huquqiy poydevori, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlovchi hujjat ekanligi masalalariga shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish masalalariga bag'ishlangan maqolalar kiritilgan. To'plamda respublika universitet, professional ta'lim, maktab professor-o'qituvchilari, magistr va talabalar, shuningdek malaka oshirish instituti o'qituvchilarining maqolalari o'z ifodasini topgan.

Mazkur maqolalar to'plami talabalarning Konstitutsiyaning ustuvor g'oyalari, mazmun mohiyatini o'rganishlariga, shuningdek, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

**YANGI O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI - INSON MANFAATLARI,
UNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINING MUSTAHKAM KAFOLATI**

*Qirg'izboyev A.K.
TDPU rektori, tarix
fanlari doktori, professor*

Konstitutsiya milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, shu kunga qadar erishgan barcha yutuq va marralarimiz, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizning mustahkam poydevori hisoblanadi. Asosiy Qonunimizning jonajon O'zbekistonimiz taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyatini yuksak qadrlaymiz.

Albatta, bu yil Konstitutsiyamiz tarixida, ijtimoiy-siyosiy hayotimizda, mamlakatimiz rivojida alohida ma'no-mazmunga ega. Bu, avvalo, shu yil 30 aprelda milliy tariximizda birinchi marta umumxalq referendumini asosida Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilingani bilan bog'liq.

Hech shubhasiz, tom ma'noda xalqchil qomus bo'lgan Asosiy qonunimiz Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarimiz ortga qaytmasligining mustahkam huquqiy kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda O'zbekistonning besh ustuni, ya'ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qat'iy belgilab qo'yildi, uning mazmuni tubdan takomillashtirilib, yangi bob va moddalar bilan boyitildi.

Biz o'z oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga yetishda Asosiy qonunimizda muhrlangan barcha qoida va tamoyillarni amalga oshirmoqdamiz. Jamiyatimizda Konstitutsiya va qonun ustunligini ta'minlash, davlat organlari faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitga mos holda yo'lga qo'yishning ahamiyatini chuqur anglagan holda, bu borada tizimli ishlarni boshladik. Xususan, Asosiy qonunimizdan kelib chiqib, amaldagi qonunlarimizni yangi konstitutsiyaviy normalar bilan uyg'unlashtirish yuzasidan jadal ishlar olib borilmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, qisqa muddatda 30 dan ziyod qonun va qonunosti hujjatlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtirilganini ta'kidlash lozim.

Konstitutsiya va qonun ustunligi tamoyili – bu barqaror taraqqiyotning asosiy mezon. So'nggi yillarda barcha islohotlarimizni ayni shu tamoyil asosida amalga oshirdik.

Keng ko'lamli va tizimli islohotlarimiz natijalari xalqaro maydonda ham keng e'tirof etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Korruptsiyaga murosasiz munosabat

bo'yicha xalqaro indeksda 32-pog'onaga, Matbuot erkinligi indeksida 28-pog'onaga, Huquq ustuvorligi indeksida 13-pog'onaga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi biz uchun bu yo'lda ulkan ishonch, kuch-g'ayrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiyani jamiyat hayotining barcha jabhalarida to'g'ridan-to'g'ri va bevosita qo'llash amaliyotiga o'tishimiz zarur. SHundagina xalqimiz Asosiy qonunimizning hayotbaxsh kuchi va ta'sirini teran his etadi. Bu borada barcha davlat idoralari, jumladan, sudlar faoliyatida konstitutsiyaviy normalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llashni joriy etish bo'yicha amaliy choralar ko'riladi. Sud-huquq islohotlari yangi konstitutsiyaviy makonga uyg'unlashtiriladi. Bu jarayonda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirish ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi. Konstitutsiyamizda qat'iy belgilab qo'yilganidek, insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsiz bo'lib, uning huquqlariva qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish, hech shubhasiz, eng dolzarb vazifalarimizdan biridir. Ushbu yo'nalishda asosiy e'tiborimiz bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni joriy etishga, shuningdek, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili, Bolalar ombudsmani va boshqa inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini takomillashtirishga qaratiladi. Barcha islohotlarimizda inson va uning manfaatlari markaziy o'rinda turishi va xalqimiz farovonligi hamda qulay hayot kechirishini ta'minlash davlat organlari uchun bosh maqsad bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi biz uchun bu yo'lda ulkan ishonch, kuch-g'ayrat va ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o'sib bormoqda. Bularning barchasi, eng avvalo, Bosh Qomusimizning hayotbaxsh kuch-qudrati natijasidir.

Konstitutsiyaning mohiyatini ifodalovchi eng muhim xususiyatlardan biri unda insonni ulug'lash, uning erkin kamol topishi uchun real sharoitlar yaratish o'z aksini topganligidir. Konstitutsiyada inson huquq hamda erkinliklari davlat tomonidan kafolatlanishi va muhofazalanishi belgilangan. Darhaqiqat, Konstitutsiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun demokratik, ma'rifiy davlat fuqarolari ega bo'lishi lozim bo'lgan barcha iqtisodiy, siyosiy hamda ijtimoiy-madaniy huquq va erkinliklarni kafolatlab bergan.

**YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYA — INSON SHA'NI, QADR-
QIMMATI VA HUQUQLARINING MUSTAHKAM KAFOLATI.**

Akmal SAIDOV
O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
Spikerining birinchi o'rinbosari

Mamlakatimizda 2023 yil 30 apreľ kuni o'tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz bergani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi, shu bilan bir qatorda, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganini ifoda etadi.

Xalq — davlat hokimiyatining birdan-bir manbai. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining avvalgi tahriri 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston xalqining vakolatli vakillari bo'lmish parlament a'zolari, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputatlari tomonidan qabul qilinganini bilamiz. Bundan farqli o'laroq, mamlakatimiz Asosiy Qonunining yangi tahriri bevosita umumxalq referendumida — to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yo'li bilan qabul qilindi. SHu ma'noda, yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining haqiqiy muallifi xalqning o'zidir. Fuqarolarning xohish-irodasi esa islohotlarning manbai va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 7-moddasi birinchi bandida «Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai», degan norma belgilab qo'yilgan. Bu norma timsolida O'zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume'tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi printsipi, ya'ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo'yilgan.

Shundan kelib chiqib, keyingi yillarda mamlakatimizda Yangi O'zbekiston inson sha'ni va qadr-qimmati, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari oliy qadriyat hisoblangan davlat bo'lishi; xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi; «odamlar tashvishi bilan yashash», xalqimizning qonuniy talab-istaklari va xohish-irodasini ro'yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanishi; barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida, fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuv asosida qabul qilinishi kabi printsip va g'oyalarni hayotga tatbiq etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Demokratiyaning talabu taomili va ustunligi ham shunda. Bunda qonun chiqaruvchi va ijro organlaridan inson huquqlarini ta'minlash; demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish; hokimiyat tarmoqlarini tiyib turish va muvozanatni saqlashda parlament rolini oshirish; davlat xizmatlari sifati va samaradorligini yaxshilash, davlat organlari faoliyatining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda parlament va jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak!

Yuqorida aytib o'tilgan moddaning ikkinchi bandi birinchi qismida belgilab berilgan O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilishi to'g'risidagi norma ham aytib o'tilgan fikrlarning tasdig'idir. Hech shubhasiz, ushbu normalar mamlakatimizda xalq hokimiyatchiligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini mustahkamlash bilan bir qatorda xalqimiz xohish-irodasi va insonlarning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Mazkur moddaning ikkinchi bandida yana bir umume'tirof etilgan tamoyil mustahkamlangan. Unga ko'ra davlat hokimiyati faqat «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidangina amalga oshiriladi».

Konstitutsiyadagi ushbu qoidalar 10-moddaning «O'zbekiston xalqi nomidan faqat u saylagan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishi mumkin», degan birinchi bandida yanada aniq ifoda etilgan va chuqur ochib berilgan. Ya'ni jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas.

Ushbu normalar talqini asnosida shuni ta'kidlash o'rinliki, insoniyat tajribasi negizida demokratiyaning ikki turi ishlab chiqilgan. Bulardan biri — to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita demokratiya bo'lsa, ikkinchisi — saylangan vakillarning tegishli muassasalari orqali amalga oshiriladigan vakillik demokratiyasidir. SHunga ko'ra O'zbekistonda boshqaruv davlat hokimiyatining uch tarmoqdan iborat tizimi orqali amalga oshiriladi: Oliy Majlis qonun chiqaruvchi vakillik organi sifatida qonunlarni qabul qiladi, Vazirlar Mahkamasi boshchiligidagi ijro hokimiyati ularning ijrosini ta'minlaydi, sudlar odil sudlov organlari sifatida nizolarni qonun asosida hal qiladi. Ushbu organlarning har biri muayyan doiradagi vakolatlarga egadir.

Yangi O'zbekiston — demokratik va huquqiy davlat

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 7-moddasi uchinchi bandida: «Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat organlari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi», deb belgilangan.

Bu normalar Yangi O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat hisoblanib, mamlakatda hokimiyat almashishi faqat Konstitutsiya va qonunlar asosida ta‘minlanadi, degan tamoyil hayotga tatbiq etilishining kafolatidir. Davlatning huquqiy siyosati insonparvarlik, demokratiya, ijtimoiy adolat va siyosiy xilma-xillik printsiplariga asoslanadi.

Yangi O‘zbekistonda xalqimizning boy tajribasi va madaniy an‘analariga asoslangan demokratiya o‘rnatilmoqda, bunda aholining turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlari manfaatlarini hisobga olinadi. Zo‘ravonlikka asoslangan eskicha ma‘muriy-buyruqbozlik tizimi qoldiqlari nihoyat barham topdi, ko‘ppartiyaviylik, g‘oya va fikrlar xilma-xilligi odatiy holga aylanib bormoqda.

O‘z navbatida, ushbu konstitutsiyaviy normalar umume‘tirof etilgan bir qator printsiplarga ham to‘la mos keladi.

Xususan, «Konstitutsiya va qonunlar ustunligi» printsiptini olaylik. Davlat organlarining vakolatlari Prezident, parlament yoki hukumatning har xil normativ-huquqiy hujjatlari bilan emas, balki faqat Konstitutsiya va qonunlar bilan belgilanadi. Davlat organlari Konstitutsiya va qonunlarga so‘zsiz bo‘ysunishi va o‘z vakolatlarini shu huquqiy negizdagina amalga oshirishi shart. Bu qat‘iy mezon qonun ustuvorligining ham muhim belgisi hisoblanadi. Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs tomonidan «davlat hokimiyatining tortib olinishi»ga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shuningdek, insonning siyosiy va boshqa huquq hamda erkinliklarini amalga oshirishi, davlat organlarining demokratik asosda shakllanishini ta‘minlash, jamiyatning demokratik siyosiy tizimini shakllantirishga ko‘maklashish hamda demokratik institutlar, fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish uchun qulay shart-sharoit yaratish kafolatlanadi.

Yangi O‘zbekiston — ijtimoiy va dunyoviy davlat

Konstitutsiyamiz Muqaddimasida davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy mafkurasi, xalqimiz Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida tayanadigan konstitutsiyaviy qadriyatlar va tamoyillar aniq belgilab berilgan.

Birinchi tamoyil — inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti printsiplariga sodiqlik. Bu bilan Konstitutsiyamiz insonning asrlar davomida dunyoda shakllangan asosiy ma‘naviy-axloqiy

qadriyatlari va asosiy huquqlarini oʻzida mujassam etgan holda, insonning oliy qadriyati — uning hayoti, erkinligi, shaʼni va qadr-qimmatini eʼlon qildi.

Konstitutsiyamizning avvalgi tahriridan farqli oʻlaroq, uning yangi tahririning asosiy gʻoyasi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, inson shaʼni va qadr-qimmatini taʼminlash, ilgari mavjud boʻlgan “davlat — jamiyat — shaxs” paradigmasini yangi: “inson — jamiyat — davlat” tamoyiliga oʻzgartirishdan iborat.

Davlatimiz rahbari taʼrifiga koʻra, inson qadri — mamlakatning har bir fuqarosi uchun tinch va xavfsiz hayot, fundamental huquq va erkinliklar, malakali tibbiy xizmat, sifatli taʼlim, kuchli va manzilli ijtimoiy himoya hamda sogʻlom ekologik muhit taʼminlanishini, munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilmaning bosqichma-bosqich yaratilishini anglatadi.

Bugungi kunda inson qadr-qimmatini, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash gʻoyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi Oʻzbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu saʼy-harakatlarni oʻzaro bogʻlab turuvchi muhim omilga aylandi.

Agar dunyo mamlakatlari Konstitutsiyalarida insonning 110 dan ortiq huquqi qayd etilganini hisobga olsak, hozirgi kunda shundan 90 tasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mavjud. Yaʼni bu Konstitutsiya, tom maʼnoda, oʻzbekona “Inson huquqlari toʻgʻrisidagi bill”ga aylandi, deyishga barcha asoslar bor.

Ikkinchi tamoyil — demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik gʻoyalariga sadoqat. Inson huquqlari boʻyicha xalqaro huquqda “inson qadr-qimmatini” tushunchasi har bir inson hurmatga loyiq ekanini tushunishga asoslangan tenglik va shaxsiy erkinlik tushunchalari bilan uzviy bogʻliq.

Inson huquqlari boʻyicha xalqaro shartnomalarda taʼkidlanganidek, erkinlik shaxsning oʻz huquqlarini amalga oshirishida davlat aralashuvining yoʻqligini anglatadi. SHu maʼnoda, konstitutsiyaviy islohotlarda huquqiy, ijtimoiy davlat imperativini taʼminlashga alohida eʼtibor qaratildi. Birdamlik, adolatli ijtimoiy siyosat, inson kapitalini rivojlantirish tamoyillari ustuvorligiga tayanildi.

Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Konstitutsiyasida davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga taalluqli normalar 3 barobar koʻpaydi. Eng muhimi, Asosiy Qonunimizda birinchi marta “Oʻzbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega boʻlgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” (1-modda), degan norma belgilandi.

Ijtimoiy davlat, deganda, avvalo, oʻz fuqarolariga muayyan minimal farovonlikni kafolatlaydigan davlat tushuniladi. Yangi Oʻzbekistonning asosiy

maqsadi — har bir fuqaroga g'amxo'rlik qilish, inklyuziv rivojlanish, aholining barcha qatlami uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashdan iborat.

Uchinchi tamoyil — hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglash (avlodlar huquqlari tengligi printsiipi), shuningdek, mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylash, atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil intilish. Hozirgi vaqtda ko'pgina rivojlangan davlatlar, global iqlim o'zgarishini hisobga olgan holda, o'z Konstitutsiyalariga maxsus ekologik bo'limlarni kiritmoqda. Jumladan, dunyoning 100 dan ortiq davlati Konstitutsiyalarida jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ehtiyojlariga javob beradigan ekologik huquqning umume'tirof etilgan printsiplari mustahkamlangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz yangi xususiyatlarining tahlili bu boradagi normalar mustahkamlangani va yanada kuchaytirilganini ko'rsatadi. Xususan, Asosiy Qonunimizning 115-moddasida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni va biologik xilma-xillikni saqlash, iqlim o'zgarishiga, epidemiyalarga, pandemiyalarga qarshi kurashish hamda ularning oqibatlarini yumshatish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini, 49-moddasida esa har kimning qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga bo'lgan huquqlarini ta'minlash belgilangan. Davlatning barqaror rivojlanish printsiipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash, shuningdek, Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralarni amalga oshirish sohasidagi majburiyatlari ham shular jumlasidandir.

To'rtinchi tamoyil — davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon tsivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanish.

O'zbek xalqining tarixi asrlar qa'riga borib taqaladi va uch ming yildan ortiq davrni qamraydi. Yurtimiz hududida o'z davrida gullab-yashnagan — Katta Xorazm, Baqtriya, So'g'd, O'rta asrlardagi Movarounnahr, Turkiston kabi davlatlar; Samarqand, Buxoro, Termiz, Toshkent, Xiva, SHahrisabz singari o'nlab noyob qadimiy shaharlar jahon madaniyatida yorqin iz qoldirgan. Ana shu boy o'tmishimiz tsivilizatsiya jarayonlari va falsafiy qarashlar, ilm-fan, ayniqsa, tibbiyot, astronomiya, geografiya, matematika, geodeziya va arxitektura sohalari rivojiga, madaniy va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishiga sezilarli darajada hissa qo'shdi. Shu bilan birga, xalqimiz tarixi, turmush tarzi va an'anaviy madaniyatida ma'naviy-axloqiy, ilmiy, diniy va huquqiy qadriyatlar muhim o'rin

tutgan. Ulug' ajdodlarimizning ma'naviy yuksalishga da'vat etuvchi ezgu amallari, diniy-axloqiy, huquqiy e'tiqodi Konstitutsiyamizni ma'naviy boyitdi.

Konstitutsiyada xalqimizga xos mehr-oqibat, o'zga millat vakillariga hurmat, bilimga intilish, or-nomus va qadr-qimmat, bag'rikenglik va hayo kabi fazilatlar o'z ifodasini topdi. Unda muqaddas Vatanimiz xalqiga xos adolat, rostgo'ylik, olijanoblik, mardlik va saxovat kabi yuksak fazilatlar ham mujassam etildi.

Beshinchi tamoyil — O'zbekistonning jahon hamjamiyati, avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlarini hamkorlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilish.

Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning 142 mamlakati bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan bo'lib, 100 dan ortiq xalqaro tashkilot va tuzilmalarga a'zo hisoblanadi. SHu bilan birga, keyingi yillarda Yangi O'zbekistonda ochiq va tinch, pragmatik va faol tashqi siyosatning mutlaqo yangi modeli amalga oshirilmoqda. Mazkur modelning eng muhim vazifalari — milliy rivojlanish maqsadlariga so'zsiz erishish uchun barcha ichki va tashqi resurslarni birlashtirish hamda safarbar etish, mamlakatning barqaror rivojlanishi uchun qulay tashqi muhitni shakllantirish, milliy manfaatlarni xalqaro maydonda samarali ilgari surish va izchil targ'ib qilish hamda milliy rivojlanish maqsadlariga erishish va mamlakat iqtisodiyotining jahon bozorida raqobatbardoshligi ortib borishini ta'minlash uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishdir.

Bu vazifalarni amalga oshirishda Yangi O'zbekistonning barcha xorij davlatlari bilan munosabatlarni o'rnatishda pragmatik yondashuvni mustahkamlash, ko'p tomonlamalik tamoyilini ilgari surish, globallashtirishning ijodiy jarayonlarini rivojlantirish, o'zaro manfaatli va teng huquqli xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, davlatimizni dunyoning faol va tadbirkor mamlakatlaridan biriga aylantirishga qaratilgan tashqi siyosati asosiy omil bo'ladi.

Buni 2017-2022 yillarda birgina BMT doirasida O'zbekiston Prezidenti tomonidan xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, ta'lim, ma'naviyat, ekologiya, turizmni yanada rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va boshqa sohalarda 30 dan ortiq tashabbus ilgari surilgani ham tasdiqlaydi. Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan keyingi yillarda BMT Bosh Assambleyasining 7 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi va bularning barchasi, albatta, BMTga a'zo davlatning eng faol va samarali rahbari sifatida e'tirof etilgan Prezident SHavkat Mirziyoev siyosatining bemiyl muvaffaqiyatidir.

Oltinchi tamoyil — fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlash.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz dunyoviy davlat, ochiq va adolatli jamiyat qurish, unda tenglik va teng huquqlilik printsiplarini hayotga tatbiq etish, fuqarolar, ayniqsa, ayollar va bolalar huquqlarini kamsitmaslik g‘oyalariga asoslanadi. Bunda yurtimizda inson huquqlari madaniyati tobora yuksalayotgani, inson hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatiga hurmat ruhi shakllanayotgani alohida ahamiyat kasb etdi.

Baosh qomusimiz Muqaddimasida O‘zbekiston xalqi ushbu Konstitutsiyani, jumladan, «fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta’minlash maqsadida» qabul qilgani alohida ta’kidlangan. SHu ma’noda, Asosiy Qonunimiz — biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo‘llanma, balki milliy g‘urur-iftixor, kerak bo‘lsa, ushbu zaminda istiqomat qilayotgan, jinsi, irqi, millati, tili, dinidan qat’i nazar, barcha insonlar uchun mustahkam huquqiy himoya hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan Asosiy Qonun Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish ekanligi qat’iy belgilandi, ijtimoiy adolat va birdamlik printsiplari joriy etildi. Ayniqsa, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlangani e’tiborga sazovor.

Eng asosiysi, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning: birinchidan, mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga egaligi; ikkinchidan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi;uchinchidan, yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishiga taalluqli konstitutsiyaviy normalar mustahkamlab qo‘yildi. Eski tahrirdagi matnda Konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashga doir ushbu mexanizmlar mavjud emasdi.

Bosh qomusimizning “Konstitutsiya va qonunning ustunligi” bobidagi 15-16-moddalarning yangi va eski matnidagi normalari o‘zaro qiyoslansa, bu fikrlarimiz qanchalik haqqoniy ekani o‘z tasdig‘ini topadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq:“O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”.

Shu o‘rinda 2023 yil 8 may kuni Prezidentimizning “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinganini ta’kidlash lozim.Ushbu muhim hujjat talablari:yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish unda mustahkamlangan ustuvor printsiplarni Yangi O

O‘zbekiston ulug‘vor g‘oyasiga hamohang tarzda ro‘yobga chiqarish; davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo‘lga qo‘yish; fuqarolar o‘z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta‘minlash maqsadlariga qaratilgan. Farmonda belgilanganidek, “yangi tahrirdagi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va so‘zsiz qo‘llaniladi”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi, zamonaviy va juda muhim normalarning hayotga qat‘iy hamda izchil tatbiq etilishi, xususan, sudlar tomonidan ana shu konstitutsiyaviy qoidalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanishi yurtimiz va xalqimiz tarixida inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari va qadr-qimmatini ulug‘lash borasida yangi davrni boshlab bermoqda. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta‘minlashni nazarda tutamiz”.

Muxtasar aytganda, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e‘tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga qaratilganini ishonch bilan ta‘kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy Qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi O‘zbekiston o‘zining ushbu sohalaridagi xalqaro majburiyatlariga qat‘iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi. Konstitutsiyamizda Yevropa, Osiyo, SHarq va Amerika mintaqalarida joylashgan dunyo davlatlarining ijobiy konstitutsiyaviy tajribasi o‘z aksini topgan. Asosiy Qonunimiz huquqshunos olimlar, siyosatshunoslar, ko‘plab xalqaro tashkilotlar mutaxassislari tomonidan sinchiklab o‘rganilgan bo‘lib, unga inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq normalari qo‘shimcha ravishda uyg‘unlashtirilgandir.

YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI VA QONUN CHIQARISH JARAYONI

*X.T.Odilqoriev**

Adliya maslahatchisi, yu.f.d. professor

Yurtimizda 2023 yil 30 aprelda o‘tkazilgan umumxalq referendumida qabul qilingan Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi ovoz berdi. Unga davlat qurilishi, davlat hokimiyatini oqilona

* Toshkent Davlat pedagogika universiteti “Ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi” kafedrası professori

taqsimlash hamda tashkil etish maqsadida tegishli bo'lim va boblarga ham bir qator muhim yangi moddalar va normalar kiritildi. Natijada, boshqa ko'plab yangiliklar qatori parlamentning funksiyalari yanada aniqlashtirildi, palatalarning vakolatlari kengaytirildi, xususan, qonun ijodkorligi jarayoni sezilarli darajada demokratlashtirildi. Masalan, Konstitutsiyamizning moddalari 128 tadan 155 taga oshirildi. Undagi konstitutsiyaviy norma va qoidalar 275 tadan 434 tagacha ko'paytirildi. Umuman olganda, Asosiy qonunimizning matni qariyb 65 foizga yangilandi.

Mamlakatimiz Asosiy qonunini hozirgi zamon ehtiyojlariga moslashtirish maqsadida amalga oshirilgan tub konstitutsiyaviy islohotlar parlament faoliyatini, uning palatalari vakolatlarini kengaytirish, qonun chiqarish faoliyatini sifat nuqtai nazaridan yanada takomillashtirish masalalarini ham chetlab o'tmadi.

Avvalo, Konstitutsiyani yangilash ehtiyoji yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida o'z aksini topgan adolatli va xalqparvar davlat barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadigan vazifalarni bajarish uchun yangi konstitutsiyaviy makon va yanada mustahkam qonunchilik bazasini yaratish zarurligidan kelib chiqdi. SHu ma'noda, Asosiy qonunimizni jamiyatdagi bugungi real ijtimoiy-siyosiy voqelikka, shiddatli islohotlarimiz mantig'iga moslashtirish, yangi O'zbekistonni qurish uchun mustahkam, ishonchli huquqiy poydevor yaratish muhim vazifaga aylanmoqda, - dedi davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoev.¹

Yangi tahrirdagi Asosiy qonunda Konstitutsiyaning talqini yanada kuchaytirildi. Uning 15-moddasidagi normaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Konstitutsiyaviy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida zamonaviy parlamentarizmning demokratik institutlarini joriy qilish, xalq hokimiyatchiligi real amal qilishi uchun zarur konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmlarni ifodalash hamda yanada kuchaytirish muhimligi e'tirof etildi.

Konstitutsiyamizni yangilash, yanada takomillashtirish hamda modernizatsiya qilish yo'lidagi islohotlar orqali mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, uni oliy qadriyat bilib, benazir xilqat darajasiga ko'tarish, uning huquq va erkinliklarini ishonchli kafolatlash, fuqarolarimizda yuksak huquqiy ong hamda munosib konstitutsiyaviy-huquqiy madaniyatni, haqiqiy konstitutsiyaviy ma'rifiylik va dunyoqarashni, tegishli huquqiy tafakkurni qaror toptirishda parlamentning qonun chiqarish faoliyati ham shubhasiz, ulkan ahamiyat kasb etadi.

¹ "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2021 yil 8 dekabr.

Shuningdek, yangi tahrirdagi Asosiy qonunda samarali ixcham xalqchil davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimi joriy etilib, parlamentarizm institutlarini kuchaytirish sari dadil qadamlar qo'yildi:

- unga ko'ra, Qonunchilik palatasi va Senatning vakolatlari sezilarli darajada kengaymoqda, ikki palata ishidagi takrorlanishlar bartaraf etilib, har birining mas'uliyat sohasi aniq belgilandi; xususan, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 taga, Senatda esa 14 tadan 18 taga ko'paydi;

- Senat oldiga qo'yilayotgan yangi vazifalardan kelib chiqib, uni ixcham, xalqchil va hududlar manfaatini ifoda etadigan idoraga aylantirish bo'yicha yangi normalar Konstitutsiyaga kiritildi;

- xususan, Senatorlar sonini 100 nafardan 65 nafarga tushirish, bunda har bir hududdan teng ravishda 4 tadan senator saylanishi, Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni esa 16 tadan 9 taga kamaytirilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mamlakatimizda qonunlarni yaratish va ularga yuridik kuch bag'ishlashning konstitutsiyaviy mexanizmi, qonun chiqarish jarayoni aniq va mukammal mustahkamlangan. Qonun davlat hokimiyati maxsus faoliyatining mahsuli sifatida vujudga keladi. Davlat amrining oliy ifodasi bo'lmish qonun hokimiyatning alohida vakolatli organi tomonidan amalga oshiriladigan murakkab jarayon natijasida yaratiladi.

Qonun ijodkorligi huquq ijodkorligining eng muhim, asosiy shaklidir. Qonun ijodkorlik faoliyati – vakolatli davlat vakillik organining qonunlar loyihasini ishlab chiqish va qabul qilishga qaratilgan va aniq maqsadga yo'naltirilgan irodaviy faoliyati. Mazkur faoliyat ijodiy jarayon bo'lib, bunda xalqning irodasi aniqlanadi, shakllantiriladi, belgilangan tartibda qonun darajasiga ko'tariladi, rasmiylashtiriladi, unga yuridik shakl beriladi.

Davlat qonunchilik faoliyati orqali siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va mafkuraviy hayotning hamma sohalaridagi eng muhim masalalarni hal etishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar yaratadi. Qonun chiqarish yoki qonunchilik har qanday davlatning ajralmas funktsiyasi va shunday bir faoliyat yo'nalishiki, unda davlatning oliy vakillik irodasi ijtimoiy tajribani umumlashtirish asosida jamiyatga davlat rahbarligini amalga oshirish hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida qonunlar yaratadi, mavjud qonunlarni o'zgartiradi va eskirganlarini bekor qilish orqali vakolatli vakillik organi (referendumda – bvosita xalq) davlat (xalq, hukmron guruh) irodasini qonun darajasiga ko'tarib, unga siyosiy, yuridik tus beradi. Ayni vaqtda, uning mohiyati, butun siyosiy xarakteriga qaramasdan, voqelikni, ijtimoiy munosabatlar mazmunini nazariy anglashdan (hech bo'lmaganida, shunday bilish taqozosidan) iborat.

Qonun chiqarish jarayoni davlat oliy vakillik organining Konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi qonunlar yaratishga, amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritishga qaratilgan, shuningdek eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlari yig'indisi bo'lib, u qonun bilan tartibga solinishi zarur bo'lgan munosabatlarni aniqlash, qonun loyihasini tayyorlash, muhokama etish va qabul qilishni o'z ichiga oladi. Qonun chiqarish jarayoni muayyan tartib, tashkillashganlik ifodasi sifatida mamlakatda qonunchilik hokimiyatini amalga oshirish shakli hisoblanadi. Qonunning oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat ekanligi, jamiyat hayotidagi ustuvor mavqei qonunchilik jarayonining ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilab beradi. Zero, qonun yaratish jarayonining mukammal tartibga solinganligi sifatli va talab darajasidagi qonunning tug'ilishi uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqil davlatchiligimiz rivojlanishi davrida shakllangan amaliyot va harakatdagi qonunchilikka muvofiq qonun chiqarish jarayoni quyidagi bosqichlar orqali ro'yobga chiqadi:

- 1) qonunchilik tashabbusining namoyon etilishi;
- 2) qonun loyihasining parlament quyi palatasida (qo'mitalar, partiya fraktsiyalari, yalpi majlisda) muhokama etilishi;
- 3) loyihaga ovoz berish orqali qonunni qabul qilish;
- 4) qonunning Oliy Majlis Senati tomonidan ma'qullanishi;
- 5) qonunning Prezident tomonidan imzolanishi, matbuotda e'lon qilinishi.

Qonun chiqarish jarayonida qonunchilik tashabbusini namoyon etuvchi sub'ektlar ro'yxati Konstitutsiyada mustahkamlanadi.

Ta'kidlash joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan sub'ektlar tarkibi ancha kengaytirildi. Ular qatoriga yangi sub'ektlar kiritilib, tegishli moddaning matni quyidagicha bo'ldi:

“Qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ega. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Bosh prokurori ham o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga egadir. Qonunchilik tashabbusi huquqi qonun loyihasini qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili

(ombudsman), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli.

Qonun loyihalarini, qonunchilik takliflarini kiritish va ko‘rib chiqish tartibi qonun bilan belgilanadi.”²

Ayni vaqtda, mazkur moddani nazariy jihatdan ta’rif va tavsif etish, uni mazmunan yanada mukammallashtirishga yo‘naltirilgan ba’zi mulohazalarni bildirish o‘rinli deb o‘ylaymiz: Yuqorida ta’kidlanganidek, sharhlanayotgan moddada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Oliy vakillik organi orqali), Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Bosh prokurori bu huquqni parlamentning quyi palatasiga tayyor qonun loyihasini kiritish orqali amalga oshirishi belgilangan. Moddaning uchinchi qismida O‘zbekistonning yuz ming nafardan kam bo‘lmagan fuqarolari, Senat, Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman), Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli ekanligi ko‘rsatilgan.³

Ushbu moddaning mazmunidan ayon bo‘lishicha, mazkur huquqning ob’ekti: - ham *“tayyor qonun loyihasi”*, ham *“qonunchilik taklifi”*. Qonunchilik tashabbusi huquqining sub’ektlari ikki toifa tarzida belgilanmoqda. Bunda mazkur huquq sub’ektlarining imkoniyatlarini bir xillashtirish mantiqan to‘g‘ri bo‘lardi. Zotan, deputatlar ham qonunchilik taklifini kiritish huquqiga ega bo‘lardi. Chunki, hamma deputatlar ham qonun loyihasini mustaqil tayyorlab, taqdim etishga qodir bo‘lmasligi mumkin.

Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud va Bosh prokuror faqat o‘z vakolati jumlasiga kiruvchi masalalar bo‘yicha qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshiradilar deyilgan. Amalda esa Konstitutsiyaviy sud barcha qonunlarning Konstitutsiyaga mosligini aniqlaydi; Bosh prokuror va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar barcha qonunlarning aniq ijrosini nazorat qiladi; Oliy sud va boshqa barcha sudlar qonunchilikning barcha soha hamda tarmoqlariga oid (iqtisodiy, mulkiy, tadbirkorlik, investitsiyalar, ma’muriy, fuqaroviy, oila va nikoh, mehnat, soliq va boj munosabatlari, yer, suv, ekologiya, jinoyat va boshqa) qonunlari normalarini amaliyotga qo‘llaydilar. Shu bois ularning o‘z vakolatlari doirasini chegaralash imkonsiz.

Chamasi, Qonunchilik tashabbusi huquqining har ikki ob’ektini nazarda tutgan holda ushbu huquq sub’ektlarini teng talqin etish ma’qul ko‘rinadi.

² <https://old.lex.uz/docs/6445145>

³ <https://meningkonstitutsiyam.uz/uz.pdf>

Fuqarolar ko‘rib chiqilayotgan huquqning yangi, maxsus subʼektiga aylandi. Ma’lumki, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning qonun ijodkorligi jarayonida keng ishtirok etayotgani qabul qilinayotgan qonunlarning sifati va ijtimoiy asosini oshirishga xizmat qiladi. SHu bois saylov huquqiga ega bo‘lgan fuqarolardan kamida yuz ming nafardan iborat bo‘lgan fuqarolarning qonunchilik tashabbusi sifatida Qonunchilik palatasiga qonunchilik taklifi kiritish huquqi to‘g‘risidagi norma kabi yangilik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu huquqning konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi e’tiborli albatta, biroq xalq qonunchilik tashabbusining haqiqiy sub’ekti, qonunlar yaratuvchisiga aylanishi uchun qonun loyihasi tashabbuskorlari sonining miqdoriy tsenzini kamaytirish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qonuning 95-moddasi 17-bandida Senatning “Qonunchilik palatasi tarqatib yuborilgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlarni qabul qilishga doir vakolatlarini bajarishi” nazarda tutilgan. Bikameralizm (ikki palatali parlament) printsipi mohiyatiga ko‘ra, quyi palata tarqatib yuborilgan vaziyatda bir palata, ya’ni Senat qonunlarni qabul qilishi istisno etiladi.⁴

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqish va tayyorlash, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o‘z vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan qo‘mitalarni saylaydi (Konstitutsiyaning 102-moddasi 1-qismi).

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 99-moddasida qonun chiqarish jarayoniga oid quyidagi qoidalar belgilangan:

Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senat tomonidan ma’qullanib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolanganach va qonunda belgilangan tartibda rasmiy manbalarda e’lon qilingach, yuridik kuchga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan qonun qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi.

Qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan oltmish kun ichida ko‘rib chiqiladi va ma’qullangan taqdirda, imzolanishi va e’lon qilinishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga o‘n kundan kechiktirmay yuboriladi.

Agar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati qonunni ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida oltmish kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik

⁴ <https://meningkonstitutsiyam.uz/uz.pdf>

palatasi tomonidan qonun imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni oltmish kun ichida imzolaydi va e'lon qiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qaytariladi.

Agar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi hamda imzolanishi va e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonunni o'z e'tirozlari bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli. Ya'ni, bu o'rinda Prezident "Veto" huquqidan foydalanadi, qonunni imzolashni kechiktiradi. Unga o'z e'tirozlarini yozma ravishda ilova qilib, parlamentga qayta ko'rib chiqish uchun qaytarib yuboradi.

Agar qonun avvalgi qabul qilingan tahririda tegishincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan ma'qullansa, qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o'n to'rt kun ichida imzolanishi va e'lon qilinishi kerak.

Qonunlarning va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, qabul qilingan qonun bir sutka muddatda "E-hukumat" tizimi orqali elektron tarzda e'lon qilinishi mumkin.

SHunday qilib, yuqorida Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasida parlamentning qonun chiqarish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish, uning yangi Konstitutsiyaviy mexanizmlari va tartiblari joriy etilganligiga e'tiborni qaratdik. Tabiiyki, ushbu Konstitutsiyaviy novellalar qonun chiqarish jarayonining demokratik tabiatini kuchaytirishga, unga keng xalq ommasini, fuqarolarni yanada faolroq jalb etishga imkon yaratadi. Qolaversa, qonun ijodkorligi jarayoni barcha sub'ektlarining mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

**KONSTITUTSIYA VA SAYLOV QONUNCHILIGINING
TAKOMILLASHUVI**

*Akramov Abdumalik Abdumutalovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi deputati, “Fan, ta’lim,
madaniyat va sport masalalari” qo‘mitasi a’zosi*

Konstitutsiya va saylovlar – demokratiyaning yorqin ifodasi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar shaffofligi hamda erkinligining ko‘zgusidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq mamlakatimizdagi demokratik islohotlar yo‘lini yorituvchi, yangi hayot va adolatli jamiyat yaratishning ishonchli asosi bo‘lib maydonga chiqmoqda. U O‘zbekiston davlati suverenligining va erkin taraqqiyot etajagining yaqqol timsoli sifatida gavdalanmoqda. Real ijtimoiy-siyosiy hayotning o‘zi Konstitutsiyamizning ulkan bunyodkorlik salohiyatiga ega ekanligini isbotlab turibdi. Mamlakatimizda saylov tizimining mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari vujudga keltirilgan. Demokratik mamlakatlarda saylovlar davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishni qonuniy, jamiyat e’tirofiga sazovor (legitim) davlat hokimiyatini shakllantirishning, uning idoralarini yangilab turishning samarali shakli hisoblangan saylovlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. SHu bois saylovlar demokratiyaning muhim instituti, xalqning siyosiy hayotda bevosita ishtirokini ta’minlash vositasi sanaladi.

Konstitutsiya, saylovlar va referendum kabi bevosita demokratiya institutlarini mustahkamlash orqali jamiyatda siyosiy barqarorlikni, fuqarolararo totuvlik, bahamjihatlik va tinchlikni ta’minlaydi, ijtimoiy-siyosiy qatlamlar va guruhlar o‘rtasidagi kuchlar nisbatini muvozanatga keltirib turadi.

«Saylov – demokratiya ko‘zgusi» deya e’tirof etiladi. Darhaqiqat, saylovlarning adolatli tashkil etilishi va amalga oshirilishi, fuqarolarning mazkur siyosiy jarayonda faol ishtirok etishlari va o‘z vakillariga erkin va qonuniy tarzda ovoz berishlari, saylovlar natijasida parlamentda va vakillik organlarida munosib nomzodlarning mandatga ega bo‘lishlari mamlakat hududida demokratiyaning shakllanganligini, fuqarolarning siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatining yuksakligini ifoda etadi. Saylov shunday jarayonki, u mamlakatda davlat boshqaruvining tashkil etilishini, davlat hokimiyati va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatni qay darajada qaror topganligini, xalqning siyosiy madaniyatini, mazkur hududda mavjud siyosiy hurfikirlikni (plyuralizmni) va, o‘z navbatida,

mamlakatdagi ijtimoiy adolat, qonuniylik, tenglik, insonparvarlik kabi tamoyillarning amaldagi ifodasini namoyon etadi.

Jamiyat hayotidagi ijtimoiy voqeliklarni uzluksiz rivojlanib, o'zgarib borishi saylov jarayonlarini, ayniqsa, uning huquqiy asoslarini takomillashtirib borishni taqozo etadi. Chunki, hokimiyatga bo'lgan munosabat, davlat boshqaruvi, vakillik organlarini shakllantirish tartibi doimo yangiliklarni, o'zgarishlarni talab etadi. Fuqarolarning saylov jarayonlariga munosabatini ijobiy tomonga o'zgartirib borish, ularning saylov to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarini muttasil rivojlantirib borish har bir rivojlanish bosqichidagi kabi hozirgi modernizatsiya davrida ham o'z ahamiyatini oshirib bormoqda.

Bugungi kunga qadar O'zbekistonda saylov jarayonlarini huquqiy tartibga soluvchi quyidagi qonunlar qabul qilindi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonun⁵ (1997 yil 26 dekabrda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan); 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida»gi qonun (2003 yil 29 avgustda yangi tahriri tasdiqlangan); 1994 yil 5 mayda qabul qilingan «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida»gi, 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi va «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar; 1998 yil 30 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida»gi, 2004 yil 29 apreldagi «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi, 2004 yil 2 dekabrda qabul qilingan «Xalq deputatlari mahalliy kengashi deputatini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatini va Senati a'zosini chaqirib olish to'g'risida»gi qonunlar, 2007 yil 11 apreldagi «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonuni⁶ hamda 2008 yil 25 dekabrda qabul qilingan «Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni.

Mazkur qonunlarda saylov tizimi va uning mazmun-mohiyati, saylov tizimining asosiy tamoyillari, saylash va saylanish huquqi, saylovlarni tashkil etish, o'tkazish, ovoz berish natijalarini aniqlash, fuqarolarning saylovlardagi ishtiroki,

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1992. №1. 34-modda // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1998. № 3. 38-modda, 2005. №1. 18-modda.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining axborotnomasi. 2007. №4. 161-modda.

saylov huquqining kafolatlari, saylovlarni moliyalashtirish va shu kabi o'ta muhim masalalarni huquqiy tartibga solish mezonlari belgilandi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi saylov qonunchiligini shakllantirishda xalqaro huquqning umume'tirof etgan normalari, xususan, «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi», «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida»gi Xalqaro pakt, «Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risida»gi Konventsiya, «Erkin va adolatli saylov mezonlari to'g'risida»gi Deklaratsiya, «Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda demokratik saylovlar va saylov huquq va erkinliklarining standartlari to'g'risida»gi Konventsiyaga asoslanilmoqda, ilg'or taraqqiy etgan mamlakatlarning saylov amaliyoti batafsil o'rganilib, chuqur tahlil etilgan holda ularning boy tajribasi hamda saylov qonunchiligining ibratli namunalaridan foydalanilmoqda.

Mamlakatimizda saylov qonunchiligini takomillashtirishda yuqoridagi mezonlar bilan bir qatorda xalqimizning o'ziga xosligi, mentaliteti, ijobiy an'analari, betakror qadriyatlari inobatga olinmoqda, boy ma'naviy-madaniy merosiga tayangan holda ish olib borilmoqda.

Bizning fikrimizcha, saylov tizimi huquqiy asoslarining yaratilishi, rivojlanishi va saylov amaliyotini quyidagi asosiy bosqichlarga ajratish mumkin:

Saylov tizimi konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining yaratilishi davri (1991-2000 yy.) – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda bir palatali Oliy Majlisni ko'ppartiyaviylik asosida shakllantirish bilan bog'liq davrni o'z ichiga oladi.

Milliy saylov qonunchiligi asosida o'tkazilgan parlament saylovlarida to'plangan amaliy tajribaga muvofiq saylov tizimining demokratik asoslarini mustahkamlash va qonunlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish kabi tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, bu bosqichda saylovlarni tashkil etish va natijalarini aniqlashda xolislikni ta'minlash hamda turli ehtirolarga yo'l qo'ymaslik maqsadida mustaqil organ – Markaziy saylov komissiyasi tuzildi.

Saylov jarayonining muhim sub'ektlari hisoblangan siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi bilan kelgusida o'tkaziladigan barcha parlament, Prezident va mahalliy Kengashlarga deputatlar saylovlariga yangi huquqiy zamin yaratildi⁷. Siyosiy partiyalarning Oliy Majlisda o'z siyosatini uyushgan holda o'tkazish uchun parlament fraktsiyalarini tashkil etishning qonuniy kafolatlari vujudga keldi. Eng muhimi, siyosiy partiyalarning saylov tartib-qoidalariga rioya qilinishini nazorat etish bo'yicha

⁷ O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 1997. – № 2. – 36-modda.

vakolatlari kengaydi va nomzod ko'rsatgan siyosiy partiya har bir saylov uchastkasiga o'z kuzatuvchisini tayinlash huquqiga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 19 avgustdagi "Amaldagi qonunchilik hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan saylov qonunlariga bir qator demokratik qoidalar kiritildi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunning 25-moddasi 2-qismi yangi tahrirda bayon etilib, deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalarga ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda teng huquqlar berildi. Bu qoida "O'zbekiston Respublikasi Prezident saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ham kiritildi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunning 44-moddasida muayyan takomillashuv ro'y berdi hamda siyosiy partiyadan ko'rsatilgan hamma nomzodlar uchun belgilangan talab – saylovchilarning kamida besh foizining ovozi to'plamagan bo'lsalar, Oliy Majlis deputatlari etib ro'yxatga olinmasliklari to'g'risidagi cheklov olib tashlandi⁸.

Umuman, saylov qonunchiligi shakllanishining dastlabki bosqichi shu bilan ahamiyatliki, avvalo, saylov tizimining konstitutsiyaviy asoslari yaratildi. Prezidentlik, Oliy Majlis, mahalliy vakillik organlariga saylov o'tkazishning huquqiy asoslari shakllandi, fuqarolarning saylov huquqlari xalqaro saylov standartlari asosida kafolatlandi, saylovlarni tashkil etishga vakolatli organning huquqiy maqomi alohida qonun orqali tartibga solindi⁹.

Saylov tizimi huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish, liberallashtirish va saylov amaliyotini takomillashtirish (2001-2010 yy.) – bu muddat mamlakatimizda faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'lib, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishda muhim rol o'ynagan jarayonlarga boy bo'ldi. Bu davr bevosita ikki palatali parlament tizimiga o'tish bilan bog'liq saylov qonunchiligining tadrijiy taraqqiyotiga asoslangan bosqichning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etdi.

2003 va 2008 yillarda Konstitutsiyamizga, shuningdek, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga tegishli o'zgartirish va

⁸ Odilqoriev X.T. Konstitutsiya va saylov qonunchiligi. – T., 2007, 12 – 13-betlar.

⁹ Yakubov SH.U. O'zbekiston Respublikasining saylov tizimi va milliy saylov qonunchiligi. – T., 2016, 17 – 18-betlar.

qo'shimchalar kiritilishi o'tgan davr mobaynida samarali, demokratik saylov tizimini shakllantirish va rivojlantirish sohasida g'oyat chuqur o'zgarishlarga asos bo'lib, milliy saylov tizimining izchil va bosqichma-bosqich liberallashtiruvini, ikki palatali parlament saylovlarining qonun talablari va umume'tirof etilgan xalqaro printsip va normalarga to'la mos holda o'tkazilishini ta'minlaydigan mukammal qonunchilik bazasining shakllanishiga olib keldi.

Davlat boshqaruvini demokratlashtirish va yangilash hamda erkinlashtirish sharoitida Prezidentning ayrim vakolatlari Senat va Bosh vazirga o'tkazilishi, shuningdek, ikki palatali parlamentning barpo etilishi saylov to'g'risidagi qonunlarning yanada takomillashuviga asos bo'ldi. 2003 yilning 29 avgustida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi hamda "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga tegishli o'zgartirishlar kiritildi. SHu tariqa ikki palatali parlamentga saylovlar uchun zarur normativ-huquqiy baza yaratildi. Unda saylov huquqiga oid xalqaro standartlar va saylov tizimini rivojlantirish tajribasi, shuningdek mamlakatda parlamentarizm taraqqiyotining milliy xususiyatlari e'tiborga olindi.

"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga 2004 yil 27 avgustda quyidagi muhim o'zgartirishlar kiritildi: "Xotin-qizlar soni siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining o'ttiz foizini tashkil etishi lozim" (22-modda); "Imzo varaqalari to'g'ri to'ldirilganligini tekshirish tartibi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan belgilanadi" (11 va 23¹ – moddalar); "Saylov byulletenida uni to'ldirish tartibi to'g'risida tushuntirish bo'lishi kerak" (35-modda); "Saylovda saylovchi o'zi yoqlab ovoz berayotgan deputatlikka nomzodning familiyasi ro'parasida, o'ng tomonda joylashgan bo'sh kvadratga belgi – krestik qo'yadi" (41 – modda); "Belgilanmagan namunadagi saylov byulletenlari va varaqalari, shuningdek ovoz berish chog'ida bittadan ortiq kvadratga belgi-krestik qo'yilgan yoki bitta ham kvadratga belgi-krestik qo'yilmagan saylov byulletenlari va varaqalari haqiqiy emas deb topiladi. Saylov byulleteni va varaqalarning haqiqiyliigi shubha tug'dirsa, masala uchastka saylov komissiyasi tomonidan ovozga qo'yish orqali hal etiladi" (42-modda)¹¹.

2008 yil 25 dekabrda qabul qilingan "Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'zbekiston

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi Qonuni yangi tahriri // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003. – № 9–10. – 132-modda.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004 y. 37-son, 408-m.

Respublikasi Qonuni saylov jarayonining huquqiy asoslarini yanada rivojlantirdi. Ushbu qonunchilik o'zgartishlarida quyidagilar nazarda tutildi. Parlament deputatlari soni 120 tadan 150 taga o'zgartirildi. Bunda 135 ta o'rinni siyosiy partiyalardan ko'ppartiyaviylik asosida bir mandatli okruglarda saylanadigan deputatlar egallashi belgilab qo'yildi. O'zbekiston Ekologik harakatidan uning oliy organi (Konferentsiyasi) tomonidan Markaziy saylov komissiyasi belgilaydigan muddatlarda saylanadigan bo'ldi. Bundan tashqari, jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz berayotgan real jarayonlarda siyosiy partiyalarning roli kuchayib borayotganligi inobatga olinib, saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan deputatlikka nomzodlar ko'rsatish instituti bekor qilindi. SHuningdek, deputatlikka nomzodlar ishonchli vakillarining soni 5 nafardan 10 nafarga o'zgardi. Siyosiy partiyalarga saylov uchastkasida ovozlarni sanashda ishtirok etish huquqi berildi.

*Milliy saylov qonunchiligimizni rivojlantirishning navbatdagi bosqichi – 2011 yildan to O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi PF–5308-son Farmoni qabul qilungunga qadar*¹².

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga va mahalliy Kengashlar saylovi jarayonlariga oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish maqsadida "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlariga saylovoldi tashviqotini amalga oshirish bilan bog'liq normalar kiritilib, ular saylov jarayonining adolatli amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qildi.

2012 yil 19 dekabrda "saylovoldi tashviqoti" tushunchasi, uning muddatlari, usul va shakllari aniqlashtirildi; muddatidan oldin ovoz berish tartibi aniq belgilash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida ifodalangan kuzatuvchilarga oid norma quyidagicha to'ldirildi: "O'zbekiston Ekoharakatidan Qonunchilik palatasiga nomzodlar ko'rsatish va ularni saylash bo'yicha Ekoharakat konferentsiyasida hozir bo'lish"¹³.

¹² Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi PF–5308-son "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmon ilovasining 2-bandi bilan "O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi"ning loyihasini ishlab chiqish masalasi qo'yilgan.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 51-son, 574-modda.

2014 yil 20 yanvarda “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga xalq deputatlari mahalliy kengashlaridagi partiyaviy guruhlarning vakolatini kuchaytirishga yo‘naltirilgan norma kiritildi. Unga ko‘ra, partiyaviy guruhlariga tegishli vakillik organi, qo‘mita yoki komissiyalari raislari va a‘zolari nomzodlari bo‘yicha taklif kiritish huquqi berildi.

Milliy qonunchiligimizda ko‘zda tutilgan saylov kampaniyasi jarayoni har bir bosqichining quyidagi bir qator xususiyatlari: *birinchidan*, ularning aniq belgilangan muddatlarda shakllanishi, ya‘ni davriyligi, *ikkinchidan*, mantiqiy ketma-ketligi va uzviyligi, *uchinchidan*, biri ikkinchisini to‘ldirishi, ya‘ni yaxlitligi, *to‘rtinchidan*, har bir bosqichning aniq maqsadlarga yo‘naltirilganligi kabi o‘ziga xos belgilari mavjud.

O‘zbekiston saylov qonunchiligining rivojlanish dinamikasi va optimallashtirish ko‘lamlarini tahlil etish uning quyidagi tendentsiyalarini ifodalash imkonini beradi:

- milliy saylov qonunchiligining xalqaro standartlarga izchil muvofiqlashtirib borilayotganligi;
- saylov tizimining bosqichma-bosqich liberallashib, oshkora va shaffof bo‘lib borayotganligi;
- saylov qonunchiligida xalq mentaliteti va milliy xususiyatlarning inobatga olinganligi;
- inson huquqlarini ta‘minlash maqsadida saylov qonunchiligida insonparvarlik (gumanizatsiya) printsiplari amaldaligi;
- saylov huquqi kafolatlarining kuchayishi va saylov qonunchiligini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning kuchaytirilayotganligi.

Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib aytish mumkinki, davlat hokimiyatining vakillik organlariga o‘tkaziladigan saylovlarda saylovoldi tashviqoti deputatlikka nomzodlar va ularni ko‘rsatgan siyosiy partiyalar uchun o‘ziga xos katta sinov hamda sarhisob davri hisoblanadi. SHuning uchun saylov kampaniyasida saylovoldi tashviqoti jarayoni nihoyatda muhim bosqich bo‘lib, unda siyosiy partiyalar, nomzodlar mamlakatni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy yuksaltirish bo‘yicha o‘z dasturlarining mazmun-mohiyatini namoyon qiladi¹⁴.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan o‘zgarishlarning muhimligini shunday ta’kidlash lozimki, saylovlarning huquqiy bazasini yaratish bilan birga saylov qonunchiligini qo‘llash bo‘yicha saylov komissiyalarining professional malakasini oshirish lozim bo‘ladi.

¹⁴ Kanyazov Ye., Zulfiqorov SH., Turg‘unov O. O‘zbekiston Respublikasi saylov tizimi va saylov qonunchiligi. – T.: “O‘zbekiston”, 2014. – B.34.

SHunday qilib, saylov tizimida amalga oshirilgan islohotlarning asosiy yoʻnalishlari quyidagilardan iborat: a) saylov jarayonining barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratish va chinakam sogʻlom raqobatni taʼminlash; b) saylovchilarning manfaatini ifodalovchi subʼekt sifatida siyosiy partiyalarning teng huquqli ishtirokini taʼminlash; v) saylov tashkilotchilarining, avvalo, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi mustaqilligini taʼminlash.

Saylov qonunchiligi takomillashuvining *zamonaviy yangi bosqichi Saylov kodeksi (2019 yil 28 fevral)* qabul qilingandan *eʼtiboran to hozirgacha boʻlgan davrni* qamrab oladi.

Maʼlumki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida bugunga qadar tarqoq holda amal qilgan saylov toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarini xalqaro norma va standartlar talablaridan kelib chiqib unifikatsiya qilish, yaʼni Oʻzbekiston Respublikasining yagona Saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish masalasi qoʻyilgandi.

Saylov kodeksining asosiy gʻoyasi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasida keltirilgan saylov tizimini, uning obʼekti, subʼektlari va butun saylov jaryonini toʻliq qamrab olishni, shuningdek saylovni oʻtkazish bilan bogʻliq munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga soladigan yagona mukammal normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqishni nazarda tutdi.

OʻZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY MAJLISI – DAVLAT HOKIMIYATINING OLIY VAKILLIK VA QONUN CHIQUYUVCHI ORGANI

O.T.Abdugʻaniyev
T.N.Qori Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston
pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti
Ilmiy kotibi p.f.b.f.f.d.(PhD)

Davlat hokimiyatini ifoda etuvchi irodalardan biri – parlament deb nomlanadi. Parlament – oliy qonun chiqaruvchi va vakillik organidir. Oʻzbekistonda parlament – Oliy Majlis hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 91 – moddasiga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi boʻlib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Davlat hokimiyati funksiyalarining boʻlinishi printsipiga koʻra, vakillik organi – parlament zimmasiga qonunlarni qabul qilish vazifasi yuklatiladi. Qonunlar jamiyat hayotida nihoyatda muhim oʻrin tutgani, alohida ahamiyatli ijtimoiy munosabatlarni tartibga solgani sababli ularni ishlab chiqish va qabul qilishga konstitutsiyaviy darajada eʼtibor beriladi. Oliy Majlisni

tashkil etish (saylash), uning faoliyati shakllari va printsiplari, vakolatlari, qonun chiqarish jarayoni kabi ko‘plab masalalar Konstitutsiyada o‘z aksini topgan.

Oliy Majlisning davlat hokimiyati organlari tizimidagi mavqei, nufuzi shu bilan belgilanadiki, faqat ungagina xalq irodasini ifodalovchi qonunlarni chiqarish huquqi berilgan, shuningdek u O‘zbekiston xalqi nomidan ish ko‘rish vakolatiga ega. Oliy Majlis konstitutsiyada belgilangan davlat organlarini tashkil etadi (saylaydi, tayinlaydi), ularning huquqiy maqomini belgilovchi qonunlarni qabul qiladi, davlatimizning ichki va tashqi siyosatini belgilaydi, uni huquqiy jihatdan ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, uning qonunchilik palatasi bevosita xalq tomonidan shakllantiriladi. Saylovlar ko‘ppartiyaviylik asosida demokratik tarzda amalga oshiriladi. SHunday qilib, Oliy Majlis xalqdan bevosita vakolat olib, qonun chiqarish funksiyasini bajaradigan oliy vakillik organidir. “Oliy vakillik organi xalqning saylab qo‘ygan vakillari bo‘lib, ular asosan qonun chiqarish bilan shug‘ullanadi. Bu organ vakillarining asosiy faoliyati xalq irodasini ifoda etishdan iborat... xalq irodasi ushbu oliy tashkilot chiqaradigan hujjatlarda–konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonun va boshqa qonunlar, qarorlar kabi hujjatlarda o‘z ifodasini topadi”¹⁵.

Yangilangan Konstitutsiyaga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatali parlamentdan – qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata)dan iborat. Qonunchilik palatasi va Senat – 5 yil muddatga saylanadi. Ikki palataning vakolat muddatlarini bir xil etib belgilash, bir vaqtda saylovlar o‘tkazish, bir vaqtda faoliyatini boshlash va faoliyatini yakunlash imkoniyatini beradi.

Parlamentning Qonunchilik palatasi bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida saylanadigan deputatlardan iborat. Bu palata professional asosda doimiy faoliyat yuritadi. Yuqori palata – Senat esa hududiy vakillik palatasi hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 92-moddasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, Senat a’zolaridan (senatorlardan) iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar

¹⁵ Каюмов Р. Ўзбекистон Республикасининг конституциявий ҳуқуқи. – Т., 1998, 313-б.

orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda — to'rt kishidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining to'qqiz nafar a'zosi fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar orasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo'yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputati bir vaqtning o'zida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida parlamentarizm institutlarini yanada kuchaytirish sari dadil qadam qo'yildi:

- unga ko'ra, Qonunchilik palatasi va Senatning vakolatlari sezilarli darajada kengaymoqda, ikki palata ishida takrorlanishlar bartaraf etilib, har birining mas'uliyat sohasi aniq belgilanmoqda;

- xususan, Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari amaldagi 5 tadan 12 taga, Senatda esa 14 tadan 18 taga ko'paymoqda;

- Senat oldiga qo'yilayotgan yangi vazifalardan kelib chiqib, uni ixcham, xalqchil va hududlar manfaatini ifoda etadigan idoraga aylantirish bo'yicha yangi normalar Konstitutsiyada ko'zga tutilmoqda;

- xususan, Senatorlar sonini hozirgi 100 nafardan 65 nafarga tushirish, bunda har bir hududdan teng ravishda 4 tadan senator saylanishi, Prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni esa 16 tadan 9 taga kamaytirilishi belgilanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatining shakllari. Konstitutsiyaga muvofiq, vakolat muddati tugagach, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tegishincha yangi chaqiriq Qonunchilik palatasi va Senati ish boshlaguniga qadar o'z faoliyatini davom ettirib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birinchi majlislari tegishincha Qonunchilik palatasiga saylovdan keyin ikki oydan

kechiktirmay va Senat tarkib topganidan keyin bir oydan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasi tomonidan chaqiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi majlislari sessiyalar davrida o'tkaziladi. Sessiyalar, qoida tariqasida, sentyabrning birinchi ish kunidan boshlab kelgusi yilning iyun oyi oxirgi ish kuniga qadar o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari zaruratga qarab, lekin yiliga kamida uch marta o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislari, agar ular ishida barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining yarmidan ko'pi ishtirok etayotgan bo'lsa, vakolatli hisoblanadi.

Konstitutsiyaviy qonunlarni qabul qilishda barcha deputatlar, senatorlar umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek ularning organlari majlislarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Bosh vazir, Vazirlar Mahkamasining a'zolari, Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, Sudb'yalar oliy kengashi raislari, Bosh prokuror, Markaziy bank boshqaruvining raisi ishtirok etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va uning organlari majlislarida Senat Raisi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va uning organlari majlislarida Qonunchilik palatasi Spikeri ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati alohida-alohida majlis o'tkazadilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlislari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qasamyod qilganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalari yuzasidan nutq so'zlaganda, chet davlatlarning rahbarlari nutq so'zlaganda o'tkaziladi. Palatalarning kelishuviga binoan qo'shma majlislar boshqa masalalar yuzasidan ham o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati o'z vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada parlamentning qonun ijodkorlik faoliyatini tartibga soluvchi muhim normalar mustahkamlangan. Xususan, uning 98-moddasiga ko'ra, Qonunchilik tashabbusi huquqiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog'iston

Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari
2023 yil 6 dekabr

Respublikasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ega. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Bosh prokurori ham o'z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo'yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga egadir.

Qonunchilik tashabbusi huquqi qonun loyihasini qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo'lgan, yuz ming nafardan kam bo'lmagan fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritishga haqli.

Qonun loyihalarini, qonunchilik takliflarini kiritish va ko'rib chiqish tartibi qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi o'z tarkibidan Qonunchilik palatasining Spikeri va uning o'rinbosarlarini saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali deputatlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Qonunchilik palatasining vakolati muddatiga saylanadi.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali Qonunchilik palatasi deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Qonunchilik palatasi qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati o'z tarkibidan Senat Raisi va uning o'rinbosarlarini saylaydi. Senat Raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan saylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi o'rinbosarlaridan biri Qoraqalpog'iston Respublikasining vakili bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan Senat vakolati muddatiga saylanadi.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi va uning o'rinbosarlari yashirin ovoz berish orqali senatorlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko'prog'ining ovozi bilan qabul qilingan Senat qaroriga binoan muddatidan ilgari chaqirib olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi farmoyishlar chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini tayyorlash ishini olib borish, Qonunchilik palatasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolatlari muddatiga Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan qo'mitalarni saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Senat muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Senat tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning ijrosini nazorat qilish uchun o'z vakolatlari muddatiga senatorlar orasidan qo'mitalarni saylaydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati, zarurat bo'lgan taqdirda, muayyan vazifalarni bajarish uchun deputatlar, senatorlar orasidan komissiyalar tuzadi.

Mamlakatning xavfsizligi, barqaror rivojlanishi asoslariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, inson huquqlari va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soladigan faktlar va voqealarni o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma qarori bilan parlament tekshiruvi o'tkazilishi mumkin.

Parlament tekshiruvini o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari orasidan tenglik asosida maxsus komissiya tuzilib, u o'z faoliyatini qonunga muvofiq amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlariga va Senati a'zolariga ularning deputatlik yoki senatorlik faoliyati bilan bog'liq xarajatlar belgilangan tartibda qoplanadi.

Qonunchilik palatasi deputatlari hamda Senatda doimiy asosda ishlovchi Senat a'zolari o'z vakolatlari davrida ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanishlari mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati va Senati a'zosi daxlsizlik huquqidan foydalanadilar.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: Adolat, 2023.
2. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va ijtimoiy davlatchilik.-T.2022.-424-b.
3. Mamatov X.T. Konstitutsiyaviy huquq: Darslik. -T., 2018. –528 b.
4. Konstitutsiyaviy huquq. Mualliflar jamoasi. – Darslik. T.: «Complex Print» nashriyot, 2019 , - 792 b.
5. Jahon Konstitutsiyalari (Jahon davlatlari Konstitutsiyalari to'plami, 1–jild). Tuzuvchilar: U.Tojixonov, A.X.Saidov. T. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001. – 457 b.

ABU NASR FOROBIY QONUNCHILIK MASALALARI TO'G'RSIDA

*Negmatov B.M.,
fals.f.n., dotsent, O'R QK Akademiyasi
Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi*

Milliy davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi muammolarini tadqiq qilish va uning ijobiy jihatlarini keng jamoatchilikka yetkazish hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydi. Bu jarayon orqali milliy davlatchilikning tarixiy ildizlari haqida yetarlicha bilim olish imkoniyati kengayadi. Shunday ekan, buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiyning davlat boshqaruvi ta'limotidagi qonunchilik masalalarini chuqur o'rganish bugungi kunda mamlakatimiz siyosiy-huquqiy sohalaridagi ilmiy izlanishlarida muhim o'rin egallaydi.

Forobiy nazarida, falsafa va siyosat baxtga erishish vositasi bo'lib, qonun ularning asosiy qoidalarini mustahkamlaydi. Uning fikricha, qonun me'yor, an'ana va qoidalarning jamligidir. Shu bois qonunning bosh sharti unga amal qilishning majburiyligidir. Bu yrda qonun fozillikni, adolatlikni, qolaversa, baxtga erishishning barcha vosita va yo'llarining kafolati sifatida maydonga chiqadi.

Sharq Arastusining e'tirof etishicha, qonun muayyan tartibni o'rnatish vositasi sifatida huquqiy xususiyatlarga ega bo'lmog'i, ruhiy jihatdan qabul qilishga loyiq, obro'li, oddiy insonlar uchun tushunarli, mazmunli, mantiqan asosli, adolatli hamda eng muhimi – ijro uchun majburiy bo'lmog'i lozim.

Abu Nasr Forobiyning qarashlariga ko'ra, eng mushkul ish – qonunni joriy qilishdir. Qonunga shubha bilan qarash hamda qonun ustidan arz qilish esa oson ishdir. Bugungi huquqiy davlat barpo etish jarayonlarida bu kabi o'g'itlarning

o'ziga xos o'rni bor. Ayniqsa, uning qonunga hurmat bilan qarashning ahamiyati haqidagi fikrlari e'tiborga molikdir. Ulug' alloma shunday deb yozadi: "qonunning o'zi o'z holicha olijanob va yuqori martabali bo'lishi kerak va uning nomidan hamda u haqda nimaiki gapirilsa ham mo'tabar hisoblanishi lozim. Xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni chuqur o'rganishi zarur, chunki ular keyinchalik xalqning o'ziga foyda keltiradilar. Aks holda, qonundan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi"¹⁶. Demak, Forobiy har qanday insonda ham tahsinga loyiq insoniy quvvat, ham hayvoniy kuch mujassamligini ta'kidlagan holda qonun aynan tahsinga sazovor insoniy quvvatni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarurligini uqtiradi. Shaharning hamma aholisiga kelganda, agar ular tahsinga sazovor quvvat kasb etishga kuchlari yetmasa, yo'l ko'rsatuvchi qonun sohiblarining adolatlariga bo'ysunishi kerak, deb hisoblaydi.

Uning fikriga ko'ra, "chinakam qonun o'rnatuvchi yangi qonun qabul qilayotganida mamlakatdagi barcha tabaqalar, avlodlarga, viloyatlar aholisiga baxt-saodat, shod-hurramlik, erkinlik va farovonlik keltirishini hisobga oladi. Qonun turli xil fe'l-atvor hamda xislatlarga ega bo'lgan odamlar xayrixohlik bilan kutib olishiga arziydigan bo'lishi zarur"¹⁷.

Qonun va uning umuminsoniy xarakteri xususida o'z fikrini davom ettirib, olim qonun chiqaruvchi faylasuf va siyosatchi bo'lishi kerak, deydi. Aks holda, qonunni shakllantirish va amalga oshirish juda murakkabdir. Shuningdek, Forobiy qonunlarning doimiy emasligi va ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarning almashinuvi sababli o'zgarishi mumkinligiga alohida e'tibor qaratadi.

Sharq Arastusining ta'kidlashicha, qonun chiqarish uzluksiz jarayon bo'lib, u yoki bu qonunga bo'lgan ehtiyoj o'zining ijtimoiy mazmuni va ahamiyatini yo'qotadi, ya'ni uning tabiati o'zgarganda o'zining qonunlik xususiyatini yo'qotadi. "Qonunlarning haqiqiy emasligi va ularning yo'qolishi, - deb yozadi Forobiy, - ikki sabab bilan izohlanadi, birinchidan, ularning amal qilish muddati tugaydi; ikkinchidan, dunyoda ro'y beradigan xalqlarga ofat keltiruvchi suv toshqinlari, vabo singari ommaviy falokatlar natijasida bo'lishi mumkin"¹⁸.

O'z navbatida, Forobiy istalgan narsani haqiqiy deb ko'rsatish mumkin emasligini ham ta'kidlaydi. Chunki u hech narsaning, ayniqsa, qonunlarning mohiyatini o'zgartirmaydi. Bundan tashqari, istak o'z-o'zicha ezgulik bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Zero, alloma faqat sog'lom aqlga tayangan istakgina o'z izchilligi bilan ezgulikka olib keladi, deb hisoblaydi. Forobiy bu

¹⁶ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993, 18-bet.

¹⁷ O'sha asarda, 24-bet.

¹⁸ Аль-Фараби. Историко-философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1985. – В. 160-161.

fikrini asoslash maqsadida shunday yozadi: “qonun chiqaruvchiga ko‘ngil va aqlni to‘ldiruvchi narsalarga intilish va ular haqida katta g‘amxo‘rlik qilish ma’quldir”¹⁹. Qonunlarni amalda tatbiq qilish haqida gapirar ekan, Forobiy qonunlarga bo‘ysunish kishilarning hech qanday majburlashlarsiz erkin amalga oshmog‘i kerakligini uqtiradi. Uningcha, agar qonunchilik jarayoni erkin usulda amalga ohsa, unga bo‘ysunish va amal qilish qo‘l ostidagi kishilar tomonidan istak va quvonch bilan kutib olinadi, qonun uzoq muddat yashaydi.

Mutafakkir shunday qonunchilik amalga oshiriladigan ideal davlat sifatida mukammal va fozil shaharni belgilaydi. Bizningcha, bu shahar bugungi kundagi “huquqiy davlat”, “demokratik davlat” tushunchalarini esga soladi. Abu Nasr Forobiyning ta’kidlashicha, qonun huquqiy kuch va siyosiy obro‘ga ega bo‘lish bilan bir qatorda jamiyat manfaatlariga mos kelishi, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi shart. Buning uchun qonun chiqaruvchi o‘z davlatida yashovchilar uning boshqaruv tizimi qonunlariga amal qilishga tayyor bo‘lishlari uchun keng dunyoqarashga, ayniqsa, o‘z qo‘l ostidagilarning ehtiyojlari va manfaatlarining ahvoli borasida chuqur bilimga ega bo‘lishi zarur.

Forobiy qonunchilik xususida gapirar ekan, uning kuchi eng avvalo, qonunning zarurligini ko‘ngildan tushunadigan kishilarning ongliligida namoyon bo‘lishi kerakligini alohida ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u qonunlarni chiqarish uchun hayot tajribasiga va yaxshi axloqqa ega kishilarni jalb etishni nazarda tutadi, bunda Forobiy davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich shakllantirish to‘g‘risida fikr yuritib: “kishilar orasida tartib o‘rnatgach, urush ehtimoliga qarshi strateglarni, ularning harbiy sarkardalarini tayinlash kerak. Ehtimol, birdaniga mutlaqo to‘g‘ri tartib o‘rnatilmasligi ham mumkin”²⁰, - deydi.

Alloma davlat boshqaruvi tizimini shakllantirish haqida o‘z fikrlarini davom ettirar ekan, u qonun o‘rnatish bilan mashg‘ul hokimiyatda siyosiy raqobat zarurligini alohida ta’kidlaydi. Bu raqobatda yaxshi kishilar yutib chiqishlari va buning uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘lishlari kerak.

Forobiyning e’tirof etishicha, qonun chiqaruvchilarning faoliyati doimiy o‘tkaziladigan umumiy yig‘ilishlar, forumlar shaklida bo‘lishi kerak. O‘z navbatida, bu jarayon aholi uchun ochiq bo‘lishi va munosib darajada olib borilishi shart. Chunonchi, olim o‘z fikrini davom ettirib shunday deydi: “rahbarlarning, hukmdorlarning dastlabki qadr-qimmat, g‘ururi ochiq ko‘ngillik va hurmat, ikkinchisi – ezgulik, uchinchisi – obro‘-e’tibor bo‘lmog‘i lozim”²¹.

¹⁹ O‘sha asarda, 165-bet.

²⁰ O‘sha asarda, 186-bet.

²¹ Ал-Фараби. Историко-философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1985, 187-bet.

Sharq peripatetizmining buyuk namoyandasi qonun o'rnatish tizimini rivojlantirish va qonunlarning ijro etilishida tarbiya va huquqiy madaniyatning o'rniga alohida e'tibor beradi. Qonunga bo'ysunmagan va o'z qo'l ostidagilarni ham shunga chorlagan odamlar jamiyat uchun zararli kishilardir, deydi Forobiy. Uningcha, har qanday qonun o'rnatish ongli ravishda ixtiyoriy bo'ysunish sharoitidagina muhim kuchga ega. Shu bois, qonun o'rnatishda majburlash, hokimiyat kuchini qo'llash yoki bu borada qarorlar qabul qilish emas, balki ta'lim-tarbiya orqali huquqiy madaniyatni oshirish muhim omil hisoblanadi.

Forobiy siyosiy-huquqiy qarashlarining diqqatga sazovor jihatlaridan yana biri unda qonunchilikning gumanistik mohiyatiga katta e'tibor qaratilganligidadir. Alloma fikriga ko'ra, qonunchilikning insonparvarlik mohiyati shundan iboratki, u "insonning tabiiy xususiyatlarini hisobga oladi va ular orqali ushbu xususiyatlarni tuzatishga harakat qiladi, chunki ularni tuzata turib, insonning fe'l-atvori va xulqini tuzatadi"²². Asosiy tabiiy xususiyatlarni esa Forobiy lazzatlanish va qayg'u, balog'at va bilim, deb ataydi. Uning fikricha, keyingi ikki xususiyatga tarbiya va mashg'ulotlar orqali erishiladi.

Buyuk faylasuf qonunshunoslar, ya'ni qonun yaratuvchilar va uni amalga oshiruvchilar oldiga bir qancha talablar qo'yadi: qonunshunos pedagogikaning barcha oliy qoidalarini egallagan, so'z san'ati bilimdoni bo'lishi, auditoriyaning salohiyatini chamalay oladigan va shunga ko'ra ma'ruza qiladigan, sinchkov murabbiy bo'lmog'i lozim. Agar kishilar qonunlarning mohiyatini tugal anglay olmasalar, ulardan voz kechish xavfi tug'iladi.

Ulug' gumanist qonunlarning jamiyat hayotidagi o'rni va unga bo'ysunish fuqarolar uchun shart ekanligi xususida ham bir qancha o'z davri uchun ahamiyatli bo'lgan fikrlarni ilgari suradi. Ulug' narsalarga va ehtirolarni bo'ysundirishga intilgan kishi axmoqona ishlar bilan shug'ullanmaydi. Axloqiy fozillik, yillar davomida shakllanadigan adolat, donishmandlik, mardlik kabi odatdir. "Garchi insonda tug'ma kibr-havo va takabburlik kabi xususiyatlar bo'lmasa-da, baribir u o'z qalbini mashq qildirishi kerak, chunki insonda o'z sevikli kishisining ko'pgina jinoyatlarini sezmaslik singari tug'ma xususiyat mavjuddir"²³. Ushbu jumladan ko'rinib turibdiki, mutafakkir bu yerda insonning o'z hislarini tuta bilishi, hissiyotni aqlga bo'ysundirishi, ya'ni bir so'zlilik haqida fikr yuritadi.

Shu bilan birga, Abu Nasr Forobiy har qanday holda ham hukmdorga qonunchilik, huquqiy masalalar bo'yicha yordamchi kerakligiga alohida e'tibor qaratadi. U qonunlarni ikki turga bo'ladi: birinchisi – o'zgaruvchan va yangilanib turadigan

²² O'sha asarda, 152-bet.

²³ O'sha asarda, 178-bet.

qonunlar va qonun kuchidagi hujjatlar (qarorlar, buyruqlar, yo'riqnomalar) bo'lsa, ikkinchisi – o'zgaraydigan, ya'ni tabiiy qonunlaridir. Xususan, qonun kuchidagi hujjatlar, alloma ta'rifiga ko'ra, shaharlarning holati va vaqtning cheklanganligi munosabati bilan qonunshunoslar tomonidan tezda qabul qilinadigan qonun shaklidagi huquqiy hujjatlardir. Biroq Forobiyning ikkinchi tur qonunlari to'g'risidagi fikri rivojlantiriladigan bo'lsa, unda ijtimoiy munosabatlar va an'analarning o'zgaras qonunlarini o'zida mujassam etgan konstitutsiyani yaratish zarurligi to'g'risida bashorat mavjudligini anglab olish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyatini siyosiy-huquqiy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida barpo etish, unda yashovchi insonlarning siyosiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Shu bois, buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiyning huquqiy merosi nafaqat milliy qarashlarimizning tarixiy-nazariy ildizlarini tashkil etadi, balki adolat va qonun ustuvorligiga asoslangan yangi O'zbekistonni qurishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

O'ZBEKISTONNING YANGILANGAN KONSTITUTSIYASI - HUQUQIY- IJTIMOIY DAVLAT, ERKIN FUQAROLIK JAMIYATI BARPO ETISHNING MUSTAHKAM POYDEVORI

F.X.Adilkarieva

Sergeli tuman prokurorining

katta yordamchisi

Jamiyatimiz hayot tarzini va davlatchilik tizimimizni tubdan yangilash, mamlakatni jadal innovatsion rivojlanish izlariga o'tkazish zarurati bunga tegishli huquqiy zamin yaratilishini taqozo etayotganligi tabiiy holdir. Bunday yangilanishlar va barcha sohada transformatsiyalashni ta'minlash, avvalo, Konstitutsiyani ushbu zamonaviy talablarga mos tarzda isloh qilishning, shuningdek amaldagi qonunchilik tizimini ham muayyan modernizatsiya qilishni kun tartibiga qo'ydi. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni barpo etishga, uning o'zgaruvchan sharoit va zamon talablariga munosib javob berishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Konstitutsiyaning yangilanishi mamlakatni modernizatsiya qilishning uzviy qismi ekanligini ta'kidlash lozim. **Konstitutsiyani modernizatsiya qilish** – bu Asosiy Qonunning nafaqat sifat jihatidan o'zgarishi, balki Konstitutsiyaning uzviyligi va barqarorligini ta'minlash asosida uning tartibga solish salohiyatini yanada oshirishdan iboratdir.

Ma'lumki, 2023 yil 10 martda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining qarori va Senatning 14 martdagi uni ma'qullashga oid

qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilib, uning yangi tahririni tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining loyihasi matbuotda e‘lon qilindi.

Mazkur qonun loyihasini 2023 yil 30 aprel kuni umumxalq referendumida ovozga qo‘yilishi ma‘lum qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunining quyidagi eng muhim o‘ziga xos xususiyatlari, yangiliklarini alohida ta’kidlash o‘rinli.

Konstitutsiyaning qudratli huquqiy-ahloqiy salohiyatini tarannum etish, uning ustuvor g‘oyalari, asosiy jihatlari va qoidalarini huquqiy tafakkurimiz hamda madaniyatimiz tarkibiy qismiga aylantirish yurtimizda ijtimoiy-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga puxta zamin yaratdi. Zero, bunday davlatchilik va jamiyatni qaror toptirish uning siyosiy-huquqiy mafkurasini ijtimoiy ongimizga singdirishdan boshlanadi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etishga yo‘naltirilgan Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ezgu maqsadlarga erishishga qaratilgan umumxalq sa’y-harakatlarida faol ishtirok etish, bunda fidoyilik namunalari namoyon qilish har birimizning Vatan ravnaqi va saodati yo‘lidagi muqaddas insoniy burchimizdir.

Konstitutsiyaning muhim sifati – uning barqarorligi. Bu o‘rinda barqarorlikning ma’nosi, avvalo, jamiyat va davlat qurilishining, ular rivojlanishining tagzaminli asoslari, bazaviy prinsip – qoidalari, tamal-toshi Asosiy qonunda mustahkamlanganligi bois uning imkon qadar barqaror qolishi, uzoq yillar o‘zgarmasdan qat’iy amal qilishidadir. Zero, Konstitutsiyaning mukammalligi hamda izchilligi butun jamiyat qurilishi, davlat (konstitutsiyaviy) tuzumi va siyosiy – huquqiy tizim barqarorligini kafolatlaydi. Ayni vaqtda, shuni ham nazarda tutish muhimki, jamiyat va davlat «jonli organizm» kabi doimiy dialektik rivojlanishda, taraqqiy etish holatida bo‘ladigan ijtimoiy hodisalardir. Ayonki, ijtimoiy taraqqiyotning qonuniyatlaridan biri “barqarorlik” bilan “o‘zgaruvchanlik” o‘rtasidagi dialektik nisbatdir. Aniqroq aytganda, ijtimoiy hayot hech qachon bir joyda to‘xtab turmaydi, u muntazam o‘zgarish, yuksalish, takomillashish jarayonlarida bo‘ladi. Ushbu qonuniyat davlat hayotiga, siyosiy – huquqiy tizimlarga ham xosdir. Aynan shu ma’noda Konstitutsiya ham jamiyat va davlatning rivojlanishiga mos tarzda takomillashib borishga zaruriyat sezadi. Demak, Konstitutsiya ham o‘zgarmas dogma, qotib qolgan qonun emas. U ham jamiyat va davlat miqyosidagi ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar, institutlar o‘zgarib, rivojlanib borgani sayin ularga mutanosib ravishda o‘zgaradi, ya’ni isloh etib boriladi.

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini tubdan yangilash, innovatsion rivojlanish izlariga o‘tkazish hamda transformatsiya qilish, avvalo,

Konstitutsiyamizni ushbu talablarga mos tarzda isloh qilishni, shuningdek amaldagi qonunchilik tizimini ham tegishli modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

Nima uchun aynan bugun konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazish zarurati tug'ildi?

To'g'ri, Konstitutsiyamiz xorijiy ilg'or tajriba hamda xalqaro standart va talablarga har tomonlama mos keladi. Bunga hech qanday shubha yo'q. Biroq, hozirgi tahlikali zamon, atrofimizdagi murakkab vaziyat ona Vatanimiz taqdiriga yanada ulkan mas'uliyat bilan yondashib, kechiktirib bo'lmaydigan strategik qarorlar qabul qilishni taqozo etmoqda. Shubhasiz, o'tgan qisqa davrda jamiyatimizning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy qiyofasi tubdan o'zgardi. Biz Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasiga sodiq qolgan holda, keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdik va bu borada katta tajriba orttirdik.

Insoniyat ilmiy-texnologik davrga qadam qo'ydi. Jahonda keskin transformatsiya jarayonlari va raqobat kuchaymoqda. Ertangi kunini o'ylagan xalqlar va davlatlar o'z kelajagi haqida bugun har qachongidan ham jiddiy bosh qotirmoqda.

Shu o'rinda tabiiy savollar tug'iladi. Mana shunday hal qiluvchi pallada va kelajakda davlatimizda, jamiyatimizda insonning o'zni va qadri qanday? Qanday siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy va ma'naviy-gumanitar tamoyillar, qadriyat va manfaatlar biz uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi? Eng muhimi, konstitutsiyaviy islohotlar oddiy aholiga, xalqimiz farovonligini ta'minlash, jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyotiga nima beradi?

Bu savollarning barchasiga javobni puxta ishlangan huquqiy normalar orqali Konstitutsiyamizda aks ettirish – davr taqozosidir.

Chinakam xalq mafkurasini, millatning eng muqaddas orzu-intilishlarini faqat uning Bosh hujjati – Konstitutsiyasida to'liq ifoda etish mumkin. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimiz va xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolatidir. Bir so'z bilan aytganda, "Inson qadri uchun" g'oyasini Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatiga chuqur singdirdik, amaliy hayotimizda bosh qadriyatga aylantirishni maqsad qilib qo'ydik. Ya'ni, insonning qadr-qimmati, sha'ni va g'ururi bundan buyon barcha sohalarida birinchi o'rinda turishi kerak".

Davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini isloh qilishdagi zarur masala – bu joylarda hokimlar va mahalliy kengashlar vakolatini ajratishdir. Bu islohotning joriy etilishi hokimiyat vakolatlarini bo'linish prinsipini mahalliy darajada tatbiq

etishga, mahalliy kengashlar faoliyati samaradorligini, hokimlarning xalq vakillari oldidagi mas’uliyatini oshirishga olib keladi.

Konstitutsiyaviy islohot orqali Yangi O‘zbekistonda inson qadrini amalda eng oliy qadriyat darajasiga ko‘tarishga qaratilgan barcha amaliy ishlarimizning mustahkam huquqiy asoslarini yaratib, ertangi kunimiz, kelajagimiz qanday bo‘lishini belgilab olishga erishishni maqsad qilib qo‘dik. Buning uchun fuqarolarda konstitutsiyaviy-huquqiy madaniyatni, konstitutsiyaviy ongini va Asosiy qonunga hurmat hissini shakllantirish sari bormoqdamiz.

Yana bir muhim masala – davlat organlari, ayniqsa, sudlar o‘z faoliyatida Konstitutsiyaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish, uning normalariga asoslanib ish ko‘rish ko‘nikmalarini o‘zida hosil qilishi shart. Har bir fuqaro kundalik hayotida, o‘z haq-huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishda Konstitutsiyamizdan kuch-quvvat olib harakat qilishi, unga tayanishi lozim.

Konstitutsiyaga yangi kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning mazmun-mohiyati

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi 2022 yil 24 iyunda «O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida» gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasini birinchi o‘qishda qabul qildi. Mazkur loyihasiga ko‘ra, Asosiy qonunimizning 64 ta moddasiga 200 dan ortiq o‘zgartirishlar kiritilishi nazarda tutildi. Bundan tashqari, 6 ta yangi modda bilan 16 ta yangi norma taklif etildi. Ushbu qo‘shimcha va o‘zgartirishlar Konstitutsiyaviy komissiyaga fuqarolardan kelib tushgan 60 mingdan ziyod takliflar asosida ishlab chiqildi. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi umumxalq muhokamasiga qo‘yilgandan so‘ng, fuqarolardan uni yanada maromiga yetkazish bo‘yicha 150 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. Ularning aksariyati mazmun-mohiyatiga ko‘ra, «Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat» degan tamoyillarni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashga, xalqparvar davlat barpo etishga, inson huquqlarining himoyasi va ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishga, yoshlarning huquq va manfaatlarini to‘la ta’minlashga qaratilgan.

Shuningdek, o‘zgartirishlar sifatli va malakali tibbiy xizmatni tashkil etish, ta’limni rivojlantirish, xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, fuqarolik jamiyati institutlarining maqomini va ekologik muhofaza kabi masalalarni konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo‘yish bilan bog‘liq.

Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshdi. Ya’ni, Asosiy qonunimiz matni qariyb 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi.

O‘tkazilgan umumxalq muhokamasi natijasi umumlashtirilib, qonun loyihasi yanada takomillashtirildi. Uning natijalariga ko‘ra, «O‘zbekiston Respublikasining

Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasi referendumiga qo'yildi.

2023 yil 30 aprelda Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilindi.

Yuqoridagi Konstitutsiyaviy qonun bilan Asosiy qonunimizga kiritilgan yangi norma va qoidalarning mazmuni va mohiyatiga batafsilroq to'xtalish joiz.

Avvalo, shunga e'tibor qaratish lozimki, Konstitutsiyaning muqaddimasida O'zbekiston xalqining maqsadlari qatoriga **ijtimoiy** va **dunyoviy davlat** barpo etish, shuningdek fuqarolik jamiyati qurish niyatlari qo'shimcha qilindi. Ayni shu mazmundagi qoidalar Asosiy qonunning 1 – moddasida ham mustahkamlandi.

Davlat **o'qituvchilarning** shani va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi mustahkamlandi.

Tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqi berildi. Konstitutsiyamizga ushbu normaning kiritilishi professor-o'qituvchilar va talabalarning o'quv jarayonidagi mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oila rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi konstitutsiyaviy mustahkamlandi.

Farzandlar ta'lim olishi ota-ona majburiyati sifatida belgilandi. Nafaqat farzandlar tarbiyasi, balki ularga ta'lim berish, barkamol voyaga yetkazish ham ota-ona majburiyati sifatida belgilandi. Har kimga adolatli haq olish huquqi kafolatlandi. Har kimning mehnati uchun kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan miqdoridan kam bo'lmagan tarzda adolatli haq olish huquqi kafolatlandi.

Insonning munosib turmush darajasi ta'minlanadi. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olgan holda belgilanishi mustahkamlandi.

Ayollarning ish haqini kamaytirish taqiqlandi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi belgilandi.

Davlat **kambag'allikni qisqartirish** choralarini ko'radi. Shu bilan birgalikda, fuqarolarning bandligini ta'minlash ularni ishsizlikdan himoya qilish choralarini ko'rishi mustahkamlandi.

Bolalarni majburiy mehnatga jalb etish taqiqlandi. Bolalar mehnatining bolaning sog'ligiga, xavfsizligiga, ahloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan, uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi.

Ijtimoiy ta'minot olish kafolatlandi. Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo'qotganda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega.

Pensiyalar turmush kechirish uchun zarur bo'lgan minimal mablag' miqdoridan oz bo'lishi mumkin emas. Pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy yordamlar miqdori eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emasligi belgilab qo'yildi.

O'zbekistonda **o'lim jazosi** taqiqlandi. Insonni hayotdan hatto davlat ham mahrum etishga haqli emasligi kafolatlanadi.

Hech kim **sud qarorisiz** 48 soatdan ortiq ushlab tarilmaydi. Tergov organlari tomonidan insonlarni noqonuniy hibsga olish, asossiz qamoqqa olish va saqlashga yo'l qo'yilmaslikka qaratilgan.

Yetkazilgan zararni o'zni davlat tomonidan qoplanadi. Har kim davlat organlarining mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki xarakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'zni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga egaligi qayd etildi.

Aybsiz insonlar jazoga tortilishi mumkin emas. Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi kafolatlanadi.

Konstitutsiyada 18 milliondan ortiq yoshlar masalalariga ham alohida e'tibor berildi. **Yoshlar huquqlari** Konstitutsiyada kafolatlandi. Yoshlarning ta'lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo'lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida kiritildi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar davlat himoyasiga olindi. Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilandi.

Ijtimoiy xizmatlar davlatning majburiyati hisoblanadi. Aholiga imtiyozli uylar berish, bepul tibbiy jihozlar, protez-ortopediya buyumlari, oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash, yetim bolalar uchun oliy ta'lim tizimida bepul o'qish imkoniyati yaratiladi.

Kasaba ushymalari Konstitutsiyada kasaba ushymalari jamoat birlashmalari tizimida qayd qilinish bilan birga (70-modda), ularning asosiy vazifasi Konstitutsiyaning alohida moddasida ko'rsatib qo'yilgan. Konstitutsiyaning 73-moddasida "Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir." – deb mustahkamlangan.

Shuni o'zi ya'ni kasaba uyushmalarining vazifasini Konstitutsiyada belgilanishi, uni jamoat tashkilotlari tizimida, jamiyatda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kasaba uyushmalarini tuzish, unga a'zo bo'lish, majburiyatlari va boshqa holatlarni 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan "Kasaba uyushmalarining huquqlarining va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi.

Qonunga asosan kasaba uyushmalari ko'ngilli jamiyat ya'ni, uni tuzish, unga a'zo bo'lish ixtiyoriydir. Bu tashkilot ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan (o'quv muassasalari, sog'liqni saqlash muassasalari va boshqalar) har qanday tashkilot, muassasalarda tuzilishi mumkin.

Ular qayerda tuzilishidan qat'iy nazar, o'z a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizning barcha fuqarolari, ishchilar, xizmatchilar, qishloq xo'jalik xodimlari, davlat xizmatchilari, talabalar o'z yo'nalishlari bo'yicha, o'z ixtiyori bilan kasaba uyushmalari tuzish, uning ustavi talablariga rioya etish sharti bilan kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish huquqiga ega.

Shunday qilib, yuqorida tafsiloti keltirilgan konstitutsiyaviy islohotlar Asosiy qonunimizni davr talablariga moslashtirishga yo'naltirildi; fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlari kuchaytirildi; fuqarolik jamiyati institutlari qonuniy manfaatlari aks ettirilib, ularning muhofaza mexanizmlari mustahkamlandi; davlat organlarining vakolatlari aniqlashtirilib, mas'uliyati oshirildi.

O'ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI - INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING MUSTAHKAM KAFOLATI.

Mansurov U.N.

Tarix fanlari nomzodi, professor

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohatlar zamirida Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgan eng asosiy maqsad - davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab - inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlash masalasini dolzarb vazifa qilib qo'yilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi insoniylik tamoyillariga asoslangan bo'lib, bu esa mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat barpo etishda, fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatlangan huquq va erkinliklarining yuzaga chiqishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga oid nomalarning qabul qilinishida xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalariga suyanilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquqlariga oid umum e'tirof etilgan qoidalarni o'ziga singdirgan. Jumladan, Konstitutsiyamiz BMT Ustavi, Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasiga, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktlar kabi inson huquqlari sohasidagi universal hujjatlar bilan to'la hamohangdir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SHavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bosh Qomusimiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga to'la mos holda, inson va fuqarolarning shaxsiy huquqi va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlab berdi. Insonning ma'naviy kamol topishi va har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi".

Hozirgi kunda dunyoda inson va fuqaro huquqlari bo'yicha uch yuzdan ko'p xalqaro-huquqiy hujjatlar amal qilib turibdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki davrdanoq, inson huquqlariga doir xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalariga qat'iy rioya etishimizni halqaro hamjamiyatga e'lon etgan. Hozirgi kunda O'zbekiston tomonidan inson huquqlari bo'yicha oltmishdan ortiq Xalqaro konventsiyalar imzolangan. Inson huquqlari borasida davlatimizning olib borayotgan sa'y-harakatlari jahon hamjamiyatiga ma'lum.

SHuningdek, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash, aholi farovonligini oshirish, fuqarolarning hayotiy muammo va ehtiyojlarini hal etish, jamiyatda qonun ustuvorligi, qonuniylik va adolat, mamlakatimizda tinchlik-osoyishtalik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni qaror toptirish maqsadida davlat organlarining aholi bilan ochiq, to'g'ridan-to'g'ri muloqotini kuchaytirishga yo'naltirilganini jamoatchilikka tushuntirib o'tilgan.

Konstitutsiyamizda insoniyatning, o'zbek xalqining asrlar davomida intilib kelgan azaliy qadriyati – ya'ni fuqarolarning tengligi mustahkamlangan.

Insonlarning qonun oldida tengligi tamoyili – ularning teng huquq va majburiyatlar sohibi ekanligini anglatadi. Fuqarolarning tengligi –demokratiyaning muhim elementi hamda jahon konstitutsiyaviy taraqqiyotining muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Bu tenglik fuqarolarning davlat, qonun va sud oldida rasmiy tan olinadigan tengligi bo'lib, u har bir davlat fuqarolarining jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, egallab turgan lavozimi, turar joyi, dinga munosabati, qarashlari, jamoat birlashmalariga mansubligi va boshqa holatlardan qat'i nazar teng huquq, erkinlik va burchlarga ega ekanligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasiga muvofiq, "har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga egadir".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasiga ko'ra, "xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar". Insonni jinsiga qarab tahqirlash taqiqlanadi. SHaxsning jinsidan kelib chiqib huquq va erkinliklar berilishiga ham yo'l qo'yilmaydi, ijtimoiy adolat yuzasidan imtiyozlar berilishi bundan mustasno.

SHuni ham ta'kidlab o'tish joizki, ayollarga ba'zi imtiyozlar, masalan, mehnat huquqi bilan bog'liq imtiyozlar berilgan. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 6-moddasiga ko'ra, barcha fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo'lish va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egadir. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqei, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik qobiliyatlariga va ular mehnatining natijalariga aloqador bo'lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnatga oid munosabatlar sohasida har qanday cheklashlarga yoki imtiyozlar belgilashga yo'l qo'yilmaydi va bular kamsitish deb hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklarining mustahkam kafolati bo'lib, mazkur huquqlarning amalga oshirilishini davlat tomonidan ta'minlab beriladi. Albatta bunday huquqlarni to'la amalga oshirishda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu borada turli shakllarda amalga oshiriladigan huquqiy targ'ibot ishlarining ahamiyati beqiyosdir.

Umuman olganda, Konstitutsiyamiz matni bilan tanishgan har qanday xolis niyatli inson O'zbekiston buyuk kelajakka erishish uchun oqilona yo'l tanlaganligi, demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etmoqchi ekanligimizni anglab oladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi demokratiya va adolat printsiplarini, taraqqiyotimizning ustuvor yo'nalishlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ma'naviy qadriyatlarimizning huquqiy asoslarini mustahkamlab berdi.

JAMOAT BIRLASHMALARI VA UNING VAZIFALARI.

Fayzullayev Said-Nosir Said-Burxanovich
Toshkent Davlat Pedagogika universiteti
kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi

Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида, шунингдек турли нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятига оид қонунларда давлат, унинг органлари ва жамоат бирлашмалари ўзаро муносабатларининг асосий йўналишлари, унинг ҳуқуқий асослари кўрсатилган.

O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi, bu Konstitutsiyaning 70-moddasida belgilangan. Jamoat birlashmalarining faoliyat ko'rsatishining asosiy sharti ular qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'lishi kerak. Ularni ro'yxatdan o'tkazish Adliya vazirligi zimmasiga yuklangan.

Jamoat birlashmalari eng muhim demokratik institutlardan hisoblanib, ular fikrlar va g'oyalar xilma-xilligini amalda ta'minlovchi muhim vositadir.

O'zbekiston Konstitutsiyasi 70-moddasidan tashqari yana bir necha moddalarda jamoat birlashmalarini xilma-xilligi, ko'p partiyaviylik tizimini mavjudligi jamoat taraqqiyotida muhim shartligini belgilovchi qoidalar, bu esa fuqarolar faolligini garovi ekanligi belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaning 39-moddasida fuqarolarning jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish huquqi belgilangan bo'lib, shu moddaning ikkinchi bandida, jamoat birlashmalarida ham ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligini belgilanishi esa, fikrlar va g'oyalar xilma-xilligini muhim garovi hamda Konstitutsiyaviy tuzumning demokratik xususiyatidir.

Jamoat birlashmalari, turidan qat'iy nazar, xalqning erkin faoliyati va ijtimoiy hayotda ishtirokini ta'minlash vositasi hisoblanadi. Bu tashkilotlarning samarali faoliyatidan fuqarolar ham, davlat ham manfaatdor. Fuqarolar ularning faoliyati orqali jamiyat ishlarida, davlatni boshqarishda ishtirok etsa, o'z qarashlarini bayon etib, manfaatlarni to'la himoya qilsa, davlat o'zining ayrim funksiyalarini ularga o'tkazib, muhim masalalarni hal qilishga jalb etadi. Ya'ni jamiyatni boshqarishda jamoat birlashmalariga tayanadi. Davlat jamoat birlashmalarini faoliyatiga yordam berib, ular bilan to'g'ri va samarali munosabat o'rnatib olsa, taraqqiyot tezlashadi, farovon turmush yaratiladi. Shu bilan birga davlatning nazorati jamoat birlashmalari faoliyatiga ularning ishiga bevosita aralashmagan holda o'rnatiladi (Konstitutsiyaning 72-moddasi).

Jamoat birlashmalari kishilarni siyosiy qarashlari (siyosiy partiyalar), faoliyati yo'nalishiga (kasaba uyushmalari), jinsiga (xotin-qizlar qo'mitalari), yoshiga (Yoshlar ittifoqi), qobiliyati, kasbiga (yozuvchilar, arxitektorlar ittifoqlari) qarab birlashtiradi.

“O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida”gi qonunga asosan Respublikada amal qiluvchi jamoat birlashmalari Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olinadi. Birlashma tuzish, ro'yxatdan o'tkazish uchun Adliya vazirligiga murojaat qilish, taqdim qilinadigan zarur hujjatlar qonunda belgilangan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda to'rtta siyosiy partiya va ko'plab boshqa jamoat birlashmalari mavjud va ular qonuniy ravishda jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etilgan.

Jamoat birlashmalarining faoliyati turli qonunlar, jumladan, "Jamoat birlashmalari to'g'risida", "Nodavlat, notijorat tashkilotlari to'g'risida", qonunlar bilan tartibga solinadi.

Barcha jamoat tashkilotlariga xos xususiyat – bu ularga a'zolikni ixtiyoriyligidir. Eng yirik jamoat birlashmalari – Kasaba uyushmalari va Siyosiy partiyalar qanday manfaatni ko'zlab tuzilishi, vazifasi, siyosiy hayotda qanday ishtirok etishi Konstitutsiyani o'zida alohida mustahkamlab qo'yilgan (Konstitutsiyaning 73, 74-moddalari).

Jamoat birlashmalari tizimida yoshlar tashkiloti bo'lishligi belgilanganligi mamlakatimizda yoshlarga alohida umid bilan qarash natijasidir.

Yoshlar ittifoqiningning asosiy maqsadi – yoshlarni sog'lom turmush tarzi talablarida tarbiyalash, jamiyatda munosib o'rnini egallash uchun qo'llab-quvvatlash, yoshlar manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, intellektual salohiyatlarini to'la namoyon qilish uchun sharoitlar yaratish va o'sib kelayotgan avlodga har tomonlama yordam berish hisoblanadi.

Harakat o'z faoliyatini Konstitutsiya hamda qonunlar va Nizomi asosida olib boradi. O'z maqsadiga erishish, oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish maqsadida dasturiga ega.

Harakat va uning joylardagi bo'limlari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lib, o'zlarini nomi va tashkilot ramzi tushirilgan muhriga ega. Ya'ni to'laqonli tashkilot sifatida faoliyat yuritadi.

Demak, tashkilotning tuzulmasi, Respublika, viloyatlar (Toshkent shahri), tumanlar va shahardagi tuzilmalardan iborat.

Jamoat birlashmalari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlari alohida o'ringa ega. Ular hozirgi fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida katta tayanch sifatida qaralmoqda.

Prezident tomonidan ilgari surilgan konsepsiyada, fuqarolik institutlari tizimida notijorat tashkilotlarini tobora rivojlantirish ularning mustaqil ish yuritishini va chinakam mustaqilligini ta'minlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini kafolatlash to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi, deb ko'rsatildi.

Konstitutsiyada kasaba ushymalari jamoat birlashmalari tizimida qayd qilinish bilan birga (70-modda), ularning asosiy vazifasi Konstitutsiyaning alohida

moddasida ko'rsatib qo'yilgan. Konstitutsiyaning 73-moddasida "Kasaba uyushmalari xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini va manfaatlarini ifoda etadilar va himoya qiladilar. Kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish ixtiyoriydir." – deb mustahkamlangan.

Shuni o'zi ya'ni kasaba uyushmalarining vazifasini Konstitutsiyada belgilanishi, uni jamoat tashkilotlari tizimida, jamiyatda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kasaba uyushmalarini tuzish, unga a'zo bo'lish, majburiyatlari va boshqa holatlarni 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan "Kasaba uyushmalarining huquqlarining va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi.

Qonunga asosan kasaba uyushmalari ko'ngilli jamiyat ya'ni, uni tuzish, unga a'zo bo'lish ixtiyoriydir. Bu tashkilot ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan (o'quv muassasalari, sog'liqni saqlash muassasalari va boshqalar) har qanday tashkilot, muassasalarda tuzilishi mumkin.

Ular qayerda tuzilishidan qat'iy nazar, o'z a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini, hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizning barcha fuqarolari, ishchilar, xizmatchilar, qishloq xo'jalik xodimlari, davlat xizmatchilari, talabalar o'z yo'nalishlari bo'yicha, o'z ixtiyori bilan kasaba uyushmalari tuzish, uning ustavi talablariga rioya etish sharti bilan kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish huquqiga ega.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Бегматов А. Ижтимоий шерикликнинг назарий асослари // Фуқаролик жамияти. ўқув қўлланма. –Т., – 2016. – Б. 47.
- 2.Беков И.Р. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва сиёсий партиялар: Монография. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2010. – 142 бет.
- 3.Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. <https://constitution.uz>.

O'ZBEKISTONDA HAKAMLIK SUDLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Akaeva N.M.

*Manaviyat asoslari va huquq talimi kafedrasini mudiri,
p.f.d,(Ph.D),v.b.professor*

Yangi O'zbekistonni barpo etish kontseptsiyasiga muvofiq mamlakatda inson huquq va erkinliklarini, yuridik shaxslarning manfaatlarini samarali himoyalashga, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka keng yo'l ochib beruvchi erkin

bozor munosabatlari tizimiga mos tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratishga yo'naltirilgan sud-huquqiy islohotlari izchil amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tub islohotlarning mahsuli sifatida fuqarolik jamiyatining muhim elementi hisoblangan hakamlik sudlari shakllanib, ularning ahamiyati va nufuzi tobora ortib borishi barqaror tus olmoqda.

Diqqatga sazovor jihati shuki, nizolarni sudgacha hal qilishning muqobil usullaridan keng foydalanish, hakamlik sudlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar zamonaviy talablarga javob beradigan xususiy mulkdorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlayotgan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilishiga hamda bu borada hakamlik sudlarning rolini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, hakamlik sudlari vositasida nizolar ancha tez yechim topadi, ularning taraflari davlat byurokrtiyasidan holi tarzda fuqaroviy shakl va usullar yordamida, kam harajat evaziga o'z huquqlari tiklanishi (va/yoki ta'minlanishi) imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday afzalliklar tadbirkorlik sub'ektlari uchun, ayniqsa, kichik biznes sub'ektlari uchun nihoyatda muhimdir.

Hakamlik sudlari faoliyati va nizolarni hal etishning muqobil usullari nafaqat fuqarolar va yuridik shaxslar, balki davlat uchun ham ahamiyatlidir. Hakamlik sudlarining roli davlat sudlariga qarama-qarshi emas, balki nizolarni hal qilishning o'zgacha, yangi usulini taklif qilishdir, binobarin hakamlik sudlarini tashkil etishdan maqsad muvoziy yangi huquqiy tizimni shakllantirish emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 iyundagi PQ-4754-sonli "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori²⁴ nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarining rolini tubdan oshirish, ularning fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan institutlarga aylanishida muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Hakamlik sudi nizolarini hal qilishning eng samarali usullaridan biridir. Hozirgi vaqtda uning qonuniy asosi yaratilgan. Mamlakatimizda 2006 yilda qabul qilingan "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonun²⁵ 2007 yil 1 yanvardan kuchga kiritilgan va shu sanadan e'tiboran davlat (iqtisodiy, fuqarolik) sudi bilan bir qatorda hakamlik sudlarining faoliyati yo'lga qo'yilib, sud-huquqiy islohotlarining yangi muhim bosqichi boshlandi.

²⁴ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.06.2020 y., 07/20/4754/0771-son

²⁵ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006 y., 42-son, 416-modda; 2014 y., 20-son, 222-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2018 y., 03/18/463/0634-son; 21.03.2019 y., 03/19/531/2799-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son

Nizolarni hal qilishning hakamlik sudlov shakli, avvalo, undan foydalanish imkoniyati mavjudligi va demokratikligi, ishni ko'rib chiqish muddatini qisqartirish imkoniyati, davlat boji to'lash tashvishidan ozod qilish hamda boshqa bir qancha holatlar tadbirkorlik sub'ektlari uchun jozibadordir.

Bugungi kunda O'zbekistonda 400 dan ziyod hakamlik sudlari mavjud. Ularni Hakamlik sudlari Assotsiatsiyasi birlashtirib, faoliyatini muvofiqlashtirmoqda.

Hakamlik sudi adolatni izlash va murakkab vaziyatdan chiqishning shakllaridan biridir. Bu insonlar o'rtasidagi nizolarni hal qilishning madaniy va ma'rifiy shakli bo'lib, u butun kishilik tarixi davomida davlat sud organlari bilan bir qatorda turli kelishmovchilik va mojarolarga oqilona yechim topishning huquqiy vositasi deb tan olingan.

Hakamlik sudi – fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvchi nodavlat organ. Hakamlik sudi nizolarni O'zbekiston Respublikasining qonunlari va qonunosti hujjatlari asosida hal qiladi.

Hakamlik sudlari bu davlat sudlari tizimidagi sud strukturasi emas, balki unga parallel va ishtirokchilarning ixtiyoriy bitimi va xususiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan nodavlat notijorat tashkilotdir. Hakamlik sudlari yuridik shaxs emas. Hakamlik sudining noyobligi va o'ziga xosligi shundaki, uning qarorlari davlat kuchi va obro'si tomonidan hakamlik sudiga sudlov rasmiy hokimiyat vakolatlarini beruvchi davlat sudlari tomonidan ijro varaqalarini berish orqali ta'minlanadi.

Mustaqil hakamlik sudlarining davlat tizimidagi sudlardan farqi sifatida, birinchi navbatda, hakamlik sudida nizoni ko'rib chiqish ishtirokchilarining protsessual va moddiy huquq normalarini tanlashdagi erkinligini ta'kidlash lozim. Hakamlik sudlari sudning mustaqilligini, halolligini, betarafligini (xolisligini) va yuqori professional malakasini ta'minlaydi. Faqat yuristlar emas, balki xo'jalik sohasidagi turli tarmoqlarning yuqori malakali mutaxassislari ham hakamlik sud'yalari bo'lishlari mumkin, ular tayinlanmaydi, balki ularni taraflar o'z xohishlariga ko'ra saylaydilar (tanlaydilar). Hakamlik sudi ishni ko'rib chiqishning tezligini va xolisligini ta'minlab, ayni paytda, tijorat sirlari qat'iy saqlanishini kafolatlaydi.

Hakamlik sudining mohiyati yana shundaki, bunda mijoz (taraf)lar ularning ishini ko'radigan sud'yani o'zlari erkin tanlash huquqiga ega ekanligidir. Hakamlik sudining davlat sudlaridan yana bir farqi shundaki, ish mijozning xohishiga ko'ra, tez fursatda ham ko'rib chiqiladi. Mijoz tomonidan to'lanadigan hakamlik yig'imi, odatda, davlat sudlariga to'lanadigan davlat bojining yarmiga teng miqdorda

belgilanadi. Hakamlilik sudiga shartnoma nizolarini hal qilish uchun ikki tomon kelishgan holda murojaat qiladi. Ular ishni shu sud ko'rib chiqishi uchun hakamlilik bitimini tuzadilar. Agar bu bitimga ikki tomondan bittasi imzo chekmasa, hakamlilik sudi bu ishni ko'rmaydi. Taraflar orasida hakamlilik bitimi tuzilgachgina sud'ya ishni boshlaydi. Agar mijoz ishni sud binosida emas, u taklif qilgan joyda ko'rilishini istasa, sud buni inobatga oladi. Biroq, ikkinchi tomon bunga rozi bo'lmasa, sud buni rad etadi va ishni sud binosida ko'rib chiqadi. Hal qiluv qarori ham tomonlar istagidan kelib chiqadigan mazmunda bo'ladi.

Hakamlilik sudida ishni ko'rishda ishtirokchilarning huquq va burchlarining ham farqi bor. Hakamlilik sudlari davlat sudlari tizimiga kirmagani bois, uning ishtirokchilariga yolg'on ko'rsatma bergani, ekspertning ochiqdan-ochiq yolg'on xulosa bergani, noto'g'ri tarjima yoki guvohning ko'rsatma berishdan bosh tortgani uchun javobgarlikni qo'llashi mumkin emas. Demak, ishonchlilik nuqtai nazaridan hakamlilik sudida ekspert xulosasi va guvohning ko'rsatmasi taraflarning izoh berishlari kabi bir xil dalil kuchiga egadir.

Bundan tashqari, hakamlilik sudi hokimiyat vakolatlari bo'lmagan organ sifatida guvohni ko'rsatma berish uchun sudga kelishga majbur qilishga haqli emas. Albatta, hakamlilik sudida ishni ko'rish jarayoni doirasida taraflarning dalillarni to'plash imkoniyati davlat sudlovi jarayonidagidan kamroqdir. Biroq, shu bilan bir vaqtda, ishni hakamlilik sudida ko'rish doirasida taraflarda da'vo talablarini o'zgartirishga, unga aniqlik kiritishga, masalan, da'vo predmetini va asosini bir vaqtning o'zida o'zgartirishga imkoniyat ko'proq.

Hakamlilik sudlari faoliyati rivojlangan davlatlarda fuqarolar va xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi qarzdorlik nizolarining 80-85 foizi aynan hakamlilik sudlarida ko'rib, hal etilmoqda. "Hakamlilik sudlari to'g'risida"gi Qonunning asosiy maqsadi respublikamizda hakamlilik sudlarini tashkil etish va faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunning muhim ahamiyati shundaki, u yaratgan huquqiy maydon tufayli yurtimizda "CHet el arbitraj qarorini tan olish va uni ijro etish haqidagi" 1958 yil Nyu-York konventsiyasi²⁶da e'tirof qilingan sudlovning yangi, o'zgacha nodavlat turi faoliyat ko'rsatadi.²⁷

Mamlakatimizning fuqarolik qonunchiligida ham hakamlilik sudlari faoliyatiga oid huquqiy asoslar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi²⁸ning 9-moddasiga muvofiq, fuqarolar va yuridik shaxslar o'zlariga tegishli fuqarolik huquqlarini, shu jumladan ularni himoya qilish

²⁶ <https://lex.uz/docs/2025135>

²⁷ <https://uz.denemetr.com/docs/694/index-15366-1.html>

²⁸ <https://lex.uz/docs/111189>

huquqini o'z xohish-istaklariga muvofiq tasarruf qila oladilar. Kodeksning shu normasiga asoslanib, nizo sub'ektlari o'z manfaatlarini himoya qilish uchun davlat sudiga yoki hakamlik sudiga murojaat qilishni o'zlari hal qilishga haqlidirlar.

Basharti taraflar nizoni ko'rib chiqishni hakamlik sudiga topshirish to'g'risidagi hakamlik bitimini imzolasalar, u holda davlat sudi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik-protsessual kodeksining 100- va 152-moddalariga muvofiq ishni ko'rishni to'xtatadi yoki da'vo arizasini qabul qilishni rad etadi. SHuning bilan birgalikda, fuqarolik huquqlarini sud orqali himoya qilishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 10-moddasi 1-qismiga asosan, buzilgan yoki nizolashilayotgan fuqarolik huquqlari himoyasini sud, iqtisodiy sud yoki hakamlik sudi amalga oshiradi. "Hakamlik sudlari to'g'risidagi" Qonunning 50-moddasiga asosan, hakamlik sudining hal qiluv qarorini ixtiyoriy ijro etmaslik davlat sudi tomonidan berilgan ijro varaqasi asosida majburiy bajarilishga tegishli bo'ladi. Nihoyat, mazkur Qonunning 32-moddasi qoidalariga asosan hakamlik sudi nizo predmetiga nisbatan ta'minlov choralari qo'llash haqida farmoyish berish huquqiga ega, vakolatli davlat sudi esa hakamlik sudida ko'rilayotgan da'voning ijrosini ta'minlash bo'yicha majburiy choralarni ko'rishi mumkin.

Mazkur qoidalar hakamlik sudlovining huquqiy tabiatini ta'kidlaydi. Hakamlik kelishuvining tomonlari uchun hakamlik sudida ishni ko'rish majburiyati ularga odil sudlovni rad etish yoki ularning o'z mulkiy manfaatlarini sud orqali himoya etishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqidan voz kechishini anglatmaydi.

SHuningdek, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasiga binoan hakamlik sudlarining qarorlari, shuningdek xorijiy sudlar va arbitrajlarining qarorlari ijro etilishi lozim. Bundan tashqari, mazkur qonunning 7-moddasiga muvofiq, hakamlik sudlarining majburiy ijro etish uchun sudlar tomonidan berilgan ijro varaqalari bajarilishi shart bo'lgan hujjatlar sirasiga kiradi.

SHunday qilib, hakamlik sudlarining ustuvor afzalliklari quyidagilardan iborat: sudlar insonlar o'rtasidagi nizo va kelishmovchiliklar ma'rifiy hamda madaniy tarzda hal etiladigan maskandir. Qadim zamonlardan buyon hakamlik sudlari odil sudlovning dastlabki xalqchil shakli bo'lib kelgan. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati qaror topgani, bozor munosabatlari shakllangani hamda tadbirkorlik rivoj topgani sayin hakamlik sudlariga ehtiyoj kuchayib bormoqda.

Xalqning bag'rikenglik va donishmandlik qadriyatlariga bevosita hamda qat'iy tayangan hakamlik sudlari davlat sudlariga nisbatan muayyan ustunlikka ega. Hakamlik sudining davlat tuzilmasi hisoblangan fuqarolik, ma'muriy, jinoyat va iqtisodiy sudlardan ustun hamda farqli jihatlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

1) hakamlik sud mijozlar shartnoma nizolarini hal qilish uchun ikki tomon o'z ixtiyorlari bilan kelishgan holda keladi;

2) iqtisodiy sudlarda faqat yuridik shaxsga oid xo'jalik nizolari, Fuqarolik sudlarida esa faqat fuqarolarga oid nizolar ko'rib chiqiladi;

3) hakamlik sudlari, jumladan, yuridik shaxslar o'rtasidagi nizolarni ham, fuqarolar o'rtasidagi qarz oldi-berdisiga oid nizolarni ham ko'rib chiqadi. Fuqarolar o'rtasida qarz shartnomasi yozma tilxat bor yoki yo'qligidan qat'i nazar hakamlik sudi nizolarni ko'rib chiqib, qonuniy qaror qabul qiladi;

4) hakamlik sudlarida ish tezkorlik bilan ko'rib, hal etiladi (chunki, hakamlik sudida faqat bitta instantsiya nazarda tutilgan bo'lib, boshqa sudlar kabi apellyatsiya, kassatsiya, nazorat instantsiyalari mavjud emas. Hakamlik sudining qarori yakuniy hisoblanadi, odatda, ular ustidan shikoyat qilinmaydi);

5) mazkur sudlarda asosiy maqsad taraflarning kelishuviga yo'naltiriladi va taraflar o'rtasidagi hamkorlik saqlab qolinadi. Birinchi o'rinda taraflarni murosaga keltirish yo'llari izlanadi, bunda keyinchalik ham hamkorlik qilishlari uchun tomonlar o'rtasidagi munosabatlar buzilmasligi yo'lida harakat qilinadi;

6) hakamlik muhokamasining maxfiyligi qonun bilan kafolatlanadi. Hakamlik muhokamasi yopiq majlisda ko'rib chiqiladi. Bu taraflar o'rtasida nizo mavjudligi, shuningdek, nizoning biror bir o'ziga xos jihatlari oshkora qilinmasligini, tijorat sirini saqlanishini ta'minlaydi;

7) hakamlik sudida faqat sud tarkibi va nizolashayotgan tomonlar qatnashadi. Prokuror ishtirok etmaydi;

8) ushbu sudda ishtirok etgan tomonlar jinoiy va ma'muriy jazoga tortilmaydilar;

9) hakamlik sudining hal qiluv qarori qabul qilingan kundan boshlab darhol kuchga kiradi;

10) iqtisodiy sudlar va fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar hakamlik sudi aniqlagan holatlarni tekshirishga yoki hakamlik sudining hal qiluv qarorini mazmunan qayta ko'rib chiqishga haqli emas.

Ta'kidlash joizki, hakamlik sudi ma'muriy, oila va mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni hal etmaydi. Masalan, aliment undirish, bola asrab olish, ishga tiklash, nikohni bekor qilish kabi nizolar ularning yurisdiksiyasiga kirmaydi.

Hakamlik sudlovining printsiplari fuqarolarning xususiy huquq va erkinliklarini muhofazalash manfaatlari, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati tabiati uchun maksimal darajada mos keladi. Zotan, hakamlik sudlari faoliyati asosiga taraflarning nizoni asl mazmuniga ko'ra o'zlari tanlagan sudlov tarkibiga erkin hamda ishonchga ko'ra taqdim etishlari tamoyili qo'yilgan.

Qonuniylik printsipti amaldagi qonunchilik hujjatlari va umumiy qabul qilingan amal qilish asoslaridan kelib chiqqan holda hakamlik sudlarini sud ishining umumiy printsiplariga rioya qilishga majbur etadi. SHu tariqa, hakamlik muhokamasida sudbyalar *mustaqilligi printsipti* umumiy yurisdiksiya sudlaridagiga qaraganda muhimroqdir, chunki taraflar o'zlari sudbyalarni mustaqil tanlaydilar va aniqki, ular tanlagan sudbya kamida uning nizodagi o'rnini tushunishi va qo'llab-quvvatlashidan manfaatdor. Mustaqillik printsipti bu yerda sudbyaning shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Ba'zi printsiplar maxsus me'yoriy hujjatlarda qayd etilmagan bo'lsa-da, shunga qaramasdan hakamlik sudbyalari tomonidan qo'llanilishi shart, chunki ular umummajburiy huquq normalaridan kelib chiqadi. Masalan, taraflarning qonun va sud oldida tengligi printsipti umumiy konstitutsiyaviy asoslardan kelib chiqadi.

Ma'lumotlarni *oshkor qilinmaslikni* hakamlik muhokamasining printsipti deb tan olinishi taraflarga ularning nizolari ko'rilishi ochiq yoki yopiq tarzda bo'lishini mustaqil aniqlash huquqini qayd etadi.

Hakamlik muhokamasi *ma'lumotlarini oshkor qilmaslik printsipti* shaxs va unga tegishli ma'lumotlarni, tadbirkorlar uchun esa tijorat sirlarini oshkor etmaslik nuqtai nazaridan ham muhimdir. Bunga ko'ra, uchinchi shaxslar, shuningdek jurnalistlar, jamoatchilik vakillari sud majlisida ishtirok etishi mumkin emas. Ushbu printsiptning tadbirkorlik sub'ektlari uchun ahamiyati shundaki, ular o'z muammolari, nizolari jamoatchilik nigohiga tushishini istamaydilar. Bu hol hamkorlar o'rtasida ularning obro'siga putur yetkazishi mumkinligini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Hakamlik sudlari to'g'risidagi qonunning 28-moddasiga binoan, hakamlik sudbyasi hakamlik muhokamasi davomida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni hakamlik muhokamasi taraflari yoki ularning huquqiy vorislari roziligisiz oshkor qilishga haqli emas. Bundan tashqari, yuqoridagi normaga ko'ra, hakamlik sud'yasi hakamlik muhokamasi davomida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlar haqida guvoh sifatida so'roq qilinishi mumkin emas. Bundan shu ma'no kelib chiqadiki, Qonun konfidentsial axborot xususida "guvohlik immuniteti" (daxlsizligi) institutini mustahkamlaydi.

Mazkur printsiptni qo'llash borasida har bir vaziyatda nizoning taraflari o'zaro kelishib oladilar. Hakamlik muhokamasi yopiq yoki ochiq bo'lishi masalasida ham taraflar mustaqil qaror qabul qiladilar. Ma'lumotlarni oshkor qilmaslik (konfidentsiallik) printsiptini buzganlik uchun qonun javobgarlik masalasini nazarda tutmagan. Ammo, bu masalada hakamlik sud'yasi,

muhokamaga daxldor boshqa shaxslar pozitiv (ijobiy) javobgarlik, ya'ni mas'uliyat hissiga ega bo'lishlariga umid qilinadi.²⁹

Hakamlik muhokamasi haqidagi ma'lumotlarning oshkor etilishi faqatgina taraflar roziligi bilan ro'y berishi mumkin. Hakamlik sudi hech bir tarafdin isbot izlash yoki talab qilishga aralashmaydi, chunki bu umumiy qabul qilingan taraflar tortishuvi printsipli buzilishini anglatadi.

Hakamlik sudlari o'z faoliyatida *dispozitivlik printsipliga* tayanadi. Bu printsipl sub'ektlarning huquqiy munosabatlar tarkibi, ularning sudlov himoyasi usuli va vositalari o'zlari tomonidan aniqlash erkida namoyon bo'ladi. Biroq, mazkur printsipl xususiy-huquqiy avtonomiya chegaralaridan tashqariga chiqmaydi, shuning uchun taraflarning sud ishida o'zlarini erkin tutish huquqi qat'iy chegaralar bilan belgilangan. Har bir taraf sud ishida faqatgina bu orqali boshqa shaxslar huquqi buzilmagan holdagina o'z huquqini amalga oshirishi mumkin. Hakamlik sud ishida dispozitivlik printsipli huquq borasida nizo kelib chiqqunicha namoyon bo'ladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlari taraflari shartnoma tuzishda uning matniga hakamlik shartini kiritganlarida, shu paytda dispozitivlik printsipliga asosan ular o'zlari oralarida kelib chiquvchi nizolarni ko'rib chiqish uchun muayyan hakamlik sudini tanlaydilar.

Sud ishining yana bir muhim printsipli - *tortishuvlik printsipli* aynan hakamlik sud ishida yorqin namoyon bo'ladi. Davlat sudidan farqli ravishda, hakamlik sudi isbot to'plashda ishtirok etish yoki davlat manfaatlarini himoya etish huquqiga ega emas va ishtirok etishga ham majbur emas. Tortishuvlik printsipli taraflar har biri o'z isbotlarini nizodagi o'z o'rnini asoslash uchun taqdim etishida ko'rinadi. O'z foydasiga ko'proq va yaxshiroq asoslangan dalillarni taqdim etgan taraf ishni o'z foydasiga hal qilishga erishadi. Ya'ni, dalillash vazifasi taraflarga tegishli, sud esa betaraf va ob'ektiv maqomda turadi.

Hakamlik sudlari va hakamlik muhokamasining joriy holatiga oid yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, nizolarni muqobil hal etuvchi institut sifatida hakamlik muhokamasining afzalliklari mavjud bo'lishiga qaramasdan, bu borada ayrim muammolar ham mavjud.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, muayyan davlatda nizolarni muqobil hal etish usullarining, jumladan hakamlik muhokamasining rivojlanishi shu davlatdagi huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Hakamlik muhokamasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan yana bir asosiy omil bu – mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining taraqqiy etganlik darajasi hisoblanadi.

²⁹ Отахонов Ф.Х. После третейского суда конфиденциальность не гарантирована. <https://www.norma.uz/uz/nashi-obzori>. 27.07.2015г.

Bu borada hakamlik sudlari va sud'yalarning mustaqilligiga, holisligiga ta'sir qilinishini istesno qilgan holda quyidagi ikki yo'ldan birini amalga oshirish lozim:

birinchisi, O'zbekiston Hakamlik sudlari assotsiatsiyasi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish, uni kuchaytirish, barcha hakamlik sudlari unga a'zo bo'lishi shartligi hamda assotsiatsiya ushbu sudlar faoliyatini muvofiqlashtirishi va ommalashtirishi kerak;

ikkinchisi respublika bo'yicha barcha hakamlik sudlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yangi tashkilot tuzish. Masalan, O'zbekiston Hakamlik sud'yalari palatasini tashkil etish. SHu tariqa ularni Savdo-sanoat palatasi tasarrufidan chiqarish mumkin.

Yagona muvofiqlashtiruvchi tashkilotning joriy etilishi, eng avvalo, nizolarni muqobil hal etish mexanizmlarini amalga oshirish bo'yicha, jumladan hakamlik sudlariga nisbatan yagona sabrli (loyal) siyosatni amalga oshirishga ko'maklashadi, shuningdek ushbu tashkilot hakamlik sudlarining sud'yasi bo'lish uchun barcha uchun majburiy bo'lgan malaka darajalarini tasdiqlaydi, hakamlik sudlarini moliyalashtirish, faoliyatini tahlil qilish, faoliyatdagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish, hakamlik muhokamasi haqida tushuntirish va targ'ibot ishlarini amalga oshirish kabi funktsiyalarni bajarishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hakamlik sudlari va hakamlik muhokamasiga oid, jumladan quyidagi muammolarni umumlashtirgan holda ko'rsatish mumkin:

✓ mamlakatda hakamlik sudlarining yetarli darajada ommalashmaganligi va shu sababli ularga davlat organlari rahbarlari va xodimlarining, aholining yetarli darajada e'tibor barmayotganligi yoki hakamlik sudlari imkoniyatidan foydalanish ishtiyoqi yo'qligi;

✓ hakamlik muhokamasi afzalliklarini tadbirkorlik sub'ektlariga doimiy ravishda tushuntirish amaliyoti joriy qilinmaganligi (OAV chiqishlar deyarli yo'q hisobi) hamda bu borada yosh tadbirkorlar, hunarmandlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar o'rtasida keng targ'ibot ishlari olib borilmayotganligi;

✓ hakamlik sudlarining veb-saytlari mavjud emasligi yoki mavjudlarida ham hakamlik sudlariga oid ma'lumotlar va axborotlar umuman joylashtirilmaganligi yoxud ularda yetarli ma'lumotlar mavjud emasligi;

✓ faoliyat yuritayotgan ko'pchilik hakamlik sud'yalari malakasining yetarli darajada emasligi;

✓ aholining va tadbirkorlik sub'ektlarining hakamlik sudlarining afzalliklaridan bexabarligi yoki e'tiborsizligi;

✓ barcha hakamlik sudlarida ham sud majlislari o'tkazish uchun alohida xona ajratilmaganligi sababli maxfiylik printsiplari rioya qilish imkoniyati mavjud emasligi va boshqalar.³⁰

SHunday qilib, ushbu muammo va kamchiliklarni hakamlik sudlari faoliyatiga oid amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirishda inobatga olish lozim, deb hisoblaymiz.

KONSTITUTSIYADA DAVLATNING INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHDAGI MAJBURIYATLARI BELGILANISHI - HUQUQ VA ERKINLIKLARIMIZ KAFOLATI

Jumanieзов X.S.

falsafa fanlari nomzodi, professor

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik printsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

Konstitutsiyada ilgari “davlat – jamiyat – inson” tamoyilini “inson – jamiyat – davlat” deb o'zgartirilganligi, ya'ni eng avvalo inson manfaatini har narsadan ustun qo'yishni maqsad qilinganligi nafaqat huquq va erkinliklarni mustahkamladi, balki ularni amalga oshirishning real imkoniyatlarini ta'minlash chora-tadbirlarini, kafolatlarini ham yaratdi.

Buni biz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasidanoq “Biz, O'zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti printsiplariga sodiqligimizni tantanali ravishda e'lon qilib” degan so'zlardan boshlanishidan ko'rishimiz mumkin.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limi Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan bo'lib, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi etib belgilanganligi va shu munosabat bilan inson huquqlarini kafolatlash mexanizmi, mutlaqo yangi masala va yo'nalishlar aks etgan oid normalar 3 baravardan ortiqqa oshganligini ko'rish mumkin. Xususan, 54-moddada ilk bor “Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir.. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi” va 56-

³⁰ Ismailov O. Nazarov SH. Hakamlik sudlarining faoliyati va rivojlanish istiqbollari. T., 2019. BMT Taraqqiyot dasturi. B.39-40.

moddada “Davlat inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun sharoitlar yaratadi” deb belgilandi. SHuning barobarida, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda huquqiy normalarning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi mumkinligi bizning huquqiy amaliyotimizda mutlaq yangi voqelikdir.

Insonning ajralmas huquqlardan biri – o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish huquqidir. Bu umume'tirof etilgan xalqaro-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan huquqdir. Ayni paytda Konstitutsiyaning 55-moddasiga yangi xatboshi kiritilib, unga ko'ra “Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli” deb muhrlandi.

Qonunchilikda har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlab qo'yilgan. SHaxsning buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash masalasi uning hayotida o'ta muhim o'rin tutganligi sababli, sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlarni apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish institutlari joriy etilgan.

Shuningdek, O'zbekiston a'zo bo'lgan BMTning inson huquqlariga oid umum'tirof etilgan xalqaro xujjatlarida shaxsning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy huquqlar kamsitilganda hamda irqiy, ayollarga, bolalar, nogironlarni kamsitish holati, qiynoqlar jazolashning shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsitadigan turlar qo'llanilganda fuqaro uning huquq va erkinliklari buzilgan hollarda huquqlarini tiklash maqsadida BMTning tegishli qumitalarga murojaat qilishi mumkinligi belgilangan.

Buning asosiy sharti shundaki, fuqaro xalqaro organlarga murojaat etishi uchun, ushbu huquq shaxsga o'z davlatida yaratilgan barcha huquqiy himoya mexanizmlaridan ham qoniqmagan taqdirda, o'z haq-huquqlarini xalqaro darajada himoya qilish va nizolashayotgan masalasini xalqaro-huquqiy hujjatlardan foydalangan holda hal qilish imkoniyatini yaratadi.

Shaxsga davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lganidan so'ng, xalqaro organlarga murojaat etish huquqining berilayotganligi O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasida zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarini samarali bajarishga qaratilgan Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiyasi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalari xabarnomalari va qarorlarini ko'rib chiqish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risidagi

nizomda belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilayotgani uning xalqaro maydondagi obro'si yanada mustahkamlanishiga hamda mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga xizmat qiladi hamda inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish, ularga rioya etish va ularni himoya qilish borasida qo'shimcha konstitutsiyaviy-huquqiy kafolati hisoblanadi.

Konstitutsiyadagi mutlaqo yangi normalardan yana biri — 57-modda. Unga ko'ra mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir. Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'radi. Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar ob'ektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashishi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlashi aniq belgilab berildi.

Ushbu normalar fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning davlat kafolatlarini mustahkamlash imkonini yaratadi, shuningdek xalqimizning tinch, obod va farovon hayotini ta'minlash va xalqaro maydonda O'zbekiston Respublikasining ijobiy imidjini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: Adolat, 2023.
- 2.Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. -T.: Adolat, 2013. –B.299.
- 3.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. Mualliflar jamoasi – T.: TDYuI nashriyoti, 2012. – 649 b.

OILA JAMIYATNING ASOSIY BO'G'INI.

Sobirova M.A.
falsafa fanlari nomzodi, v.b. professor

Oila jamiyatning quyi va u asosiy bo'g'inidir. U insonni hayotga kelishi, tarbiyalanishidagi asosiy makon. Oila bir necha kishilarni birgalikda yashash joyi. Oilani to'liq bo'lishi uchun ota-ona va farzandlar bo'lishi shart. Ularning birortasisiz ham oila bo'lishi mumkin. Oila – hayot abadiyligi va avlodlar

davomiyligini taminlovchi qadriyatlar beshigi, kelajak nasllar uchun betakror tarbiya qo'rg'onidir. Lekin bunday oilada yetishmovchilik bo'ladi. Har bir oila ma'lum xonadonga mos bo'ladi.

Oila qurishning asosiy sababi, turli jins kishilari va ulardan vujudga keladigan farzandlar bilan birga turmush kechirish, hayotni davom ettirish maqsadida avlod qoldirish hisoblanadi.

Oila o'z ichki munosabatlariga asoslanadi. Oilaning ichki munosabatlari qonun hujjatlariga, milliy va axloqiy qadriyatlarga asoslanadi. Oilaviy munosabatlar tabiiy, iqtisodiy, ma'naviy ehtiyojni qondirish zarurati yuzasidan vujudga keladi.

Har qanday jamiyatning mustahkamligi, rivoji oilaga bog'liq. Chunki jamiyatda bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarning dastlabki elementi oilada vujudga keladi va shakllanadi. Oiladagi kattalarni bir-biri bilan munosabati, boshqalar bilan munosabati, atrof-muhit, mol-mulkka bo'lgan munosabati yoshlarni shu masalalarga munosabatini shakllanishi uchun o'rnak bo'ladi. Oiladagi tarbiyani boshqa tarbiyalardan farqi, afzalligi tarbiya u yerda faqat o'rgatish, uqitish, ta'kidlash bilangina emas, barcha narsalarda katta yoshdagilarni kichik yoshlar uchun o'rnak kursatishi orqali olib boriladi.

Shularning barchasi e'tiborga olinib, bizning xalqimizga hos oiladagi ijobiy jihatlarni mustahkamlash va rivojlantirishni ta'minlash uchun Konstitutsiyamizda Oila, bolalar va yoshlar deb nomlangan XIV bob ajratildi. Bunday holatni – oilani maxsus bobda ko'rsatishni boshqa barcha mamlakatlar Konstitutsiyalarida ham uchratmaymiz. U yerlarda oilaga ham davlat, jamiyat munosabati o'zgacha. Bizda oila jamiyatning ajralmas qismi va mavjud bo'lishi shart masala deb qaraladi va albatta unda ikki jinsni, erkak va ayol birlashuvi bo'lishligini, bu birlashuv orqali, dunyoga yangi insonlar kelishi nazarda tutiladi. Shu bilan birga yangi konstitutsiyamizda bu bobda yoshlar huquqlari ham alohida **79-modda** “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi...”

Konstitutsiyaning 76-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir...” degan qoida o'z aksini topgan. Konstitutsiya oilani jamiyatni bo'g'ini sifatida e'tirof etishi, oilasiz jamiyat kemptik bo'lishini, rivojlanish xavf ostida qolishini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda oila tuzish asosi nikoh hisoblanadi. Nikoh oila tuzishning qonuniy sharti bo'lib, u Konstitutsiyada belgilangan. Konstitutsiyaning 76-moddasida “Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga,

nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi,-” degan qoida o‘z o‘rnini topgan.

Oilani asosi nikoh bo‘lsa, nikoh birinchidan, tomonlarning mutloq roziligi bilan, ikkinchidan, teng huquqliligi asosida tuziladi. Shundan xulosa qilib aytilsa nikoh tuzish asoslari tomonlarning roziligi (ixtiyoriylik) va tomonlarning er va xotinning teng huquqligidir. Nikohlanuvchilarni roziligi haqiqiy bo‘lishi, biror tomonni har qanday tazyiq, qo‘rqitish, kuch ishlatish orqali roziligi olinmasligi kerak.

O‘zbekistonda nikoh munosabatlari maxsus qonun bilan tartibga solinib, unda ham nikoh tuzishning ba’zi asoslari belgilangan. Unga asosan nikoh tuzishga kelishgan shaxslar albatta qarama-qarshi jins vakillari (erkak va ayol) bo‘lishi kerak. Nikoh tuzish uchun ma’lum yoshga yetgan bo‘lishi (erkaklar 18 yosh, ayollar 18 yosh) talab etiladi. Kanada qonunchiligiga muvofiq, nikoh yoshi umumiy 16 bo‘lsa, Germaniya va Hindistonda 18ni tashkil etadi.

Bundan tashqari nikoh tuzish uchun nikohlanuvchilar sog‘lom bo‘lishi talab etiladi. Sababi, nikoh natijasida qurilgan oilalar albatta farzand ko‘rishni maqsad qilib qo‘yadi. Dunyoga sog‘lom farzand kelishi uchun ota va ona sog‘lom bo‘lishi kerak.

Shu masalani hal qilish uchun O‘zbekiston hukumati “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida Nizom”ni tasdiqlagan. Ko‘rikdan o‘tkazish nikohlanuvchini sog‘ligini aniqlash bilan birga ular ruhiy kasalliklar va OITS kasalliklari bilan og‘rimaganligini aniqlaydi. Chunki bu kasalliklar nikohlanuvchilarni biridan-biriga o‘tishi, farzandlariga o‘tishi mumkin va og‘ir oqibatlariga olib keladi. Tibbiy ko‘rikdan o‘tish tartibi buzilib nikoh tuzilsa, unda bunday nikoh bekor qilinishi mumkin.

O‘zbekistonda tegishli davlat organlari tomonidan ro‘yxatga olingan nikohgina qonuniy sanaladi va e’tirof etiladi. Bunday organ Adliya vazirligi tizimidagi fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd qilish organlaridir (FXDYO).

Bu organlar tomonidan qonuniy asoslarda berilgan hujjat nikohni isbotlovchi hujjat tariqasida e’tirof etiladi.

Oila qurishda erkak va ayol tengligi ularni familiya tanlashida ham ko‘rinadi. Er-xotinni ixtiyoriy roziligi bilan xil familiya tanlanishi yoki har kim o‘zini familiyasida qolishi mumkin. Keyingi barcha munosabatlarda ham er-xotin bir xilda huquqlardan foydalanadi.

Ota-onani farzandlar oldidagi burchi Konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi, yosh avlodga bo‘lgan e’tiborni ko‘rsatadi. Ota-ona farzand ko‘rgach uni voyaga yetkazishi, tarbiyalashi shart. Tarbiyasiz, yetarli ta’minotsiz farzand jamiyatda o‘z o‘rnini topishi u yoqda tursin, jamiyat uchun xavfli shaxsga aylanadi.

Konstitutsiyaning 77-moddasida “Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.” – deb belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, majburiyat ikki narsani hal qilishga qaratilgan, birinchisi, farzandlarni boqish, ikkinchisi, tarbiyalash.

Farzandni boqish deganda uni voyaga yetguncha barcha moddiy ehtiyojlarini qondirish, yashashi uchun eng zarur imkoniyatlarni yaratish tushuniladi. Bu – ovqatlantirish, kiyintirish, bolalarni yashash uchun zarur jihozlar bilan ta’minlash, o‘qitish, o‘qish va bilim olish uchun zarur qurol va jihozlar bilan ta’minlashdir.

Bunda har bir ota-ona o‘z moddiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, tegishli sharoitlarni yaratadi.

Ota-onaning muhim va mashaqqatli majburiyati bu, bolani tarbiyalashdir. Maktabgacha bola to‘la ota-ona ixtiyorida bo‘ladi. Ayrim bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida bo‘lishi ham mumkin. Bola maktabgacha ota-ona ixtiyorida bo‘lganda, bolani tarbiyasiga faqat ota-ona javobgar. Shu davrda bolani atrofdagi va oiladagi hodisa, voqealarga munosabati shakllana boshlaydi. Shuning uchun bola ongida faqat ijobiy qarashlar shakllanishi uchun, ota-ona katta ishlar olib borishi, barcha yaxshi ishlar, odatlar, xislatlar, voqealar haqida bolaga tushunchalar berishi, tarbiya jarayonida texnika vositalaridan ayniqsa, televizorlardagi bolalar uchun ko‘rsatuvlarga ularni jalb qilish juda ham muhim. Bola tarbiyasida ularni tabiatga, o‘simlik va hayvonlarga yaxshi munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash alohida rol o‘ynaydi. Tarbiya natijasida o‘simlik va hayvonot dunyosiga “do‘stlik ruhini” vujudga keltirish zarur. Bola tarbiyasi natijasida ularning bir-biriga, kattalarga hurmati, mahalla, vatanga hurmatining boshlang‘ich asoslari vujudga keladi.

Bola tarbiyasida nafaqat tushuntirish, o‘rgatish, eng muhimi shaxsiy o‘rnak ko‘rsatishdir. Bola uchun ota-onaning yurish-turishidan o‘rnak olish, ularga taqlid hissi juda kuchli. Ana shu narsadan to‘g‘ri foydalanish zarur.

Bolani boqish va voyaga yetkazish majburiyatida bolalarni o‘qitish, o‘qish uchun zarur sharoitlarni yaratish, bolani qobiliyatiga qarab bilim berishni amalga oshirish, o‘quv dargohidagi ishlarini kuzatib turish muhim hisoblanadi.

Oila buzilib ota-ona ajrashishgan holda ham ota-ona majburiyati bekor bo‘lmaydi. Bola kim bilan qolishidan qat’iy nazar ikkala tomon ham bola uchun g‘amxo‘rlik qilishi shart. Bu ixtiyoriylik asosida bo‘lmasa, majburiy tarzda aliment undirish bilan amalga oshiriladi.

Bolani voyaga yetguncha barcha ehtiyojlarini imkoniyat darajasida qondirgan ota-onalar majburiyatni ado etgan hisoblanadi. Otalik, onalik majburiyatlarini bajarmaganlar qonun asosida ota-onalik huqiqidan mahrum qilinadi.

Keyingi paytlarda mamlakatimizga turli diniy oqimlarni kirib kelishi va ularni hurujlari, narkomaniya kasofatini paydo bo'lishi, bulardan farzandlarimizni saqlash choralarini kengroq ko'rishni taqozo etmokda. Bu esa yana tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish, barcha kuchni unga sarflashni, bu ishda maktab, mahalla hamkorligini o'rnatish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Davlat ota-onalarga farzandlarini voyaga yetguncha boqish, tarbiyalash majburiyatini yuklash bilan birga, ota-onasiz bolalarni boqishni, tarbiya qilishni, o'qitishni o'z zimmasiga oladi. Bu Konstitutsiyadagi "Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi." – degan qoida asosida amalga oshiriladi (77-modda).

Voyaga yetgunga qadar davlat va jamiyat qaramog'ida bo'ladigan, ularni yordamiga muhtoj bolalar deganda, yetim bolalarni (ota-onasi vafot etgan bolalarni), ota-onani vasiyligidan mahrum bo'lgan (ota-onalari tashlab ketgan yoki ota-onalik huqiqidan tegishli tartibda mahrim qilinganlar) bolalarni e'tiborga olamiz. Bunday yordamga muhtoj bolalarni davlat turli tadbirlar belgilab, muntazam ravishda ular hayotda o'z o'rinlarini topishi uchun zarur sharoit yaratib beradi.

Voyaga yetgan farzandlarning ota-ona oldida ko'plab majburiyatlari bo'lib, bu majburiyatlar ota-onaga g'amxo'rlik qilishni nazarda tutadi. Bu burch nafaqat Konstitutsiyaviy burch, u xalqimiz qon-qoniga singgan, ahloqiy qoidalarga mos urf-odatimiz hamdir.

Azaldan ota-onaga g'amho'rlik qilingan, ularni ranjitgan farzandlar, qoralangan, qarg'ishga qolgan, ulardan hamma yuz o'girib, yakkalab qo'ygan. Ana shu ahloqiy qoida Konstitutsiyada qoida sifatida mustahkamlangach, endi noqobil farzandlarni nafaqat qoralash, qarg'ash, yakkalab qo'yish emas, qonun yo'li bilan jazolash imkoni tug'ildi.

Konstitutsiyaning 80-moddasida "Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.- degan qoida belgilandi.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalariga ular birgalikda yashaydimi, alohida yashaydimi (qayerda yashashidan qat'iy nazar) bundan qat'iy nazar g'amxo'rlik qilishga majbur.

Farzandni ota-onaga g'amxo'rliqi nimalardan iborat? Eng avvalo ota-onani normal yashashi uchun to'liq imkoniyat yaratish. Bu turar-joy bilan, oziq-ovqat (yegulik), kiyim-bosh bilan ta'minlash. Ota-onalarni sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish, ularni tibbiy xizmatga muhtojligida tibbiy xizmatdan foydalanishini ta'minlash.

Iqtisodiy tomondan g'amxo'rlikning o'zigina ota-ona ehtiyojini qondirmaydi, unga qo'shimcha ravishda ma'naviy jihatdan ham ota-ona qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Farzandlar ota-ona ehtiyojini ixtiyoriy ravishda qondirmasa, unda ularga majburlov choralari quriladi. Moddiy majburlov choralari bu, farzandlardan ota-ona hisobiga majburiy to'lov (aliment) undirishdir.

Mehnatga layoqatli, ma'lum iqtisodiy imkoniyatlari yetarli, turar-joy masalasida qiyinchiligi yo'q farzandlarning ota-onalarini qariyalar uyiga joylashtirishi xalqimizda eng yomon uyat ish, oriyatsizlik deb qoralanadi.

Oila munosabatlarini Konstitutsiyaviy asosda hal qilinishi, Konstitutsiyada unga alohida bob ajratilishi, bizda oilaga bo'lgan jiddiy munosabatni isbotidir. Oilani mustahkamlash bu, jamiyatni mustahkamlash va rivojlantirish ekanligi, davlatning oilaga bo'lgan munosabatini belgilovchi asosiy holatdir. Oilalar sog'lom bo'lsa, jamiyat ham sog'lom bo'ladi.

INTERRELATIONS OF ORGANIZATIONAL STRUCTURES IN THE MANAGEMENT PROCESS THROUGH PROSPECTIVE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE HIGHER EDUCATION INSTITUTION

*Saidakhmedova Nadira Ilhomovna
Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, Head of the
Department of Educational Management, Doctor of Economic Sciences (DSc),
Associate Professor
Kurbaniyazov Shakhzodbek Karimovich
Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, Associate
Professor of the Department of Educational Management, Doctor of Philosophy
(PhD)*

Abstract: this article highlights the potential advantages of the management process through a forward-looking development strategy over an educational approach and the ways in which the organizational structure and activities of management are linked to business processes from start to finish, and the ways in which they influence the field of management and marketing.

Key words: education, management, marketing, approach, system, professional activity, management, management activity

In the Republic of Uzbekistan, the systematic organization of immediate activity processes in the educational system and the process of developing the activities of the educational organization and the permanent good qualities of the personnel it prepares require a systematic approach, and these processes and the approach to the professional activities that require the need are in harmony with the ISO 9001 international standards. organization based on quality management systems of incoming organizations is of great importance. therefore, it is important to use the strategic concept in the use of management in education according to the following formula - "work with the big one as if it were small". In particular, such a potential advantage of the "process approach" over the traditional educational approach can be revealed when the organizational structure and all activities of management are connected to business processes from beginning to end: in this case, educational structures are important because they are subordinated to operational processes, and processes are subordinated to strategy.

It is known that the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, pays attention ³¹to the youth and those responsible for their education in the life of the society , while paying attention to his responsibility to the people: "it is of strategic importance for the future of our youth, our society and our country" in the field of education and science of our country. is also showing its effect in the ongoing reforms. Therefore, it is not for nothing that they emphasize that it is our great task to create all opportunities for the young generation to show their intellectual potential and talents in society.

Based on the characteristics of the important types of organizational structures in the educational process, when selecting them, taking into account the strategic plans of the organization, the external and internal environment, the ability to adapt to possible changes, the transition from bureaucratic structures to stoategic developing structures, the management system of a modern large or even medium-sized organization is often to one degree or another it is important to influence the development of administrative units through a combined type of structure with elements of bilateral subordination to vertical and horizontal relations. Therefore, when referring to the precise typological description of modern management structures, it is possible to single out only the main approaches, principles and main elements in them. For example, G. Morgan from

³¹Mirziyoyev Sh.M. The work of a people with a great intention will be great, their life will be bright and their future will be prosperous.-Tashkent: Uzbekistan, 2019.- 39 p .

foreign scholars ³²in his studies researches different models of organizations and their operating environment and suggests three different types of compatible relations between organizational characteristics and external environment corresponding to different types of structures.

Analysis of compatibility of organizational characteristics with the external environment

Table 1

Characteristics of the external environment	Stable and known	Unstable and unknown
Features of organizational subsystems		
Strategy k	Setting defensive operational tasks	Active and preventive creation of the training system
Technologist k	The same work in the workplace, narrow freedom of movement	Complex work in the workplace, freedom of movement
Human and cultural	Economic attitude to work as a tool	Attitude to work as a means of self-expression
Management	authoritarian	democrat k
Structural	a mechanic or a bureaucrat	body k
Organizational structure type		
	linear- functional or divisional	design or matrix

A comparative analysis that allows comparing the conditions of the educational environment and the type of organizational structure based on the analysis of the organization's compatibility with the external environment from strategic management developments is considered important. Its value is that it can be used in the form of recommendations when designing a "new" organizational structure or redesigning an "old" structure when the conditions of the

32 Lewis Henry Morgan // [Gran Enciclopèdia Catalana](#) (cat .) — [Group Encyclopedia](#), 1968.

organization's activity change.

Table 2 summarizes the characteristics of the main processes of strategic management in the educational process.

Processes affecting strategic management

Table 2

Process	The goal	Methods and tools
environmental analysis	To determine the risks that may occur in the external environment and the strengths and weaknesses of the organization.	SWOT - analysis, environmental profiling
defining mission and goals	Establishing a balance of interests of various social institutions and groups of people who are interested in the operation of the organization and influence the characteristics, content and direction of the organization's activities.	stakeholder analysis
choosing a strategy	Solving the main issues related to the organization's position in the market and choosing tools that will solve the tasks that the organization faces.	Thompson and Strickland matrix , business portfolio analysis
strategy implementation	Creation of necessary conditions for successful implementation of the strategy and development of evaluation criteria.	Balanced Scorecard (BSC)
control and evaluation of strategy implementation	Determining how well the implementation of the strategy will help the organization achieve its goals.	Analysis of indicators and adjustment according to the results of strategic control

Therefore, we should consider the processes of strategic management and determine their peculiarities in higher education institutions. Implementation of the process of analysis and forecasting of the environment of strategic management provides management with information, makes it possible to draw up a list of problems related to the development of the organization, and is the basis for the development of goals, mission and strategic decisions.

It is known that one of the main tasks of the desired management is to ensure the balance of interactions of the organization with the environment. Each

organization is involved in three processes that affect development:




Figure 1. The process of interaction of the organization with the environment.

Management should ensure a balance between "input" and "output". With this imbalance in the organization, its effectiveness also stops. Today's market has dramatically overestimated the importance of the exit process in maintaining this balance. This is reflected in the fact that the first block in the structure of strategic management is the analysis of the environment. The peculiarity of the field of education is that it has wide, stable and strong feedbacks with the macro environment, because it forms a whole generation of specialists who determine the change of this environment in their future activities.

scholars J.M. Evans and B. Berman ³³, strategic planning is increasingly connected with marketing, and in the future, strategic planning may also belong to marketing.

V. Tomilov and T. Khakunov in their work entitled "Marketing concept of forming the optimal structure of organization management" confirm that the use of marketing in the organization's activities fundamentally changes the concept of management, the most important of which is the development of an assortment in accordance with market demand. In the field of determining the goals and tasks of the organization, now it is not the production capabilities that are decisive for it, but its market capabilities are considered important. Thus, marketing plays a key role in the process of corporate strategic planning, which is why there are clear connections between the two disciplines - management and marketing.

Relationship between management and marketing

Table 3

Strategic management processes	Marketing process
environment analysis	analysis of marketing opportunities
miss ya and setting goals	development of marketing strategies
choosing a strategy _	planning marketing programs

³³ DJ R. Evans , B. Berman . Marketing. M.: Ekonomika, 1990, p. 310

implementation of the strategy	managing the company's marketing
control and evaluation of strategy implementation	control over the implementation of the marketing plan

In educational organizations, the goals of marketing planning and the goals of the organization's activities are fully aligned with each other in strategic management, which affects mutual development. therefore, it is important to combine the strategies of "financial well-being" and "globalization", which are the most common combined strategies in education. Therefore, the most preferred but rare combination is the combination of "maximum quality" and "financial well-being" strategies. The desired result can be achieved by ensuring that the strategies of "maximum quality" and "financial well-being" are gradually integrated in the future of the educational organization under the conditions of favorable financial, economic and social development of our country.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. The work of a people with a great intention will be great, their life will be bright and their future will be prosperous.- Tashkent: Uzbekistan, 2019.- 39 p .
2. Lewis Henry Morgan // [Gran Enciclopèdia Catalana](#) (cat.) — Grup Enciclopèdia , 1968.
3. DJ R. Evans, B. Berman. Marketing. M.: Ekonomika, 1990, p. 310
4. Abduganiev O. Developing Student Civil Competency //Eastern European Scientific Journal. - 2019. - No. 1.

**INSON HUQUQLARINING ZAMON TALABLARI DARAJASIDAGI
TARAQQIYOTI – YETUK KADRLAR TAYYORLASHDAGI ULKAN
YUTUQLARINING GAROVIDIR**

***Xoliqov Ishqobil** – tarix fanlari doktori, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitet professori, Ekologiya, tabiat inson xavfsizligi bo‘yicha Xalqaro fanlar Akademiyasining akademigi (MANEB),
Manzarov Yusuf – Qarshi davlat iqtisod va muhandislik instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi,*

Annotatsiya. Maqolada inson huquqlarining zamon talablari darajasidagi taraqqiyoti – yetuk kadrlar tayyorlashdagi yutuqlarining ulkan garovi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, fuqaro, inson huquqlari, kafolat, Konstitutsiyaviy komissiya, Konstitutsiyaviy islohot.

O'zbekiston davlat mustaqilligi va milliy istiqlolga erishuvi xalqimizning buyuk tarixiy yutug'idir. Mustaqillik – ajdodlarimiz bergan mislsiz qurbonlar evaziga qo'lga kiritilgan ulug' ne'mat. Mamlakatimizda mustaqillik Konstitutsiyalarning qabul qilinishi butun Xalqimiz uchun juda katta ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy voqea bo'ldi.

Mamlakatimizning ko'zga ko'ringan yuridik olimlarining fikricha birinchi marta Konstitutsiyamizning dunyoga kelishiga ikki asosiy omil sabab bo'lgan. Bulardan birinchisi jamiyatning bozor munosabatlari tomon tutgan yo'li, ya'ni O'zbekistonning jahon taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlar va yo'nalishlarga muvofiq ravishda dunyo hamjamiyatiga kirib borishi bo'lgan. Ayni paytda, O'zbekiston avval boshdanoq bozorga biron-bir maqsadida emas, balki jamiyatning jadal rivojlanishini ta'minlovchi vosita sifatida qaradi. Bozor munosabatlari Qonunlariga tayangan holda Respublika va xalqning bor, butun imkoniyatlarini ishga solib, zamonaviy madaniyatli-ma'rifatli mamlakatlardan safidan o'z munosib o'rniga erishishni ko'zda tutildi. Konstitutsiya va qonunlarni ko'rib chiqmasdan turib, bozor iqtisodiyotiga o'tishni amalga oshirib bo'lmadi. Chunki, "Konstitutsiya butun qonunchilikni, umurtqa suyagi bo'lib xizmat qilmog'i lozim edi"¹ – degan akademik SH.M.O'razaev.

O'z vaqtida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z taraqqiyoti yo'lini asosan Konstitutsiya belgilab olishi lozimligini qayta-qayta ta'kidlagan edi. "Davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri, - degan edi u, - ko'p jihatdan Konstitutsiyamiz qanday bo'lishiga bog'liq"².

Ma'lumki, har qanday Konstitutsiya muayyan tarixiy davrni, ijtimoiy-siyosiy tuzimni in'kasi, tegishli davlat hokimiyati ijodining mahsulidir. Biron-bir Konstitutsiya abadiylikka, o'zgarmaslikka, mutloqlikka da'vo qilolmaydi. Jamiyat hayoti rivojlanishi, o'zgarishi, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishi bilan eski tuzimning aks ettirgan, uning manfaatlariga xizmat qilgan Konstitutsiya tabiiy ravishda o'zgartirilishiga shart bo'lib qoladi. Konstitutsiya jamiyatdagi o'zgarishlarga mos bo'lsagina, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum hamda davlatchilik mohiyatiga muvofiq kelsagina ijtimoiy-siyosiy tuzum hamda davlatchilik mohiyatiga muvofiq kelsagina o'z funksiyasini muvaffaqiyatli ado etishi mumkin. SHunday qilib, xulosa shundan iboratki, agarda Konstitutsiya jamiyat ehtiyotkorligi, o'ziga yuklatilgan ijtimoiy vazifa talablariga javob bera olmay qolsa, Konstitutsiyaviy islohti kelib chiqadi. Yuqoridagilardan ma'lumki, bizga

¹ Ўразаев Ш.М. Мустақил Ўзбекистон Конституцияси. -Т.: 1993, 11-112-бетлар.

² Каримов И.А. "Ўзбекистон - келажаги буюк давлат". "Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура", 1-том. – Т.: 1995, 124-б.

Yangi Konstitutsiya kerak va zarur edi. SHuning uchun ham mamlakatimiz rahbarining ko'rsatmasiga asosan Yangi Konstitutsiyani qabul qilinishi uchun Konstitutsiyaviy Komissiya tuzildi.

Mazkur komissiya ilg'or Konstitutsiyaviy tajribani o'rganib, puxta o'ylagan holda, bugungi va kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan asosiy Qonunimizni takomillashtirish Konstitutsiyaviy komissiyaning muhim vazifalardan biri bo'ldi. Negaki, jahon amaliyoti islohotlarini izchil amalga oshirishda aynan jamiyat va davlatni modernizatsiya qilishning Konstitutsiyaviy – huquqiy asosini rivojlantirish muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatdi va ko'rsatmoqda.

Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari oldiga yangilanayotgan Konstitutsiya xaqchiligi bilan mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyalari, umuman, yurtimizda xalqimizning ertangi faravon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat yaratish, ayniqsa, "Inson qadri uchun" g'oyasi hamda hozirgi islohotlarning bosh tamoyili bo'lgan "Inson – jamiyat - Davlat" yondashuvini uning mazmuniga chuqur singdirib, amaliy hayotda bosh qadriyatga aylantirish qo'yildi.

Davlatimiz rahbari Konstitutsiyaviy islohotlarning bugungi kundagi zaruriyatiga qisqacha to'xtalar ekan: **"Bugungi kun hamda kelgusida davlat va jamiyatda insonning o'rni, davlat va jamiyat faoliyatidagi ustuvor siyosiy – huquqiy, iqtisodiy – ijtimoiy va ma'naviy tamoiylar, aholi faravonligi hamda jamiyat va davlat taraqqiyotini ta'minlashda Konstitutsiyaviy islohotlarning ahamiyati aniqlab olish davr taqozosi hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, asosiy qonunimizni bugungi hayot talablariga mos holda yangilashni talab etadi"**¹, degandi.

Dunyoda va mamlakatimizda inson huquqlari sohasida ta'lim tizimining taraqqiyoti (yuksalishi), uning inson manfaatlariga xizmat qilishi tabiiy ravishda yurtimizda ulkan ishlarga Kadrlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Mamlakatimiz rahbarining izchillik bilan amaliyotga oshirilayotgan inson huquqlari sohasidagi ta'lim yo'nalishida ishlari xalqimiz tilida va dilida faxr hissini uyg'otmoqda. Asosan so'nggi yillarda O'zbekiston Prezidentining Inson huquqi va erkinliklarini ta'minlash yo'lida taklif etgan ko'plab tashabbuslari ro'yobga chiqqan va chiqmoqda. Xususan, BMT inson huquqlari bo'yicha Kengashi tomonidan 2021 yil 8 oktyabrda Yoshlarning inson huquqlariga COVID pandemiyasi ta'sirining oqibatlari to'g'risidagi rezolyutsiya qabul qilindi. Bugungi kunda mamlakatimizda inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. O'zbekiston parlamenti 2021 yil 7 iyunda Nogironlar huquqlari to'g'risidagi kontseptsiyani ratifikatsiya qildi. Fuqarolarning huquq va

¹ "Янги Конституция" 7 декабрь 2020 йил.

erkinliklarini ta'minlash hamda inson huquqlari bo'yicha Xalqaro Standartlarni Milliy Qonunchilik va huquqini qo'llash amaliyotida amalga oshirish xalq uchun faravon va munosib turmush sharoitini yaratishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarning asosiy mezoniga aylandi.

Mamlakatimiz Prezidentining tashabbusi bilan Inson huquqlari bo'yicha ta'lim normalari ko'plab Xalqaro hujjatlarga kiritilgan. Xususan, 2011 yil dekabr oyida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan BMTning inson huquqlari bo'yicha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Deklaratsiyasi Qabul qilingan. Deklaratsiya BMTga a'zo davlatlarga inson huquqlari bo'yicha ta'lim va tarbiyani ta'minlash mas'uliyatini yuklaydi. Mazkur deklaratsiyaga muvofiq: jamiyatning har bir a'zosi ta'lim olish va o'qitish orqali inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishga ko'maklashishi lozim; har bir inson ta'lim olish huquqiga ega va ta'lim inson ikkisini hartomonlama rivojlantirishga, qadr-qimmatini his etishga barcha kishilarga erkin jamiyatning foydali ishtirokchilari bo'lishiga, barcha millatlar, irqiy, etnik yoki diniy guruhlar o'rtasida o'zaro tushunish, bag'rikenglik va do'stlikni rivojlantirishga ega bo'lishi kerak va boshqalar.

Xullas, Inson huquqlari bo'yicha ta'lim va tarbiya barcha insonlar, ayniqsa yoshlarni keng qamrab oladigan hayotiy jarayondir. Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiya ana shu ezgu maqsadlarni global ko'lamda amalga oshirishga qaratilgan. Bir so'z bilan aytganda, inson huquqi sohalariga jahon ta'lim dasturi – doimiy amalga oshiriladigan uzluksiz bosqichdan iborat tashabbus. Ushbu jarayon bilan hayotimizning barcha sohalarini keng qamrab olishga ko'maklashish uchun davlatlar inson huquqlari bo'yicha ta'limni boshlang'ich va o'rta maktab, oliy ta'lim tizimida, o'qituvchi va targ'ibotchilar, davlat xizmati, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va harbiylar, shuningdek ommaviy axborot vositalari vakillari o'rtasida singdirib borish taqozo etiladi.

Tabiiyki, BMT va boshqa miqyosdagi ta'lim va tarbiya ishlarining yaxshi yo'lga qo'yilishida O'zbekistonning salmoqli ulushi borligidan quvonamiz. Chunki mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish bilan bog'liq islohotlar sharoitida "Inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – eng muhim qadriyat tamoyili e'tirof etilmoqda. SHu bois yillar davomida amal qilib kelgan Davlat – Jamiyat - Inson" tamoyili Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Inson – Jamiyat – Davlat tamoyiliga o'zgartirildi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ta'limning o'ziga xos sohasi hisoblanuvchi inson huquqlari bo'yicha ta'limni izchil rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Bunday ta'lim barchaning, o'z navbatida, ta'limning o'ziga xos sohasi hisoblanuvchi Inson huquqlari bo'yicha ta'limni izchil rivojlantirishni taqozo qiladi. Bunday ta'lim

barchaning inson huquqlariga nisbatan hurmatini rivojlantirish va unga har tomonlama rioya etilishini ta'minlashda birlamchi ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi yillarda inson huquqlari sohasida, jumladan, ushbu yo'nalishdagi ta'limni takomillashtirish borasida salmoqli ishlar oshirilganini ta'kidlash zarur. Inson huquqlari sohasidagi ta'lim O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari madaniyatini shakllantirishga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Oliy Majlis tomonidan 2019 yilda BMTning inson huquqlari sohasidagi ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiya qoidalarini amalga oshirish bo'yicha Milliy Harakat dasturi qabul qilindi. Parlamentimiz vakillari kengashlarida mazkur Milliy Harakatlar dasturi qabul qilindi va amalga oshdi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Strategiyasi doirasida Oliy ta'lim muassasalari uchun inson huquqlari bo'yicha o'quv kurslari joriy etish vazifasi berilgan edi. Bu ishlar izchil davom etmoqda.

Prezidentimizning 2021 yil 7 iyundagi farmoyishiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha Milliy Komissiya tashkil etildi. Bunda ko'zlangan maqsad, barcha uchun universal bo'lgan huquqni himoya qilish Normalari va printsiplari, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishning Xalqaro kafolatlari to'g'risidagi xabardorlikka, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini yanada oshirish edi¹.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Strategiyasi va uning "Yo'l xaritasi" Prezidentimizning 2020 yil 22 iyundagi farmoni bilan tasdiqlandi. Inson huquqlari sohasida uzoq muddatli strategiyaning qabul qilinishi, shubhasiz, ayni sohada davlat siyosati samarali amalga oshirilgan, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishga, mamlakatimizning Xalqaro maydondagi obro'si yanada mustahkamlanishiga, shu jumladan, Xalqaro iqtisodiy va siyosiy-huquqiy reytingi hamda indekslarda O'zbekiston yanada yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Ushbu hujjatning ahamiyyati haqida fikr yuritganda, xususan, Milliy strategiyasi doirasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliklariga Oliy ta'lim muassasalarida kadrlar, jumladan sud'byalar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash o'quv markazlarida, shuningdek, maktabgacha va umumta'lim muassasalarida, akademik litsey va kollejlarda maxsus o'quv kurslarini joriy etish bo'yicha vazifa yuklatilganligini aloxida qayd etish o'rinlidir.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 martdagi "Davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish chora-tadbirlari

¹ Янги Ўзбекистон, 24 ноябрь 2022 йил.

to‘g‘risida”gi qarorlariga asosan, davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligi darajasini oshirish va baholash tartibi to‘g‘risidagi nizom qabul qilingan. Nizomga muvofiq, davlat tashkilotlari xodimlarining huquqiy savodxonligiga oid o‘quv dasturlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari materiallari elektron platforma orqali mustaqil o‘zlashtirilib boriladi va har 3 yilda bir marta ularning huquqiy savodxonligi darajasi baholanadi.

Bu borada Vazirlar Mahkamasini 2020 yil 16 maydagi qarori bilan 2020-2023 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Eng muhimi, Prezidentimizning 2020 yil 29 aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fani tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga asosan, Toshkent davlat yuridik universitetining mustaqil faoliyat olib borishini ta’minlash, shuningdek, fanlar akademiyasi tizimida Davlat va Huquq instituti, Namangan, Samarqand va Termiz davlat universitetlarida yuridik fakul’tetlar tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar amalda tadbiq etilmoqda. SHu nuqtai nazardan, Prezidentimiz qarori Milliy Strategiya doirasidagi barcha chora-tadbirlar ijrosini jadallashtirish va samarali yakuniga yetkazish uchun muhim dasturilamaldir.

Bulardan tashqari Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 oktyabrdagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazi huzurida inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilish sohasida kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori ijrosiga e’tibor bersak bo‘ladi. Chunki shu qarorga asosan, Milliy Markaz huzurida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari xodimlari uchun “Inson huquqlari”ga rioya etish va uni himoya qilish sohasida kadrlar malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslari tashkil qilingan.

Mamlakatimizda yuqori kadrlar (fan nomzodlari, fan doktorlari) masalasida ulkan ijodiy ishlar amalga oshmoqda. Masalan 2021 yil 9 dekabrda Milliy markaz, Bosh prokuratura Akademiyasi, jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent davlat yuridik universitetlarini birlashtirgan inson huquqlari sohasida Xalqaro magistrlik dasturi bo‘yicha Oliy o‘quv yurtlari konsortsiumi tashkil etildi¹.

Bosh prokuratura Akademiyasida “Inson huquqlari bo‘yicha Xalqaro huquq” magistr yo‘nalishi ochildi. Bundan tashqari Oliy attestatsiya komissiyaning qarori bilan “Oliy toifali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar ro‘yxat”ga 12.00.13 – “Inson huquqlari” (yuristprezidentsiya fanlari bo‘yicha huquq va sotsiologiya) mutaxassisligi kiritildi. Milliy markazda fan doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD)

¹ “Янги Ўзбекистон” газетаси, 9 февраль 2023 йил.

Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari
2023 yil 6 dekabr

darajalarini beruvchi Ilmiy kengash faoliyat olib bormoqda. Inson huquqlari sohasidagi sifatli ta'limni amalga oshirishda Respublika huquqiy Milliy markazining xizmati taxsinga sazovordir. Ularning bir nechta keng jamoatchilik bilishi sinab o'tish maqsadga muvofiqdir: Milliy markaz sa'y-harakatlari bilan 2021 yil 10-11 dekabr kunlari gibrid formatda "Inson huquqlari" sohasida ta'lim: "Xalqaro tajriba va Milliy amaliyot" mavzusida Xalqaro konferentsiya tashkil etildi. Ushbu Xalqaro konferentsiya 10 dekabr – Xalqaro inson huquqlari kuni hamda BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiya qabul qilinganligining 10 yilligiga bag'ishlandi. SHuningdek, "Inson huquqlari: parlament a'zolari", "Parlament va barqaror rivojlanish maqsadlari" qo'llanmalari o'zbek tilida nashr etilib, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolariga taqdim etilgan.

Mamlakatimizda ilk bor Brayl alifbosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Nogironlarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning rasmiy matni nashr etildi. Faqatgina bir yil – 2022 yilda Markaz tomonidan inson huquqlari bo'yicha Xalqaro majburiyatlarga rioya etish masalalariga bag'ishlangan 40 dan ortiq amaliy qo'llanma, sharh va uslubiy adabiyotlar nashr etildi hamda 80 dan ziyod davlat va nodavlat, notijorat tashkilotlariga tarqatildi. SHuningdek, turli yo'nalish va bosqichdagi ta'lim muassasalari uchun "Inson huquqlari" fani bo'yicha o'quv dasturlari tayyorlangan.

2020 yildan boshlab ilk bor tashkil etilgan "Insonlar huquqlari sohasida ta'lim va tadqiqotlar" mavzusida tanlov o'tkazilib kelmoqda. Prezident Qaroriga muvofiq 2023 yil 1 iyundan boshlab har yili 1 iyun "Inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi ta'lim va innovatsiyalar" milliy tanlovni o'tkazish an'anaga aylanib bormoqda.

Davlatimiz rahbari jahon ahamiyatiga molik bo'lgan ta'lim va tarbiya masalasiga katta e'tibor berib kelmoqda. SHu maqsadda "Inson huquqlari sohasida ta'lim" to'g'risida global forum o'tkazish taklifi bilan BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasi hamda inson huquqlari bo'yicha Kengashning 46-sessiyasida taklif bilan chiqqan edi.

Mazkur tashabbus asosida inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkilotchiligida o'tkazilgan forum BMT inson huquqlari bo'yicha Oliy komissiya boshqarmasi, inson Oliy komissiyaning Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy byurosi, BMTning mamlakatimizdagi vakolatxonasi, yunisef, Yevropada xavsizlik va hamkorlik tashkiloti Demokratik institutlari va inson huquqlari bo'yicha byurosi, YeXH ning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchi ofisi, Yevropa Kengashi, Fridrik Ebert jamg'armasi bilan hamkorlikda 2022 yilning 5-6 dekabr kunlari Samarqand shahrida inson huquqlari

bo‘yicha ta’limni rivojlantirish masalalarini muhokama qilish maqsadida “Inson huquqlari sohasida ta’lim global forumi tashkil etildi”¹.

Forumda BMTning Inson huquqlari sohasida ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi deklaratsiyasi hamda BMTning inson huquqlari bo‘yicha jahon ta’lim dasturini amalga oshirishning oraliq natijalari sarhisob qilindi. Bu sohadagi ilg‘or tajriba, amaliyot va innovatsion yondashuvning taqdimoti tashkil etildi. Inson huquqlari sohasidagi ta’lim va tarbiya ta’limni Xalqaro, mintaqaviy va milliy darajada takomillashtirish bo‘yicha fikr almashildi va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Global forumda 120 dan ortiq Xalqaro ekspert va 200 dan ortiq milliy tashkilot vakilari ishtirok etdi. SHuningdek, inson huquqlari bo‘yicha ta’lim bo‘yicha adabiyotlar ko‘rgazmasida inson huquqlriga bag‘ishlangan 250 ga yaqin nomdagi mingdan ortiq kitob va amaliy jurnallar namoyish etildi.

Global forumning yakuniy hujjati – markaziy Osiyoda inson huquqlari sohasida ta’limni rivojlantirish bo‘yicha Samarqand harakatlar rejasi qabul qilindi.

O‘zbekiston bu boradagi chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish Prezidentimizning 2021 yil 7 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta’lim dasturining to‘rtinchi bosqichini amalga oshirish bo‘yicha Milliy komissiyani tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoyishiga muhim dasturilamal bo‘ldi. SHu hujjat asosida Xalqaro shartnomalar va standartlar normalarini, BMTning huquqni himoya qiluvchi tuzilmalar tavsiyalari, shuningdek, o‘zbek jamiyatining tarixiy, milliy va madaniy qadriyatlarini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturini ishlab chiqish nazarda tutildi. 2023 yilning 15 fevralida Prezident qarori bilan mazkur Milliy ta’lim dasturi va uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.¹

Davlatimiz rahbari tasdiqlagan O‘zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta’lim dasturida quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

1. 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab professional va oliy ta’lim tizimida “Inson huquqlari”, “Ayollar huquqlari”, “Bolalar huquqlari” bo‘yicha o‘quv va maxsus kurslar joriy etila boshlandi, shuningdek, turkum qo‘llanma va risolalar tayyorlanib, chop etiladi va shu asosda seminar – treninglar o‘tkazilmoqda.

2. Rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida inson huquqlari va gender tengligi bo‘yicha o‘quv kurslari joriy qilindi.

3. Inson huquqlari sohasida ta’lim olish bo‘yicha elektron platforma yaratildi va ushbu platforma orqali o‘quv kurslari va seminar – treninglar “onlayn” o‘tkazish mumkin bo‘ladi.

¹ Янги Ўзбекистон, 9 февраль 2023 йил.

4. Inson huquqlari va erkinliklari sohasida “Ta’lim va innovatsiyalar” Milliy ta’lim o’tkazish ko’zda tutilgan va boshqalar. Yuqorida ta’kidlaganimizdek Inson huquqlarining zamon talablari darajasidagi taraqqiyot – mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy yuksalishining kafolatiga aylanmoqda.

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA O’QUVCHI YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH OMILLARI

D.YU.Xodjayeva

*TDPUMa’naviyat asoslari va
huquq ta’limi kafedrasi dotsenti, f.f.n*

Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo’lib kelgan. Ammo, biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda³⁴. Shu bois, mamlakatimizda “mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash”³⁵ hozirda o’z dolzarligini yanada oshirib borayotgan masalalar sirasiga kiradi.

Ma’lumki, jamiyatimizning ko’pchilik qismini aynan 30 yoshgacha bo’lgan yoshlar qatlami tashkil etadi. Bugungi kunda yoshlarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning qalbida milliy g’oyaga sodiqlik, milliy o’zlikni anglash, Vatanga muhabbat va fidoyilik, bag’rikenglik hissini qaror toptirish va rivojlantirish bugungi ijtimoiy siyosatimizning dolzarb masallaridan hisoblanadi. Negaki, jamiyatning yosh qatlamini barkamol shaxs, ma’naviyatli va fidoyi qilib tarbiyalash ijtimoiy islohotlar markazida turadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og’ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko’taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va

³⁴ Mirziyoev SH. Jismoniy va ma’naviy yetuk yoshlar – ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir / «Xalq so’zi» 2017 yil 1 iyul.

³⁵ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida»gi PF-4947-sonli Farmoni //O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

imkoniyatlarini safarbar etamiz”³⁶, deya qat’iy fikr bildirgani e’tiborlidir. Shunga muvofiq yoshlarga oid davlat siyosatini jamiyatning barcha qatlamlariga integratsiyalasha oladigan tarzda amalga oshirish modelini ishlab chiqish unda qo’llaniladigan mexanizm va texnologiyalarni takomillashtirish bilan bog’liq ilmiy va amaliy ishlanmalarni tadqiq etish vazifasi dolzarb ahamiyatga ega³⁷.

Zero, yoshlarga oid davlat siyosati to’liq amalga oshishida davlat tashkilotlari bilan bir ravishda nodavlat tashkilotlar, xususan, fuqarorlik jamiyati institutlaring ham o’rni borligini unutmash kerak.

Bulardan tashqari, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va yangi sifat bosqichiga ko’tarish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilda “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi Farmoni³⁸ ning qabul qilinadi. Unda bevosita yoshlarni birlashtiruvchi, yuksak ezgu maqsadlar sari safarbar etuvchi ittifoqning jamiyatdagi o’rnini oshirish va moddiy hamda ma’naviy qo’llab-quvvatlashni ustuvor vazifalar ilgari suriladi. O’zbekiston Yoshlar ittifoqi yoshlar o’rtasida sog’lom turmush tarzi va oila muqaddasligi g’oyalarini keng targ’ib qilish, erta turmush qurish va yosh oilalar ajralishining oldini olishga qaratilgan samarali tadbirlarni amalga oshirishda faollik ko’rsatishi belgilandi³⁹. Bundan ko’rinadi, mamlakatimizda lib borilayotgan ijtimoiy islohotlarning debachasida avvalo yoshlar va ularning tashabbuskorligi masalalari, ularning ijtimoiy hayotidagi o’garishlar, milliy qadriyatlarining davomchilari sifatidagi axloqi masalalar amaliy ishlar orqali olib borilishi zarurligi muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, innovatsion tafakkur tarziga ega bo’lib borishlari ko’p jihatdan ularning bilim va ko’nikmalarga, maqsad va harakatlari, intilish va tashabbuslariga bog’liq bo’ladi. Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab bergan “2017 – 2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi”da asoslangan umummilliy qadriyatlarimiz ta’lim-tarbiya bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirokini ta’minlash yo’lida samarali natijalar berishni boshladi.

³⁶ Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O’zbekiston, 2016. –B. 14.

³⁷ Xidirov F. Mahalliy boshqaruvda yoshlar siyosati bo’yicha faoliyatni tizimli tashkil etish texnologiyalari (qashqadaryo viloyati misolida)/ magistrlik diss. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. –T.: 2020. B 3.

³⁸ Qarang: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O’zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo’llab-quvvatlash to’g’risida”gi PF-5106-son Farmoni. //O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: [Elektron manba] Lex.uz.

³⁹ Qarang: Fidoying bo’lgaymiz seni, O’zbekiston! [Matn]: Mualliflar jamoasi. o’quv qo’llanma/ Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi. –T.: «Ma’naviyat», 2017. B 168.

Yoshlarni tashabbuskor, uzoqni koʻzlaydigan, bilimli va malakali qilib tarbiyalash asnosida ularning shuurini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan toʻyintirish – oldimizdagi muhim vazifa. Bogʻchadan boshlab oliy oʻquv yurtigacha – taʼlimning barcha boʻgʻinlari isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda buni hisobga olgan maqsadga muvofiq.

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni oʻzlashtirish, chinakam maʼrifat va yuksak madaniyat egasi boʻlish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak⁴⁰. Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturlari oʻquvchilarda yoshiga mos tayanch maʼnaviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lar — Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, masʼuliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik shakllantirilishi belgilb berilgan⁴¹.

Umumtaʼlim maktablarining oʻrta va yuqori sinflari oʻquvchilarini maʼnaviy-axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalashda inobatga olinishi lozim boʻlgan jihatlar:

oʻsmirlik yoshiga xos ichki pozitsiyaning paydo boʻlishi;
irodaviy sifatlarning namoyon boʻlishi;
ijtimoiy faollik, bilishga intilish va oʻzini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;

faoliyat va muloqot mazmunini belgilovchi shaxsiy qadriyatlar tizimining shakllanishi;

shaxslararo munosabatlarning differensiallashuvi, referent guruhlarining paydo boʻlishi;

fuqarolik pozitsiyasi, oʻzi va atrofdagilarga hamda jamiyatga munosabat asoslarining shakllanishi;

milliy qadriyatlar, anʼanalarga hurmatning namoyon boʻlishi;

oʻzini-oʻzi tarbiyalash va shaxsiy sifatlarning rivojlanishi;

oʻz muammolarini oʻzi mustaqil hal qilishga intilish;

xavfsiz hayot madaniyati boʻyicha bilim va koʻnikmalarning namoyon boʻlishi;

axloqiy, siyosiy dunyoqarash va diniy eʼtiqodning shakllanishi;

pozitiv ijtimoiy moʻljallarning oydinlashuvi va ularga erishish yoʻlidagi intilishlar;

maʼnaviy-axloqiy prinsiplarning qatʼiylashuvi;

ichki his-tuygʻularga eʼtiborning oshishi, emotsional munosabatlarning tanlov asosida namoyon boʻlishi;

⁴⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 yil 24 yanvar

⁴¹ Uzluksiz maʼnaviy tarbiya kontseptsiyasi. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz maʼnaviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi 1059-son qarori

mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiya va fazilatlarning odatlarga aylantirishni belgilab berilgan.⁴²

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan Tarbiya fani davlat ta'lim standartiga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchisiga quyidagi ko'nikmalar shakllantirilishiga e'tibor qaratildi: hislarini anglaydi va nazorat qila oladi; pul topish ko'nikmalari shakllanadi; kasb tanlash to'g'risida qaror qabul qila oladi;

biznes va tadbirkorli g'oyalarini ilgari sura oladi; kreativ sifatlarini namoyon qiladi;

oilaviy qadriyatlarning mohiyatini anglaydi; sog'lom fikrga ega bo'ladi, muammolarni yecha oladi; Vatan oldidagi huquq, burch va majburiyatlarini biladi, amal qiladi;

kommunikativlik, liderlik qobiliyatini namoyon qiladi; maqsadlarini amalga oshirish uchun ilmiy, fuqarolik savodxonligini namoyon qiladi; faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'ladi; ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo'ladi; axborot bilan ishlash ko'nikmasi shakllanadi; muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorligini namoyon qila oladi⁴³.

O'zbekiston ta'lim tizimida yangicha yondashuv va rivojlangan davlatlar tajribasi asosida joriy etilayotgan "Tarbiya" fanini o'qitishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarda insoniy fazilatlar va zarur ko'nikmalarni shakllantirish orqali ularni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashni maqsad qilib qo'ygan.

Tarbiya fani o'quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko'maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o'zlarining intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar
2. 2019-yil 12-oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2019-yil 23-avgust kuni bo'lib o'tgan 34-sonli yig'ilish

⁴² Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori

⁴³ "Tarbiya" fani uchun umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risidagi XTVning 235-son buyrug'i.

3. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarori

5. Quronov M. Milliy tarbiya. , Ma'naviyat 2007-yil.

6. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin desangiz..., tarbiya kitobi. Ma'naviyat, 2014-yil

7. [https:// t.me/edurtm_uz/](https://t.me/edurtm_uz/)

8. [http:// tarbiyam.perepost.uz/](http://tarbiyam.perepost.uz/)

MAMLAKATIMIZDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA KONSTITUTSIYANING O'RNI

Ilhomov Z

TDPU professori, tarix fanlari nomzodi

O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ko'p millatli mamlakatda millatlararo hamjihatlik qaror topmasa, tajovuzkor millatchilik va shovinizm g'oyalari tarqalishi uchun qulay vaziyat yaratiladi. Shuni e'tiborga olib, mamlakatimizda bu muammo ilmiy xolisona hal qilinmoqda. Millatlar o'rtasida mojarolarga yo'l qo'ymaslik uchun: etnik siyosatda shaxs huquqlari himoya qilinishining ustuvor bo'lishini, mamlakatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda hal qiladigan usullarga asoslanishi bosh yo'limiz ekanligiga, bozor munosabatlarini iqtisodiy taraqqiyotda barcha millatlarga mansub aholining manfaatlariga mos kelishiga, har bir millat madaniyati, tili, urf-odat va an'analari, madaniy merosini rivojlanitirib berishlariga alohida ahamiyat berilmoqda. Zero, har qanday polietnik davlatda turli millatlar o'rtasidagi munosabatlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratuvchi omillardan hisoblanadi.

O'z o'rnida millatlararo totuvlik tamoyili mamlakatimizda yashayotgan har bir millatning bir-birini kamsitmagan holda o'z milliy an'analarga sodiq qolishini, bir-biri bilan do'stona munosabatda bo'lishini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va

an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”(4-modda 2-bandi), yoki “O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi” (8-modda) .

Yana Konstitutsiyamizning 19-moddasida “barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, dini ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida tengdir”, - degan qoida ham mustahkamlab qo‘yilgan.

E’tibor berilsa, mazkur qoidada mamlakatimiz barcha fuqarolarining his-tuyg‘ulariga daxldor bo‘lgan bir qator umumbashariy tamoyillar belgilab qo‘yilganiga ishonch hosil qilish mumkin:

Avvalo, fuqarolarning milliy mansubliklaridan qat’iy nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan, qolaversa, fuqarolarning diniy, e’tiqodiy farqlaridan qat’iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi ta’kidlangan. Shuningdek, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan.

Asosiy Qonunimiz yurtimizda hukm surayotgan tinchlik, barqarorlik hamda millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglikning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv va ahil-inoq bo‘lib yashab, mehnat qilib kelayotganligi buning yorqin misolidir.

Hech ikkilanmay aytish mumkinki, Asosiy qonunimiz ko‘plab demokratik davlatlarda Konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg‘or tajribaning eng yaxshi jihatlari, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining umume’tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro hujjatlarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta’minlash va himoya qilish mexanizmini o‘zida mujassam etgan.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz Konstitutsiyasi xalqimiz manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga qodir, umume’tirof etilgan demokratik qadriyatlarga to‘la javob beradigan, jamiyatda adolatni qaror toptirishga xizmat qiladigan asosiy hujjat ekanini to‘la isbotladi.

Qonun ustuvorligining asosiy mezonini bo‘lgan Asosiy Qomusimizning har bir moddasida inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlash, Vatan ravnaqi hamda jamiyat rivojiga xizmat qilib kelayotgan umumbashariy g‘oyalar singdirilgan. Jumladan, Bosh Qomusimiz –O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy maqsadi va tamoyili har bir fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlarini ta’minlashga qaratilgani e’tiborga molikdir. Qolaversa, Konstitutsiyamiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qoidalariga uyg‘unligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zosi sifatida o‘z Milliy Qomusini qabul qilishi bilan inson huquqlariga, demokratiya va

ijtimoiy adolat g'oyalariga sadoqatli ekanligini kafolatladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq inson huquqlari va erkinliklari oliy qadriyat sifatida uning asosiy tamoyillarida va milliy qonunchiligimizda ham o'z ifodasini topdi.

Insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishda Konstitutsiyamizning alohida o'rni bor. O'zbekistonda inson huquqlari va manfaatlarini davlat manfaatlaridan, tegishli xalqaro huquq normalari esa milliy huquqiy meyorlardan ustunligini Milliy Qomusimizning muqaddimasidagi:

inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib;

xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda kabi tamoyillaridan anglash mumkin.

Konstitutsiyamizning 13-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi".

Mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonun hujjatlari orqali huquqiy himoya qilinadi. Bundan tashqari, Konstitutsiyamizning 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar, deb mustahkamlangan.

Mazkur qoida mamlakatimiz barcha qonunlarida ham to'la to'kis o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 5-moddasi 1-bandida "Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi" deb qat'iy belgilab qo'yilganligi fikrimizning dalilidir[2].

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mamlakatimizda barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emasligi huquqiy jihatdan mustahkamlangan.

Shunday ekan, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning Konstitutsiyaviy kafolatlari jamiyatni yangilash va mamlakatni modernizatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarni yanada jadallashtirish ishlarining muhim asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyamiz tarixiy ahamiyatga ega beqiyos hujjat bo‘lib, unda suveren davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim asoslari, inson huquqlariga, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat, fuqarolar tinchligi hamda millatlararo totuvlikni ta’minlashga oid tamoyillar mustahkam o‘rin olgan. Eng muhimi, uning qoidalari mamlakatimizda bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy islohotlar sari keng yo‘l ochdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi -T.: O‘zbekiston 2020 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.Ta’lim to‘g‘risida// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.

O‘ZBEKISTONDA ODIL SUDLOVNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

Nigmanova U.B.

*TDP U dotsenti, pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori, (Ph.D)*

Mamlakatimizda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta’minlash hamda odil sudlovga erishish darajasini oshirish – sud-huquq tizimini isloh qilish borasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi davrga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sud tizimini demokratlashtirish hamda fuqarolarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish, zaruratidan kelib chiqib, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish, fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini oshirish vazifasi belgilandi. Bu chuqur ramziy ma’noga ega. Chunki, sud hokimiyati davlat hokimiyatining alohida mustaqil tarmog‘i bo‘lib, u jamiyat hayotida odil sudlovni amalga oshirishga safarbar etilgan. Odil sudlov o‘z mohiyatiga ko‘ra, davlat faoliyati hisoblanadi,

bunda vakolatli sud muassasasi huquq normalari talablarini buzish oqibatida kelib chiquvchi nizoli holatlarni muhokama etib, tegishli huquqiy yechim topadi. Ijtimoiy huquqiy davlatda qonun davlat idoralari, fuqarolarning turli-tuman uyushmalari va alohida shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning mezonidir. Mazkur munosabatlarning qonun doirasida kechishini va hal etilishini ta'minlash esa sud hokimiyati zimmasiga yuklatilgan. **Odil sudlovning oliy maqsadi:** – kuch va zo'ravonlik g'oyasini – huquq va adolat g'oyalari bilan almashtirishdan iborat. Demokratik jamiyatda sud davlat hokimiyatining to'laqonli, teng huquqli subyektidir. **Sud** – adolat, adliya etuvchi ijtimoiy institut. Sud – insoniyat aql zakovatining butun sivilizatsiya tarixi davomida yaratgan eng nodir buyuk yutug'idir. Zero, sud ijtimoiy nizolarni o'rnatilgan qonun-qoidalar asosida xolis va oshkora muhokama tarzida hal etishni ta'minlaydi. Sud – qonuniylik va huquqiy tartibotni o'rnatishning o'ta nozik sayqal topgan, eng takomiliga yetgan vositasidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida alohida urg'u berib ta'kidlaganidek, "Sudlarning asosiy vazifasi adolatni qaror toptirishdan iborat. Buning uchun sud har bir ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli qaror chiqarishi lozim".

Sud hokimiyatining maqomini konstitutsiyaviy tartibga solish masalalari doirasini shunday belgilash mumkin:

- 1) qonuniylikni muhofaza etish sohasida sud hokimiyatining ustuvorligi va oliyligi;
- 2) sudlarning tuzilishi prinsiplari va sudyalarning maqomi;
- 3) demokratik odil sudlov asoslari – sudlarning faoliyat prinsiplari;
- 4) odil sudlov sohasida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlari.

O'zbekistonda real sud hokimiyati keng qo'lamli chuqur sud-huquqiy islohoti natijasida qaror topmoqda. Ushbu islohotning bosh maqsadi sudning mustaqilligini ta'minlashdan iboratdir. Davlatimiz rahbari haqqoniy ta'kidlaganidek, sudlarning adolatli faoliyat yuritishi ularning chinakam mustaqilligi bilan chambarchas bog'liq. Sud hokimiyati va sudyalarning mustaqilligi odil sudlovning xolisligi va adolatlilikini ta'minlovchi muhim prinsiplardan biridir. Konstitutsiyaning 136-moddasi va "Sudlar to'g'risida"gi qonunning 9-moddasiga binoan, sudyalar mustaqildirlar, ular faqat qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalarning faqat qonunga bo'ysunishining ma'nosi shuki, sudyalar o'zlariga qonun bilan berilgan vakolat doirasida ish yuritadilar va har bir masalani qonunga muvofiq hal etadilar. Basharti, sud ish ko'rayotgan vaqtda davlat organi yoki boshqa idora hujjatining qonunga nomuvofiqligini aniqlasa, o'z qarorini faqat

qonunga asoslanib chiqaradi. Ushbu konstitutsiyaviy qoida davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning har qanday hujjatlariga nisbatan tatbiq qilinadi.

Sud hokimiyati va sudyalarning mustaqilligining kafolatlaridan yana biri – sudyalarning **daxlsizligi** ta'minlanishidir. BMT Bosh Assambleyasining 1985 yil 13 dekabrda 40/146-sonli rezolyutsiyasi bilan ma'qullangan "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" (ayniqsa uning 16, 17 – 20-moddalari) sudyalarning daxlsizligi talablarini mustahkamlagan. Ushbu hujjatni sud organlarining o'ziga xos konstitutsiyasi, deyish mumkin. Zero, mustaqil va holis sudni talab qilish har bir insonning huquqi hisoblanadi va bu Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasiga mos keladi.

Har kimning sud himoyasida bo'lish huquqi hozirgi zamon adolatli va xolis odil sudlov konsepsiyasining asosini tashkil etadi. Bu prinsip haqida «Sudlar to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonunning 14-moddasida quyidagilar mustahkamlangan:

«O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar davlat organlari va boshqa organlarning, mansabdor shaxslarning har qanday g'ayriqonuniy xatti-harakatlaridan (qarorlaridan), shuningdek hayoti va sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmati, shaxsiy erkinligi va mulki, boshqa huquq va erkinliklariga tajovuzlardan sud himoyasida bo'lish huquqiga ega. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ham sud himoyasida bo'lish huquqiga ega».

Fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida sud muhokamasining barcha bosqichlarida va qonun hujjatlarini qo'llash amaliyoti to'g'risidagi masalalar sudlar tomonidan ko'rilayotganida prokuror ishtirok etishi mumkin.

So'nggi yillarda fuqarolarning sud orqali himoyalaniş kafolatlari jiddiy tarzda kuchaytirildi, ushbu kafolatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishni ta'minlash bo'yicha katta ko'lamdagi qonunchilik tadbirlari amalga oshirildi. Aynan ushbu davrda kassatsiya instansiyasi isloh qilinib, sud ishlarini qayta ko'rishning apellyatsiya tartibi joriy etilgani ham muhim yangilik bo'ldi. Mazkur o'zgarishlarga muvofiq, endilikda apellyatsiya instansiyasi ishni yangitdan ko'rib chiqishga yubormasdan, uni o'zi to'la hajmda ko'rib chiqishi mumkin».

Odil sudlovning yana bir konstitutsiyaviy prinsipi – sud ishlarini yuritishning oshkoraligidir. Hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi (Konstitutsiyaning 137-moddasi). Demak, aksariyat hollarda sud jarayonlari ochiq o'tkaziladi. Ularda tomonlarning vakillari, sudlanuvchilarning qarindosh-urug'lari,

yaqinlari, istagan fuqarolar, jamoatchilik vakillari, ommaviy axborot vositalarining muxbirlari, jurnalistlar ishtirok etishlari mumkin. Ommaviy axborot vositalari o'z xabarlarida muayyan ish yuzasidan sud muhokamasi natijalarini oldindan o'zicha hal qilib qo'yishga yoki sudga boshqacha tarzda ta'sir etishga haqli emas (9-modda).

Qonunda nazarda tutilgan hollarda, masalan, davlat siri yoki harbiy sirlar bilan bog'liq ishlarda, jabrlanuvchining sha'ni va oriyatini muhofazalash manfaatlaridan kelib chiqib, sud ishni keng jamoatchilik ishtirokidan xoli ko'rishni lozim topishi mumkin. Jinoyat ishi jinsiy jinoyat bilan bog'liq hollarda ham ish yopiq ko'riladi. Yopiq sud majlisiga, sud ajrimiga binoan, 18 yoshga yetmagan shaxslar taklif qilinmaydi.

Konstitutsiya sud hujjatlarining majburiyligi prinsipini mustahkamlaydi. «Sud hokimiyati chiqargan hujjatlar, – deyiladi Asosiy qonunning 138-moddasida, – barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Ular O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart».

Odil sudlovni amalga oshirishda til to'g'risidagi konstitutsiyaviy prinsip katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 139-moddasida belgilanishicha, O'zbekistonda sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borayotgan tilni bilmaydigan sud ishtirokchilarining tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 28-moddasida ko'rsatilishicha, odil sudlovning muhim prinsiplaridan yana biri – aybsizlik prezumtsiyasi. **Aybsizlik prezumtsiyasi** – shaxsning aybi qonunda belgilangan tartibda va tegishli organlar tomonidan tasdiqlanmagunicha, uning aybsiz hisoblanishidir. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, aybi aniqlanmagunicha, u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi. Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak. Qonunni qo'llash jarayonida yuzaga keladigan shubhalar ham gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishga majbur emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Hech bir shaxs o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas.

Ozodlikdan mahrum etilgan barcha shaxslarga nisbatan insoniy munosabatda bo'linishi va ularning shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilinishi kerak. Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lmasligi kerak. Ushbu prinsipga amal qilinishi sud organlarining jazo to'g'risida hukm chiqarishlaridan oldin aynan shu shaxsning aybi bor yoki yo'qligini aniqlashga yordam beradi.

Dastlabki tekshirish organi jinoyat sodir etgan shaxsga ayb e'lon qilishda, uning ushbu jinoyatni sodir qilishdagi aybdorligini (aybsizligini) albatta isbot qilib berishga majbur, chunki ayblanuvchi aybsizlik prezumpsiyasiga ko'ra, sudning chiqargan ayblov hukmi qonuniy kuchga kirmaguniga qadar aybdor deb hisoblanmaydi. Ayblanuvchi o'zining aybsizligini isbot qilib berishga majbur emas. Jinoyat sodir etgan shaxsning aybdorligini isbotlash majburiyati tergovchi, surishtiruvchi, prokuror va sudga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir kishining himoya huquqi kafolatlanadi. Qoidaga ko'ra, shaxsning ushbu huquqi advokatlar orqali amalga oshiriladi. Advokat har bir huquqiy masala yuzasidan malakali yordam berib, jinoiy, ma'muriy, iqtisodiy va fuqaroviy sud ishlarida ishtirok etadi va ularga murojaat qilgan shaxslarning manfaatini himoya qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «Sudlar to'g'risida»gi qonunida hech qanday shaxs qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi ta'kidlangan.

Fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi prinsipi ham konstitutsiyaviy prinsiplar qatoriga kiradi. Fuqarolarning qonun oldida tengligi Asosiy qonunning 19-moddasida belgilangan. Ana shu qoidaning sudga tatbiqan talqini «Sudlar to'g'risida»gi yangi tahrirdagi qonunning 11-moddasida bayon etilgan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengdir. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ham qonun va sud oldida tengdir.

Biz barpo etishga intilayotgan huquqiy davlatda inson oliy qadriyat sifatida e'zozlanadi, sud inson va fuqaro huquqlarining asosiy va doimiy himoyachisi bo'lib maydonga chiqadi. Sud tizimini isloh qilish, avvalo, hukm chiqaruvchi sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlashga qaratilishi kerak. Faqat shunday qilganda... odam sudga o'z huquqlari va erkinliklarini, manfaatlarini himoya qilishi lozim bo'lgan organ sifatida murojaat qiladigan bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi qoidasi, insonning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat ekanligi, fuqarolarning sud orqali himoyalangan bo'lgan huquqlari, odil sudlov tamoyillari, sudlarning mustaqilligi kabi qator normalar o'z aksini topgan.

Sud – jamiyat a'zolariga huquqiy madaniyatni singdirish, tarbiyalash, shakllantirish va yuksaltirishda katta o'rin tutadi. Har bir sud jarayoni katta tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga ega. Fuqarolar o'zgalar xatosidan xulosa chiqarib, qonunlarni buzmaslik bobida ibrat oladilar. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli sud-huquq islohotlari jarayonida Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Sudlarning tarbiyaviy rolini kuchaytirish, uning faoliyatida ochiqlik va oshkorlikni ta'minlash, sud hukmlarini qabul qilishda jamoatchilik fikrini inobatga olishga jiddiy e'tirof qaratildi".

Sudlarning faoliyatidan xalqning muntazam xabardor bo'lib turishida odil sudlov haqidagi axborotni olish, uni aholiga yetkazish tizimini yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Bunda sudlarning ommaviy axborot vositalari bilan yaqin hamkorlik qilishi, sud qarorlarining elektron ma'lumotlar bazasini yaratish va ularni tegishli veb-saytlarda, Internet tarmoqlarida joylashtirib, axoliga yetkazish samara beradi. Bu ish sudlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlashni yanada jadallashtirishni, ular faoliyatiga zamonaviy raqamlashtirishni joriy etishni talab etadi.

HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQIY TARBIYANING O'RNI.

A.Norboyev

TDPU kata o'qituvchisi

Maqolada huquqiy tarbiyaning xususiyatlari va vazifalari, xususan umumta'lim muassasalarida yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha amalga oshirilayotgan va oshirilajak ishlar tahlil qilingan. Huquqiy savodxonligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi xususida mulohazalar yuritilgan. Huquqiy tarbiyani zamon talablari darajasiga ko'tarish bo'yicha tavsiyalar, fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Tayanch so'z va tushunchalar: huquqiy tarbiya, yoshlar, ta'lim tizimi, qonun, huquqiy madaniyat, huquqiy ong.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi PF-5618-son farmonida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari qatorida

fuqarolar ongida «Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» degan hayotiy g'oyani mustahkamlash vazifasi belgilangan. Davlatimiz va hukumatimiz tomonidan jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha zarur huquqiy-meyoriy hujjatlar qabul qilingan. Ularda yurtimizda huquqiy bilimlarni singdirishni hozirgi murakkab va tahlikali davrda yangi bosqichga ko'tarish zarurligi belgilab berilgan. Huquqiy ta'lim huquqiy bilimlarni o'zlashtirishni, amaliy ko'nikmalar va malakalar shakllanishini nazarda tutadi. Bu esa yoshlarning huquqiy jihatdan har tomonlama barkamol inson bo'lib yetishishlari uchun zamin tayyorlaydi. Huquqiy ta'lim nafaqat bilim berish, balki huquqbuzarliklarning oldini olish, intizomni mustahkamlash, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish kabi vazifalarni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu borada prezident Sh.Mirziyoyev: Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi, avvalambor, tarbiya va muhit bilan bevosita bog'liqdir, degan edi.

Yuqori huquqiy madaniyatga, huquqiy ongga, huquqiy tarbiyaga erishish huquqiy bilimlarni puxta egallashga bog'liqdir. Forobiy ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish haqida ta'lim berar ekan, ularning har biri insonni kamolga yetkazishda o'z o'rnini va xususiyatiga ega ekanligini ham alohida ta'kidlaydi. Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim bo'lib, ta'lim – insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – nazariy fazilatni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deb hisoblaydi. Har ikkalasi birlashsa yetuklik – bilim va amaliy ko'nikmalarni qay darajada o'rganganligiga qarab paydo bo'ladi, deb ko'rsatadi. U. Tojixonov va A. Saidov ta'kidlab o'tganlaridek, huquqiy ta'lim natijalari o'quvchilar ijtimoiy faolligining oshishi, ularni o'tmish sarqitlariga, loqaydlikka, xudbinlik, milliy ma'naviyat meyorlarini buzishlarga qarshi kurashga jalb etishda ko'rinadi. Demak, shaxs huquqiy ongining shakllanishi murakkab jarayonni – huquqiy ta'lim-tarbiyani o'z ichiga oladi. Shunday ekan, huquqiy ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari bo'lgan huquqiy ta'lim, huquqiy tarbiya tushunchalariga aniqlik kiritish talab etiladi. Yuqoridagi umumiy fikrlarni to'ldirgan holda huquqiy ta'lim-tarbiyaga quyidagicha ta'rif berish lozim.

Huquqiy ta'lim-tarbiya deganda, huquqiy bilimlarni berish natijasida huquqiy tushuncha va tasavvurlar hosil qilish hamda shaxsni huquqiy qoidalarga rioya etish ruhida tarbiyalab, uning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish tushuniladi.

Shu asosda huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaga alohida-alohida ta'rif berish mumkin.

Huquqiy ta'lim – bu huquqiy bilimlarni egallash, huquqiy ko'nikma va malakani shakllantirishdir. Shuningdek, huquqiy ta'lim yoshlarni aqliy jihatdan rivojlantirib tarbiyalaydi. Huquqiy ta'lim natijasida yoshlarning huquqiy ongiga, hissiyotiga, irodasiga sobitqadamlik bilan bir tizim asosida ta'sir etishga erishiladi. Huquqiy ta'lim – huquqiy ma'lumotni ma'lum bir tartibda berish va uni qabul qilishni o'z ichiga oladi.

Huquqiy tarbiya esa yoshlarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishga o'rgatishdir. Huquqiy tarbiya huquqiy ta'limsiz amalga oshmaydi. Huquqiy ta'lim berishdan maqsad shaxsni olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash asosida huquqiy tarbiyalashdir. Bu faoliyat ma'lum bir jarayonni tashkil etadi.

Huquqiy ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi munosabat, bilim berish, bilim olish, o'rgatish-o'rganish maylida kechadigan munosabatlar tizimidir.

Huquqiy ta'lim o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyati sifatida o'zaro bog'liq ikki jarayonga – o'qituvchi faoliyati sifatida bilim berishga va o'quvchining faoliyati sifatida bilim olishga ajraladi. Bilim beruvchi jamiyat manfaatlarini ifoda etgan holda barcha o'quv muassasalarida ta'lim berishning konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratadi.

Huquqiy ta'lim jarayonida bilim oluvchilar insoniyat ijtimoiy-tarixiy tajribasining muayyan jihatlarini – mafkura, siyosat, fan va huquqiy madaniyatni o'zlashtiradi. Huquqiy ta'lim jarayonida yoshlar huquqiy tarbiyalanib, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik fazilatlarini hamda huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik shakllanadi.

Huquqiy ta'lim bir qancha jihatlardan: bilim beruvchining o'z fanini bilishi, o'quv-tarbiya jarayonini uyushtira olishi, ta'limning zamonaviy texnologiyalarini egallashi, o'quvchining aqliy rivojlanishi, uning bilish imkoniyatlarini chuqur anglab yetishi va bilim oluvchining shaxsiy fazilatlarini shakllantirish yo'llarini bilishidan tarkib topadi.

Huquqiy ta'lim bilim beruvchi uchun tafakkur faoliyati hamdir. U o'zini qurshab turgan olamni bilishni va ta'lim berish faoliyatini chuqurlashtiradi. U ta'limda yangi mazmun va metodlarni izlaydi. Ta'lim bilim oluvchi uchun ham, bilim beruvchi uchun ham o'zini qurshab turgan olamni bilishning bir turi hisoblanadi.

Shunday qilib, huquqiy ta'lim shaxs harakatlari muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirib olishga qaratilgan ongli maqsad bilan boshqariladigan jarayondir.

Huquqiy ta'lim jarayonida shaxs tafakkur qilarkan, bu bilan u qandaydir yangi, ilgari ma'lum bo'lmagan xususiyatlarga duch keladi. Bu xususiyatlar haqida

u tasavvurga ega bo'lsagina, tushunchalar hosil bo'ladi. Huquqiy tasavvur va huquqiy tushunchalar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. O'quvchilarda to'liq va aniq tasavvurlar mavjud bo'lgandagina, tushunchalar hosil bo'la oladi. Huquqiy tasavvurlarni shakllantirishda idrok etish qobiliyati muhimdir. Hodisa va voqealarning kishi ongida aks etishi idrok deb ataladi. Voqeani ongli idrok etish unga fikran nom berishdir.

Shaxs huquqiy ongining shakllanishi huquqiy ta'lim mazmunining elementlariga bog'liq. Huquqiy ta'lim mazmuni – bu huquqni o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berishdan iborat.

Huquqni o'qitish deganda, huquqqa oid materiallar vositasida bilim berish, yoshlarni huquqiy ongli, madaniyatli qilib tarbiyalash va har tomonlama barkamol inson qilib kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan jarayon tushuniladi. Huquqiy tushunchalar tafakkurning mantiqiy shaklidir. Huquqiy tushuncha shunday bir fikrki, unda huquqiy faktlarning eng muhim, farq qiladigan va umumiy belgilari aks ettiriladi. Huquqiy tushunchalarni hosil qilish deganda huquqiy faktlarning eng muhim belgilarini ikkinchi darajali belgilaridan ajrata bilish, ularni huquq sohalariga bo'lib o'rganish, huquqiy hodisa va voqealar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni chuqur anglab tushunib olish ko'zda tutiladi. Ana shunday shakllangan, mukammal huquqiy tushunchalar ilmiy bilimlar tizimining vujudga kelishida bamisoli zanjir vazifasini o'taydi.

Huquqni tushuntirish deganda, u yoki bu mavzuning ilmiy mazmuni, nazariy asoslarini aniqlash, huquqiy materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish bo'yicha ish usullarini belgilab olish tushuniladi. Huquqiy tushuncha va tasavvurlar bir-biri bilan uzviy bog'langan. Huquqni o'qitish jarayonida o'quvchilarning huquqiy tasavvurlari chuqurlashib borishi natijasida huquqiy tushunchalarni shakllantirish uchun zamin yaratiladi. Huquqiy tushunchalar o'z navbatida huquqiy tasavvurlarni mazmunan boyitib, aniqlashtirib borishga yordam beradi. Huquqiy tasavvur va huquqiy tushunchalarni hosil qilishning metodik usullari ham ko'p hollarda bir-biriga o'xshab ketadi.

Tasavvur – kishining narsa, hodisa haqidagi tajribasiga asoslangan bilim-tushunchasidir. Tasavvur – idrok qilingan, his etilgan huquqiy hodisaning kishi ongida aks etishi, gavdalanishidir.

Huquqni o'qitish jarayonida o'quvchilarning ko'z o'ngida huquqiy hodisalarni tasavvur ettirishda obrazlilikdan foydalanish huquqiy ongning shakllanishiga ijobiy ta'sir etadi. Obrazlilik – o'quvchilarning huquqdan olgan bilimlarini ilmiy va puxta bo'lishining zarur shartlaridan biridir, ularning huquqqa qiziqishini uyg'otish va huquqiy faktlarni tahlil qilish va umumlashtirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratishning muhim vositasidir.

Tasavvurlarni shakllantirishda o'quvchilar huquqiy hodisalarni faol suratda idrok etishiga qaratilgan usullardan foydalaniladi. O'qituvchi bayonining mazmunan ko'rgazmali va obrazli bo'lishi, ma'ruza matnidagi, huquqiy hujjatlardagi voqea va elementlar, huquqiy adabiyotlar o'quvchilarda huquqiy tasavvurlarni shakllantirishning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi materialni bayon qilayotganda, huquqiy hujjatlardan, ilmiy-ommabop va qonunlardan olingan tafsilotlarga hamda o'quvchilardagi mavjud tasavvurlarga suyangan holda ish tutib, o'quvchilarning huquqiy ongining ortishi, ularning muhim tafsilotlarni ajratib olishi va esda saqlab qolishlariga yordam beradi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning faol fikrlashini tashkil qilishi lozim. O'qituvchi qonunlarni o'qib qo'ya qolmay, balki qonundagi alohida meyorlarni o'quvchilar ishtirokida tahlil qilib, undagi eng muhim elementlarni ajratib chiqishi lozim.

Huquqiy tushuncha – predmet va hodisalarning mantiqan ajratilgan muhim belgilarini umumlashtirib, birlashtirib aks ettiruvchi umumiy tasavvur bo'lib, huquqiy onglilik, insonning bilim va tasavvurlari darajasidir.

Huquqiy ong shakllanishida huquqiy tushunchalarning turli sohalarga tegishli ekanligidan kelib chiqib, tarixiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy, sotsial, madaniy, ma'naviy, nazariy, ilmiy, sohaviy va h.k. guruhlariga ajratish mumkin.

Huquqni o'qitish jarayonida tushunchalarni shakllantirishning usul va vositalari xilma-xil bo'lib, avvalo u tushunchalar mazmunining murakkabligiga bog'liq. Masalan, davlatning belgilari – hudud, suverenlik, armiya, soliq, bank kabi tushunchalarning hosil bo'lishi uchun bir soat dars kifoya qilsa, sotsiologik tushunchalar, masalan, davlat va huquqning paydo bo'lishi va rivojlanishi davlat va huquq nazariyasi fanini o'rganish jarayonida o'zlashtiriladi.

Shaxsda tushunchalarning chuqur va mustahkam bo'lishi, asosan, o'qituvchining o'quvchilar fikrlash faoliyatini qanchalik uyg'ota olishi va unga qay darajada rahbarlik qila olishiga bog'liq. Huquqiy tushunchalar hosil qilishda o'quvchilarning voqea va hodisalarni analiz, sintez qila olish qobiliyatini o'z ichiga olgan fikrlash faoliyatini kuchaytirishda ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalari, interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarning ko'rgazmali qurollar, texnika vositalari, huquqiy hujjatlar bilan ishlashlarini uyushtirish alohida ahamiyatga ega.

Shunday qilib, huquqiy tafakkurni rivojlantirish uzluksiz jarayon bo'lib, u yoshlarda umumiy nazariy bilimlar va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ishlarining muhim tarkibiy qismidir.

Huquqiy bilim berish bilim oluvchida bilimlarni egallash, o'quv ko'nikmalari va malakasini shakllantirish jarayonidan iborat bo'ladi.

Huquqiy ongli va huquqiy madaniyatli insonni kamolga yetkazish bilim oluvchini aqliy jihatdan rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Huquqiy ta'lim berish, uni rivojlantirish va tarbiyalash funktsiyalari amalga oshirilishi natijasida shaxsni shakllantirish jarayonida kompleks yondashuvga erishiladi.

Huquqiy bilim – bu bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi ularning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan, bir-biri bilan uzviy bog'liq hodisadir. Chunki bu zaruriy bog'liqlik narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqib, bizning ixtiyorimizdan tashqari o'zi mavjud bo'ladi. Huquqiy bilimlarni egallash natijasida huquqiy ko'nikma va malakalar shakllanadi. Bilimlarni egallash jarayonida vujudga keladigan usullar va elementlarning o'zlashtirilishi hosil bo'ladi hamda shu usul va elementlarni to'g'ri tanlab, foydalanish yo'llarining egallanishiga erishiladi. Huquqiy bilim asosida shaxsda huquqiy ong shakllanishiga erishiladi.

Huquqiy ta'lim jarayonida shaxs huquqiy jihatdan tarbiyalanib, huquqiy bilimlarni hayotga tatbiq etishga o'rgatiladi. Bu haqda ko'pgina olimlar o'z fikrlarini bildirganlar. Ular o'z ilmiy ishlarida huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy tarbiyaning hamda huquqiy tarbiya vositalaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati, haqida ta'kidlaganlar. A.A'zamxo'jaev va Sh.O'razaev huquqiy tarbiyani jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyatiga, ongiga sistematik va maqsadga muvofiq ta'sir etish jarayonidir, deb, huquqiy tarbiyada muayyan huquqiy bilim darajasiga ega bo'lishga erishish maqsad qilib qo'yilishini ko'rsatganlar. H.Yo'ldoshev, U.Tojixonov va boshqalar huquqiy tarbiya bu – shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko'rsatmalarni, faol qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan holda ta'sir ko'rsatilishidir⁴⁴, deb fikr bildirganlar. A. Rafiqov, O.Karimova, Sh.Eshonova huquqiy tarbiyaning asosiy maqsadi shaxsda huquqiy ongni shakllantirish, ya'ni huquqiy meyorlarga hurmatni, ularga ixtiyoriy va ongli ravishda rioya qilishni o'rgatishdir, deb hisoblaydilar⁴⁵. Darhaqiqat, huquqiy ta'lim jarayoni Konstitutsiya va qonunlarni, milliy qadriyatlarni hurmat qilish, shaxsni vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, poklik, adolatlilik ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, «Farzandlarimizning turli radikal va zararli g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga yo'l qo'ymaslik – asosiy

⁴⁴ Yo'ldoshev H.Q., Tojixonov U., Zaripov S., Mirzajonov Q. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishda huquqiy tarbiya vositalarining ahamiyati. - T.: IIV Akademiyasi, 1999. – 174 b.

⁴⁵ Rafiqov A., Karimova O., Eshonova Sh. O'quvchi yoshlarni huquqiy tarbiyalash. - T.: O'qituvchi, 1988.- 119 b.

vazifamizdir. Bu boradagi ishlarni yangicha yondashuvlar bilan davom ettirishimiz kerak».

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi PF-5618-son farmoni.
2. Mirziyoyev SH. «Bilimli avlod - buyuk kelajakning, tadbirkor xalq - farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir» mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 8 dekabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2018 yil 29 dekabr.
4. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. - T.: IIV Akademiyasi, 1998. T. 2. - 447 b.

**YOSHLARNI HUQUQIY TARBIYALASHDA IJTIMOIIY MUHITNING
O'RNI**

M.A.Rasulova

*TDPU v.b.dotsenti, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarning huquqiy madaniyati haqida so'z boradi. Unda o'smirlar tarbiyasida salbiy holatlarni oldini olish uchun oila, mahalla, maktabning o'zaro hamkorligi borasida tavsiyalar berilgan.

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol inson sifatida tarbiyalab voyaga yetkazishga katta ahamiyat berilmoqda. Ular yuksak madaniyatli, yetuk, bilimli va jismonan sog'lom b'lib kamol topishi uchun yurtimizda barcha shart- sharoitlar yaratib berilmoqda.

Prezidentimiz rahnamoligida ishlab chiqilgan milliy dasturlar fuqarolarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongida y'z aksini topdi. Bu jarayonga to'sqinlik qilayotgan omillar nimalar? Yoshlar dunyoqarashida milliy g'oya ustivor bo'lishi uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak? SHunga o'xshash savollar nafaqat ta'lim-tarbiya jonkuyarlari, balki jamiyatshunos olimlarni ham o'ylantirayotgani aniq.

Ilmiy kuzatishlarimiz, tadqiqotlarimiz, ko'plab vatandosh va xorijlik olimlarning xulosalari shundan dalolat beradiki, ijtimoiy munosabatlarni qayta

qurish samaradorligi, avvalo, madaniyatning tarkibiy qismi bo'lmish huquqiy madaniyatni shakllantirishga bog'liq.

Huquqiy madaniyat huquqiy tarbiyaning yuksak darajadagi in'ikosidir. Huquq va erkinliklarga ongli munosabat butun fuqarolik jamiyati huquqiy hayotida o'zini namoyon etadi.⁴⁶ Xalqimiz ongida o'z haq-huquqini tanish, huquqiy uyg'onish yuz bermoqda. Xalqning huquqiy savodxonligi, huquqiy madaniyatini yuksaltirmasdan turib u muvaffaqiyatlarga erishish mushkul. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" Farmonida ta'kidlanganidek, huquqiy ta'limning maqsadi har bir kishiga amaliy faoliyatida zarur bo'ladigan huquqiy bilimlarni belgilangan davlat standarti hajmida yetkazishdan iborat. Farmonda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, huquqiy ta'lim - tarbiya hamda targ'ibot vazifalari belgilangan. Maqsad - qonunni, huquqni hurmat qilish, ularga og'ishmay rioya qilish har bir fuqaroning hayotiy ehtiyoji va e'tiqodiga aylantirishdir. Huquqiy ongni shakllantirish, huquqiy madaniyatni rivojlantirish aholi turli qatlamlari, ijtimoiy guruhlarining xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Hozirda, yoshlarni yuksak huquqiy madaniyatli qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasidir. Davr yosh avlodga umumiy yuridik ta'lim berishning yaxlit tizimini vujudga keltirishni taqozo etmoqda. Jumladan, yoshlar bilan ishlashda huquqiy tarbiyaning ularga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi maqsad va vazifalarni, shakl va usullarini aniq belgilash, huquqiy bilimlarni puxta egallash, qonunga b'ysunish, umumiy huquqiy ta'lim tizimini yaratish, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozim.

Huquqiy bilimga ega bo'lish shuningdek, yoshlar jinoyatchiligining oldini olishga ham ta'sir ko'rsatadi. Biroq bu jinoyatchilik holatini belgilaydigan omillar orasida ijtimoiy sabablar birinchi o'rinda turishi bilangina bog'liq emas.

SHakllanib borayotgan demokratik huquqiy davlatning yoshlar siyosati yigit va qizlarga o'z qobiliyat va iste'dodini yaxshiroq ro'yobga chiqarishga, yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga faol qo'shilishga yordam bermokda. O'z navbatida, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati yuksalib borgan sari ularning jamiyatni huqukiy demokratik tarzda qurish ishtiyoqi oshadi. Huquqiy madaniyatni egallab olish uchun yoshlar huquqning ijtimoiy va ma'naviy qadrini tushunib yetishlari, fuqaroviy huquq va burchlarining o'zaro chambarchas bog'liqligini anglashlari, xulq-atvorlarida qonunni hurmat qilishlari, ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni huquq nuqtai nazaridan baholay bilishlari kerak.

1 Mamatov X. "Huquqiy madaniyat va O'zbekiston fuqarolik jamiyatining muammolari".-T.2009-B.85.

Yoshlar huquqiy madaniyatini o'rganish jamiyatning siyosiy-huquqiy istiqbolini baholashgina emas, shu bilan birga davlat mustaqilligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. SHu o'rinda haqli savol tug'ilishi tabiiy: yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari va omillari nimada? Ushbu masalani o'rganib chiqqan sotsiolog olimlar bular qatoriga quyidagilarni kiritadilar:

- 1) ta'lim-tarbiyadagi qusurlar, ota-onalar yoki boshqa shaxslarning salbiy ta'siri;
- 2) yoshlardagi g'oyaviy bo'shliq, maqsad-muddao mavhumligi, hayotiy rejalarining amaliy ehtiyojlardan uzilib qolganligi, talabalarga mehnat ko'nikmalari va mehnatsevarlik hissi yaxshi singdirilmayotganligi, qonun asoslarini tushuntirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarning yo'qligi;
- 3) yoshlar bo'sh vaqtlarda nazoratsiz qolib ketishi, ijtimoiy foydali ishlar bilan band bo'lmashligi;
- 4) mehnat va ta'lim jamoalaridagi tarbiyaviy tadbirlar samarasining pastligi;
- 5) jamiyatga xilof g'oyalar, qarashlar, odatlar, mayllarni tarqatuvchilarning salbiy ta'siri ;
- 6) muqaddam jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning yoshlarni tartib va qonunga xilof xulq-atvor (ichkilikbozlik, giyohvandlik, fahsh)ga jalb etishi;
- 7) huquqni muhofaza etuvchi, xalq ta'limi, jamoat tashkilotlari, mahalliy organlar faoliyatining maqsadga muvofik uyg'unlashtirilmasligi va boshqalar.

BMT tomonidan qabul qilingan va O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi konventsiya, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga asosan davlatimiz tomonidan bolalar va yoshlarning haq-xuquklari va manfaatlarini himoya qilinmoqda. Har qaysi davlat, har qaysi millat unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqning azaliy orzu-intilishlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko'radi. SHunday ekan kelajagimiz tayanchi bo'lmish yoshlar va ularning tarbiyasi haqida g'amxo'rlik qilmaslik mumkin emas.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan fikrini mushohada qilib kelajagimiz bo'lmish yoshlar tarbiyasi millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb vazifa ekanligini anglash mumkin.

Yoshlarning dunyoqarashini, huquqiy madaniyatini shakllantirish oiladan boshlanadi. SHuning uchun oiladagi tartib-intizom oila boshliqlarining o'z vazifalariga ma'suliyat bilan yondoshishlarini taqozo etadi. Zero, oiladagi muhit, farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabat bolalarda huquqqa bo'lgan qarashlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarning huquqiy

madaniyatini oshirishda nafaqat oila, balki, mahalla, ommaviy axborot vositalari, davlat hamda nodavlat jamoat tashkilotlari va ta'lim muassasalarining o'zni beqiyosdir. Mahallalarda yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish yuzasidan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish kutilgan natija berishi shubhasiz. Joylarda yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlari yuzasidan keng ko'lamdagi tushuntirish ishlarini olib borish, suhbat, ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazish yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga katta yordam beradi.

Mahalla har bir oiladagi ma'naviy-axloqiy muhitga, farzandlar tarbiyasiga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Xususan, voyaga yetmaganlarning ilm-fanga va kasbga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini shakllantirishda yangi ilg'or va samarali usullarni mahallalarda amaliyotga joriy etish zarur. O'sib kelayotgan avlod hayotda munosib o'rin egallashi, sog'lom turmush kechirishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish, voyaga yetmaganlar tomonidan hukuqbuzarlik va jinoyat sodir etilishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni tashkil qilish va tushuntirish ishlarini olib borish barchamizga birdek vazifa bo'lishiga erishish darkor.

Tarbiyasi og'ir va darslarni o'zlashtira olmaydigan bolalarni to'garaklarga va ommaviy sportga jalb qilish orqali ularning bilim va jismoniy tayyorgarligi darajasini yuksaltirish, voyaga yetmaganlar orasida qarovsizlik va nazoratsizlikning oldini olish, ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasb-hunarga o'rgatish va bitiruvchilarni ishga joylashtirish masalalariga ko'proq e'tibor berilishi ham katta ahamiyatga ega. Bunda yoshlarning qiziqishlarini o'rganib e'tiborga olish foydadan xoli emas. Mana shunday chora-tadbirlar mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlar istiqbolini ta'minlashning samarali yo'li hisoblanadi.

Yoshlarni huquqiy madaniyatini oshirish, ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg'otish, ayni vaqtda, yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Yoshlarning ijtimoiy xavfli harakati yoki harakatsizligi, xulq-atvori oila, mahalla va ta'lim muassasalarining nazoratida bo'lishini ta'minlash qonunlar ijrosini amalga oshirishning muhim garovi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham yoshlar xulqining rivojlanishida oila, mahalla va ta'lim muassasalarining hamkorligi ularning kamolotga erishuvi hamda insoniy fazilatlarining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shu bilan bir qatorda mamlakatimizdagi maktab, litsey, kollej o'quvchilarining O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi borasidagi bilimlarini mustahkamlash, yoshlarning erkin fikrlash qobiliyati, shuningdek, ularning ijtimoiy faolligini oshirish hamda ularni rag'batlantirish maqsadida turli chora - tadbirlarni tashkil etish, davra suhbatlarini

o'tkazish ancha samarali natija berishi bilan birga ijtimoiy hayotda muayyan bir huquqiy munosabatga kirishgan yoshlarimizning o'z haq-huquqlarini anglay olishlarida muhim omil bo'lib xizmat qiladi³. Bu borada oila-mahalla-maktab hamkorligidagi faoliyat yunalishlaridan biri sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- farzandlar ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish hamda ota-onalarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda yordam ko'rsatish;
- bolalarning ta'lim-tarbiya olishlarini ijtimoiy-huquqiy, pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash;
- bola tarbiyasidagi hulqiy og'ishishlarning oldini olish maqsadida oilaga pedagogik-psixologik yordam ko'rsatish;
- huquqiy qo'llab-quvvatlash oilaviy mehnat, fuqarolik, bolalar, nogironlar huquqlariga doir maslahatlar berish.

Mazkur ishlarni amalga oshirishda ta'lim muassasalari va mahalla fuqarolar yig'inlarida ota-onalar, bolalar hamda ular bilan ish olib boruvchi mutaxassislar uchun seminar, davra suhbatlari, maslahatlar kabi turli tadbirlarning amalga oshirilishi samarali natijalarga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2019 y
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni. 2020 y
3. Mamatov X. "Huquqiy madaniyat va O'zbekiston fuqarolik jamiyatining muammolari". - T.2009. -B.85.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida" Farmoni. 2019 y

YANGI TAHRIRDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA XALQIMIZNING ZIYOLI QATLAMI BO'LGAN O'QITUVCHILARGA QARATILGAN ETIBOR VA UNING AHAMIYATI

A.I.Murodov

*Nizomiy nomidagi TDPU
v.b.dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori,(PhD)*

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasidan andoza olgan holatda xalqimiz hayotini yaxshilashga xizmat qiladigan va uning hohish irodasini namoyon etadigan "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi”. Ushbu haqqoniy e’tirof O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023 yil 16 noyabrda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishda alohida ta’kidladilar.

Shuningdek, mamlakatimizda 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz berdi. Bu, o‘z navbatida, Bosh qomusimizda xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-umidlari va intilishlari o‘z aksini topganidan yaqqol dalolatdir.

O‘zbekistonning 65 foizga yangilangan va ancha “to‘lishgan” bosh qomusi 1 maydan e’tiboran kuchga kirdi. Kun.uz o‘zgarishlarning eng muhimlarini sanab o‘tadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e’tiboran kuchga kirdi. Bunga 30 aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko‘ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasimizda xalqimiz hohish irodasidan kelib chiqan holatda ko‘pgina ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berganini ko‘rishimiz munkun.

Konstitutsiyaning 1-moddasidagi “O‘zbekiston – suveren demokratik respublika” jumlasini quyidagicha o‘zgartirilmogda:

O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Demokratiya esa xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va o‘z vakillarini saylash orqali barchaning teng huquqli ishtiroki ta’minlanishini ko‘zda tutadi.

Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko‘z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida

teng bo‘ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo‘ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston o‘zini ijtimoiy davlat deb e‘lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda.

Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta‘lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo‘llovga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag‘al oilaning bolalarida ham sog‘-salomat o‘sib-ulg‘ayib, yaxshi ta‘lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo‘lishi kerak.

Dunyoviy davlatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bo‘ladi. Davlat diniy e‘tiqodidan qat’i nazar barchaga bir xil munosabatda bo‘ladi, dinga oid masalalarda neytral pozitsiyani egallaydi.

Yangi konstitutsiyaning 154-moddasi bilan, 1-moddadagi qoidalarni qayta ko‘rib chiqish mumkin emas, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 154-moddaning o‘zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas.

Boshqacha aytganda, bu norma – O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

Dunyo mamlakatlari ta‘lim tizimi tahlil natijalariga ko‘ra, aytish mumkinki, jamiyatning ziyoli qatlami, albatta, o‘qituvchilar, murabbiylar va ustozlar hisoblanadi. Ko‘p yillar davomida eng jonkuyar kasb sohiblari bo‘lgan o‘qituvchilarni maqomini qonun bilan himoyalashdek muhim vazifa kun tartibida turardi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytganlariday yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo‘ldi, deb aytishga asoslidir. Eng muhimi, endi islohotlarimiz yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz, “inson – jamiyat – davlat”, degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz, –deb takidladilar⁴⁷.

Shu nuqtai nazardan yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etiladi.

⁴⁷. <https://president.uz/oz/lists/viyew/6275>

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi⁴⁸.

Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo'lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Konstitutsiyada nomi keltirilgan o'qituvchilardan boshqa kasb egalarining barchasi – huquq sohasi vakillari (sudyalari, prokurorlar va advokatlar). Boshqa holatlarda kasb egalari emas, sohalar haqida gap ketgan (masalan, ommaviy axborot vositalari, turli jamoat birlashmalari).

Pedagoglar ham o'z navbatida turli toifalarga bo'linadi. Ularning barchasiga o'z ustida ishlash, kasbiga sodiq va eng asosiysi kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish kabi kasbiy talablar qo'yiladi. Kasbiy ko'nikma nima? Mazkur savolga, avvalambor, mahorat deb javob berish mumkin. Shu bilan birga, uni tushuntirishning ilmiy asoslangan bir qancha ta'riflari mavjud. Kasbiy ko'nikma tanlangan mutaxassislik bo'yicha kelgusida olib boriladigan faoliyatni yengillashtiruvchi bir vosita bo'lib, u nazariy bilimlar va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligi natijasida vujudga keladi. Oliy ta'lim tashkilotlari o'z oldiga yetuk mutaxassislarni yetishtirib berish kabi mas'uliyatli vazifani olar ekan, birinchi galda kasbiy ko'nikmaga alohida e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zero, yaxshi ta'lim olgan talaba kelgusida mukammal kadr bo'lib yetishadi. Masala pedagogika sohasi bo'yicha borar ekan, bo'lajak mutaxassislarga qo'yiladigan talab yanada murakkablashadi. Chunki pedagoglar kelajak avlodni tarbiyalab, ilm berib, har tomonlama yetuk shaxs bo'lishlariga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya darajasi yuqori bo'lgan avlod davlat va millatning porloq kelajagini belgilovchi muhim omildir. Pedagog kadrlarni milliy o'zlik va jahon tajribasi asosida tayyorlash bugunning dolzarb vazifalaridandir. Jahon tajribasining namuna bo'la oladigan jihatlarini milliy qadriyatlarimizga hamohang takomillashtirish, milliy mentalitetimizga moslashtirish uzluksiz ta'lim tizimimizning yanada takomillashuviga olib keladi. Xususan, musulmon renessansi deya nomlanuvchi XIX-XX asrlarda yurtimizda faoliyat olib borgan mutafakkirlar faoliyati, ikkinchi renessans davri deb nomlanuvchi temuriylar renessansi davri olim va faylasuflari va nihoyat jadidlar harakati nomini olgan milliy ziyolilarning islohotlari shular jumlasidandir. Zotan, jadidlar harakatini ham uning xususiyatlaridan kelib chiqib, uyg'onish davri deb atasak bo'ladi. Bu ilmiy doiralarda muhokama qilinishi va takliflar berilishi bilan amalga oshadigan jarayondir. Albatta, hozir ham Sh.Mirziyoyev islohotlarini keyingi renessansga poydevor sifatida ko'rish

⁴⁸ Yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

mumkin. Demak, tariximizda bir qancha renessanslar bo'lgan va bo'lmoqda deb xulosa qilsa bo'ladi.

Shuningdek, jadidlar ilmiy merosi asosida pedagogika oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalardan biri sifatida belgilangan. Zero, jadidlar o'tmishda ijod etgan mutafakkirlarning qoldirgan merosini yaxshi o'zlashtirgan va kelajakda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni ham oldindan ko'ra bilganlar. Shu nuqtayi nazardan ularning faoliyatini tadqiq etish bilan o'tmish va hozirgi ilm-fan yutuqlarini ham o'rganish imkoni yaratiladi.

Jahon miqyosida rivojlanib amaliyotga joriy etilayotgan mazkur yangiliklarning eng yaxshi sifatlarini qabul qilishni nazarda tutgan holda, umum e'tirof etilgan talablarga mos, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asl mohiyatini ko'rsatadi. Buni Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va fan rejalari tahlilida ko'rish mumkin.

Kasbiy mahorat haqida gap ketar ekan, kasbiy bilim va ko'nikmaga ega bo'lmasdan ishlab bo'lmasligini har bir soha vakillari idrok etadi. Chunki malakasiz kadr sohani vayron qiluvchi salbiy unsur hisoblanadi. Masala pedagoglar mavzusida bo'lar ekan, vaziyat yanada murakkablashadi. Malakasiz o'qituvchining jamiyatga ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavfini tasavvur qilish qiyin emas, albatta. Jamiyat tanazzulining asosiy sabablaridan biri ham ana shu, ya'ni ta'lim tizimining xaroblidir. Ta'lim tizimining xarobliligi esa uquvsiz pedagoglarning faoliyati bilan bog'liq. Jadidlar buni anglab yetgan va millat jonkuyarlari sifatida urg'uni ta'limga qaratgan. Ular ta'lim berishda diniy mutaassiblar va yevropa madaniyati namoyondalari bilan raqobat qilgan. O'zida har bir tarafning kerakli jihatlarini o'zlashtirgan harakat (jadidchilik), ikki tizimdan ham samarali ekanligi tarixda o'z isbotini topgan. Shuning uchun ham o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini ko'tarishga butun dunyo bo'ylab katta ahamiyat qaratiladi. Respublika Prezidenti ham bu masalada ortda qolishning kelajakka ta'sirini to'g'ri angalagan holda, asosiy e'tiborni ta'lim tizimini isloh qilishga qaratayotganligi fikrimizni dalillaydi⁴⁹.

Ushbu tendensiyaga mos kelmaydigan amaldagi malaka talablari, o'quv reja va dasturlarining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni.

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonida⁵⁰ tanqidiy tahlili keltirilgan bo'lib, bir qator jihatlar bilan birga axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmaganligi salbiy baholangan. Mazkur masalalarining yechimi sifatida farmonda bir qator ko'rsatmalar keltirilgan.

Xususan, dunyo standartlariga mos keladigan, xorijiy mamlakatlarda o'z samarasini ko'rsatgan va milliy ta'lim tizimimizni yuqori bosqichga olib chiqishi mumkin bo'lgan variantlarini qo'llash, bizning ta'lim berish tizimimiz, asosan, nazariy bilimlar berishga qaratilgan bo'lib, undan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish tendensiyasiga asta-sekin o'tib borish topshirig'i berilgan. Bundan tashqari talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmasiga o'rgatishga urg'u berilgan va buning kasbiy salohiyatni oshirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Farmonda, shuningdek, talabalarni mahoratli kadr bo'lib yetishishlariga xizmat qiladigan barcha uslub va uslubiyotlarni o'zlashtirish, ularning o'z ustida ishlashlarini rag'batlantiruvchi vositalardan kengroq foydalanish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va mavjudlarini yanada ko'tarishga harakat qilish topshirig'i ham begilgan. Shuningdek Farmonda pedagog kadrlar tayyorlashni sifat bosqichiga olib chiqish alohida ko'rsatib o'tilgan. Bu bejiz emas, albatta, yuqorida ta'kidlanganidek, pedagog tom ma'noda kelajakda millat sifatida saqlanib qolishimiz, umuman olganda har taraflama rivojlanishimiz uchun kerak bo'ladigan jamoa vakillaridir. Eng kuchli iqtisodchidan tortib, qobiliyatli muhandisgacha, uzoqni ko'ra biladigan siyosatchidan tortib, informatsion texnologiyalar bo'yicha bilimdonni ham, umuman olganda har bir soha kadrlarini tarbiyalovchi va tayyorlovchi kishilar – bu pedagoglardir. Mazkur farmonda tom ma'noda gumanitar va pedagogik yo'nalishda qilinishi lozim bo'lgan eng dolzarb masalalar batafsil keltirib o'tilgan.

Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Bu nafaqat talabalarga foyda keltiradi, balki butun jamiyatga manfaatli bo'ladi. Ayrim jihatlariga quyida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Ta'lim sifatini oshirish. Pedagog talabalar millat va davlatning kelajagini belgilashda eng kerakli bo'lgan kasb egalari bo'lib yetishadilar. Muayyan shaxs, ya'ni bu o'rinda pedagog kadrlarni kasbiy jihatdan baholovchi mezonlari sifatida uning o'z kasbini qadrlash darajasi bilan ham o'lchanadi. Bunday o'lchov asosiylardan bo'lar ekan, unga ega bo'lish bo'lajak kadrlarning sifatini ham belgilab beradi. Shu bois ham ta'lim tashkilotlari kasbiy ko'nikmalarni oshirish

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi "O'zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida" 287-sonli qarori.

masalasiga jiddiy e'tibor bergani ma'qul bo'ladi. Bu ta'lim tashkilotining ham nufuzini oshiradi, chunki unda yetishib chiqqan mutaxassislarning mehnat bozorida talabgir bo'lishi bundan dalolat beradi. Barkamol ustoz, murabbiy va o'qituvchi ana shunday kerakli jamiyat a'zosi bo'la oladi.

Mehnat bozorida o'z o'rniga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlab berayotgan oliy ta'lim muassasalarining nufuzi ortib boradi, unga intiluvchi yoshlar soni ko'payadi, sifat darajasi oshadi va bu iqtisodiy jihatdan ham foydali hisoblanadi. Buni iqtisodiy qonun-qoidalar ham o'z tushunchalari bo'yicha belgilab beradi. Yaxshi ta'lim olgan, ajdodlar merosini puxta o'zlashtirgan mutaxassis faoliyatida mutlaqo diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaydi. Ijtimoiy kelib chiqishi, millati, dini va boshqa farq qiluvchi xususiyatlar ularning faoliyatida kuzatilmaydi.

Ma'naviy barkamollik. Oliy ta'lim tashkilotlari faqat ta'lim berish bilangina cheklanib qolmasligi kerak. Ularning eng kerakli vazifalaridan biri ma'naviy-ma'rifiy faoliyat hisoblanadi. Har yili tasdiqlanadigan tadbirlar rejasida belgilangan tadbirlarning nomiga emas, balki katta qiziqish uyg'otadigan usullardan foydalanib o'tkazishning ahamiyati shunda ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e'tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilganini ishonch bilan ta'kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi O'zbekiston o'zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat'iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi.

Ishonchimiz komilki, xalqaro tashkilotlar vakillari va ekspertlar xolis va to'g'ri ta'kidlaganlaridek, O'zbekiston Konstitutsiyasining yangi tahrirda qabul qilinishi "Inson sha'ni va qadr-qimmatini uchun" tamoyili asosida xalq farovonligini yanada yuksaltirish, inson, fuqarolik jamiyati va davlatni jadal rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

OTA-ONALAR QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALAR HUQUQLARINI KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.

Abulova M.K
TDPU Pedagogika
kafedrasi o'qituvchisi dotsenti

Davlat ota-onalarga farzandlarini voyaga yetguncha boqish, tarbiyalash majburiyatini yuklash bilan birga, ota-onasiz bolalarni boqishni, tarbiya qilishni, o'qitishni o'z zimmasiga oladi. Bu Konstitutsiyadagi "Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni,

tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi.” – degan qoida asosida amalga oshiriladi (77-modda).

Voyaga yetgunga qadar davlat va jamiyat qaramog'ida bo'ladigan, ularni yordamiga muhtoj bolalar deganda, yetim bolalarni (ota-onasi vafot etgan bolalarni), ota-onani vasiyligidan mahrum bo'lgan (ota-onalari tashlab ketgan yoki ota-onalik huquqidan tegishli tartibda mahrim qilinganlar) bolalarni e'tiborga olamiz. Bunday yordamga muhtoj bolalarni davlat turli tadbirlar belgilab, muntazam ravishda ular hayotda o'z o'rinlarini topishi uchun zarur sharoit yaratib beradi.

Voyaga yetgan farzandlarning ota-ona oldida ko'plab majburiyatlari bo'lib, bu majburiyatlar ota-onaga g'amxo'rlik qilishni nazarda tutadi. Bu burch nafaqat Konstitutsiyaviy burch, u xalqimiz qon-qoniga singgan, ahloqiy qoidalarga mos urf-odatimiz hamdir.

Azaldan ota-onaga g'amho'rlik qilingan, ularni ranjitgan farzandlar, qoralangan, qarg'ishga qolgan, ulardan hamma yuz o'girib, yakkalab qo'ygan. Ana shu ahloqiy qoida Konstitutsiyada qoida sifatida mustahkamlangach, endi noqobil farzandlarni nafaqat qoralash, qarg'ash, yakkalab qo'yish emas, qonun yo'li bilan jazolash imkoni tug'ildi.

Konstitutsiyaning 80-moddasida “Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.- degan qoida belgilandi.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalariga ular birgalikda yashaydimi, alohida yashaydimi (qayerda yashashidan qat'iy nazar) bundan qat'iy nazar g'amxo'rlik qilishga majbur.

Farzandni ota-onaga g'amxo'rligi nimalardan iborat? Eng avvalo ota-onani normal yashashi uchun to'liq imkoniyat yaratish. Bu turar-joy bilan, oziq-ovqat (yegulik), kiyim-bosh bilan ta'minlash. Ota-onalarni sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qilish, ularni tibbiy xizmatga muhtojligida tibbiy xizmatdan foydalanishini ta'minlash. Iqtisodiy tomondan g'amxo'rlikning o'zigina ota-ona ehtiyojini qondirmaydi, unga qo'shimcha ravishda ma'naviy jihatdan ham ota-ona qo'llab-quvvatlanishi kerak.

Farzandlar ota-ona ehtiyojini ixtiyoriy ravishda qondirmasa, unda ularga majburlov choralari quriladi. Moddiy majburlov choralari bu, farzandlardan ota-ona hisobiga majburiy to'lov (aliment) undirishdir.

Mehnatga layoqatli, ma'lum iqtisodiy imkoniyatlari yetarli, turar-joy masalasida qiyinchiligi yo'q farzandlarning ota-onalarini qariyalar uyiga joylashtirishi xalqimizda eng yomon uyat ish, oriyatsizlik deb qoralanadi.

Oila munosabatlarini Konstitutsiyaviy asosda hal qilinishi, Konstitutsiyada unga alohida bob ajratilishi, bizda oilaga bo'lgan jiddiy munosabatni isbotidir. Oilani mustahkamlash bu, jamiyatni mustahkamlash va rivojlantirish ekanligi, davlatning oilaga bo'lgan munosabatini belgilovchi asosiy holatdir. Oilalar sog'lom bo'lsa, jamiyat ham sog'lom bo'ladi.

BUYUK MUTAFAKKIRLAR ASARLARIDA HARBIY MEROS MASALALARI

Ne'matova G.B.

Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
“Sharq filologiyasi” kafedrası o'qituvchisi

Har qanday davlatni uning mustaqilligini himoya qiluvchi muntazam qurolli kuchlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday ekan, mamlakatimiz istiqloqlga erishgan dastlabki kunlardan oq milliy armiyamizni shakllantirish, uni mustahkamlash va takomillashtirishga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Bu jarayonni to'liq amalga oshirish maqsadida ajdodlarimizning harbiy merosini chuqur o'rganish davr talabidir.

XV-XVI asrlarda Xuroson zaminida yashab ijod etgan buyuk mutafakkir Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) o'zidan keyin boy meros qoldirdi. Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” asari Husayn Boyqaroning o'g'li, Marv hukmdori Abulmuhsin Mirzoga bag'ishlangan bo'lib, u 40 bobdan iborat. Unda nafaqat falsafiy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy, shuningdek, harbiy masalalarga doir qimmatli fikr-mulohazalarga ham keng o'rin berilgan. Shu bois mazkur asarni chuqur va atroflicha o'rganish bugungi milliy armiyamiz poydevorini yanada mustahkamlashda, harbiy xizmatchilarni yurtparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularda yuksak axloqiy va ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” asarining o'ttiz ikkinchi bobi siyosat masalasiga bag'ishlangan. Uning fikricha, siyosat mamlakatni boshqarishdagi, ushlab turishdagi asosiy vositadir. Agar siyosat bo'lmasa, mamlakatda hech qanday foydali ish qilinmaydi, deydi. Hakimlarning aytishlaricha, “har ikki olamning madori siyosatdir. Agar siyosat bo'lmasa, barcha ishlar izdan chiqadi, agar adab berish va jazolash rasmi yo'q bo'lsa, muhim ishlar vayronlikka yuz qo'yadi”⁵¹. Bu yerda Voiz Koshifiy jamiyatdagi xudbin, faqat o'zini o'ylaydigan, loqayd va maqsadsiz odamlarni nazarda tutadi va ularning xatti-harakatlarini qattiq

⁵¹ Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy (“Yaxshi xulqlar”). – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010, 151-bet.

qoralaydi. Allomaning fikricha, “siyosatning foydasidan biri fitnani yo‘qotishdir, negaki, fitna qiluvchi odamlar g‘avg‘o va to‘polon qiluvchilar hisoblanadi. Agar ular siyosat olovining tezligini ko‘rsalar, o‘sha onda xilvatga qochadilar, agar siyosatda salgina sustlik paydo bo‘lsa, minglab fitnani paydo qiladilar va har tomonda notinchlikni yuzaga keltiradilar”.

Koshifiyning ta’kidlashicha, davlat boshliqlari davlat va jamiyat hayotida asosiy o‘rin egallaydilar. Shuningdek, u davlat boshlig‘i kamtar, adolatli, saxiy bo‘lishi, doimo xalq farovonligi, baxt-saodati to‘g‘risida qayg‘urishi zarur, deb hisoblaydi. Davlat boshlig‘iga yarashmaydigan salbiy illatlar bu ortiqcha hirs, maishat va ichkilikka berilishdir.

Mutafakkirning urushlar va ularning oldini olish yo‘llari haqidagi ilg‘or fikrlari ham tahsinga sazovor. Koshifiy o‘tmishning ilg‘or mutafakkirlari singari urushlarni, ayniqsa, bosqinchilik urushlarini, zo‘ravonlikni qattiq qoralaydi. Urush jabr-zulmni kuchaytiradi, xalq turmushini og‘irlashtiradi. Uning fikricha, urushni adolatsiz hukmdorlar olib boradi. Shuning uchun Koshifiy o‘zaro feodal urushlari, zo‘ravonlik, oddiy xalqni ezish, jabr-zulm o‘tkazishga qarshi chiqib, insoniylikka zid bunday xatti-harakatlarning oldini olish lozimligini aytadi.

Koshifiy “Axloqi Muhsiniy” asarining o‘ttizinchi bobini shijoatga bag‘ishlaydi. Uning fikricha, “shijoat fazilatlarining onasidir, ya’ni ulug‘ va yoqimli xislatlardandir. U botirlik, jasorat, mardlik ma’nolarini anglatadi. Shijoatli odamni hamma o‘ziga do‘st sanaydi. Shu bois, bu fazilat eng qiyin, mashaqqatli fazilatlardan biridir”⁵².

Buyuk mutafakkirning ta’kidlashicha, shijoatli odam shunday kishiki, o‘zini ulug‘ va og‘ir ishlarni bajarishga tayyorlaydi, ulug‘lik va sardorlik darajasiga o‘lib yetish uchun ko‘nglini jafo va alamlar yukini ko‘tarishga targ‘ib etadi. Shunda uning azamatlik shuhrati olamga taraladi va shavkatining ovozi masal kabi falaklarga yetadi. U o‘z fikrini davom ettirib, podshohning zaharli nayzasining uchi o‘g‘rilar kabi jon javharini olish uchun dushman ko‘kragi xazinasiga yo‘l ochishi va o‘tkir shamshiri ayyorlar kabi ruh gavharining qasdidan badan qutisi ichidan bosh chiqarishi kerak. Podshohning o‘zi botir bo‘lsa, lashkarining jur’ati ziyoda bo‘ladi, qo‘rqoq podshohga jahongirlik davlati muyassar bo‘lmaydi, deydi.

“Podshohlarga nasihatlar” kitobida yozilishicha, “agar yigit kishida adab bo‘lmasa, u gulsiz bir bo‘stonga o‘xshaydi, darvish odamda ma’rifat bo‘lmasa, nursiz ko‘zga o‘xshaydi, sohibjamol odamda hayo bo‘lmasa, tuzsiz taomga o‘xshaydi, parhezi bo‘lmagan olim, yugansiz otga o‘xshaydi, saxovati yo‘q boy, mevasiz daraxtga o‘xshaydi, adolati yo‘q podshoh, yomg‘iri yo‘q bulutga

⁵² Maxmudov R. Degonimni ulusqa marg‘ub et. – T.: O‘zbekiston, 1992, 76-bet.

o'xshaydi, shijoati yo'q sipoh, sarmoyasi yo'q savdogarga o'xshaydi"⁵³.

Chunonchi, Koshifiy shu o'rinda bir voqea tafsilotini tasvirlaydi. Arab podshohlaridan biriga dushman bilan jang qilishga to'g'ri kelib qoldi. Ikki lashkar saf tortib turganda, arab lashkarining amirlari podshohdan: "Ey podshoh, jang ishi ikki holdan ayri emas, yo g'alaba qilish yoki yengilish kerak. Agar taqdir hukmi bilan mabodo yengilib qolsak, seni qaerdan topamiz?" - deb so'radilar. Podshoh ularga: "Agar men qochsam va har kim meni bu holatda qidirsam, Olloh taoloning rahmatidan benasib bo'lsin! Bordi-yu dushman g'olib bo'lsa, meni otlarning tuyog'i ostidan qidiring", - deb javob berdi. Ko'rinib turibdiki, bu so'zdan maqsad, yo g'olib bo'laman va yo dushman tig'idan o'laman, deyishdir.

Voiz Koshifiy qo'shin, sipohlar va ularning vazifalari haqida hukmdorlarga qimmatli maslahatlar beradi. U hukmdor jangga kirganda quyidagi *o'n maslahatni* doimo esda tutishi zarur, deb hisoblaydi:

jangdan maqsading yaxshilik va tinchlikdan o'zga narsa bo'lmasin, talabing Haq diniga rivoj berish, zulm va fasodni olam yuzidan yo'qotish bo'lsin;

Haq taoloning dargohiga yuzlanish, undan madad tilash, duo va xayru sadaqa berishga intilish;

ehtiyotkorlik va uzoqni o'ylab ish tutishdan g'ofil bo'lmaslik, xabardor qiluvchi va josuslikni amalga oshiruvchilarni ishga solish, dushman lashkarining ahvoli va askarlarining sonini tekshirishni zarur deb bilish;

hammasi yakdil va bir tilli bo'lgan lashkarni hamroh qilish kerakki, sipohning ittifoqi zafar va quvvatning boisi, g'alabaning sababidir;

lashkarning ko'nglini yaxshi so'zlar bilan o'ziga bog'lash, ulug' va'dalarga vafo qilishni dilda niyat qilish kerak;

iloji boricha jang maydoniga o'zi kirishi kerak, agar kirmasa, lashkari yengilib qolsa, uning chorasini topish qiyin bo'ladi;

lashkarboshi va sipoh sardorligini shunday kishiga topshirish kerakki, quyidagi uchta sifat bilan orasta bo'lsin: shijoatli, tadbirli va tajribali;

har kim jangda shijoat va botirlik ko'rsatsa va o'z ishini boshqalardan yaxshiroq uddalasa, unga hadya va in'omni, tahsin va oqarinni ko'p qilish, balki buni ko'paytirish kerak, toki boshqalar ham shunga yetish orzusi bilan fidokorlikka rag'bat qilsinlar;

jang kuni g'aflatdan uzoq bo'lishi kerak, ko'pincha shunday bo'ladiki, zafar topishga yaqinlashganda, bir nafas jangdan g'ofil qolsa, ish butunlay o'zgacha bo'ladi;

⁵³ Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy ("Yaxshi xulqlar"). – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010, 139-bet.

agar dushman lashkari yengilsa orqasidan quvmaslik kerak va darhol odam yubormaslik lozim. Ko'pincha shunday bo'lganki, qochgan dushman lashkari orqaga qaytib, yuborilgan kishilarni qirib yuborgan va bundan dadillanib, yengib turgan katta lashkarni mag'lub qilganlar.

Voiz Koshifiy o'z fikrini davom ettirib, “agar sening oldingga bir odam urushmoq uchun kelsa, ikki holdan o'zgasi bo'lmaydi: yo sen unga teng kelasan yoki yo'q. Agar teng kelishga toqating bo'lsa, yaxshisi shuki, har qanday yo'l bilan bo'lsa ham, uni dushmanlikdan qaytar. Agar bu hol muyassar bo'lmasa, aytilgan o'nta shartlarga amal qilish bilan jangga mashg'ul bo'lish kerak. Agar teng kelishga toqating bo'lmasa, josus va qorovullarni ishga solib, yo'llarni saqlash va qal'alarni mustahkamlash zarur hamda zaxira jamlash, darvozalarni mahkam bekkitishda nuqsonga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Sulh talabida mol va pulni xarjlash, hiyla va nayrangni ishga solish kerak. Dushman sulh talab qilsa, qabul qilish lozim, qo'pollik qilmaslik kerak. Har kim sulhga rag'bat qilsa, zafar va g'alaba topadi”⁵⁴.

Shuningdek, “Axloqi Muhsiniy” asarida lashkarlarning tarbiyasi haqida ham barcha davrlar uchun qimmatli bo'lgan fikrlar bayon etilgan. Unda yozilishicha, “lashkar tarbiyasi zarur ishlardan bo'lib, uning foydasi to'rt narsadadir: birinchisi, ular podshoh quvvati va savlatidir. Ikkinchisi, dushmanlarni daf qiladi. Uchinchisi, raiyat tinchligini saqlaydi. To'rtinchisi, o'g'rilarni daf qiladi. Ularning shu ishlarni bajarishida to'rt shart mavjud. Birinchi shart shuki, podshoh farmonidan chetga chiqmasinlar va hukmdan tashqari ish qilmasinlar. Ikkinchi shart, podshoh bilan dili va tili bir bo'lsin. Uchinchisi, bir-birlari bilan ittifoq bo'lsinlar. To'rtinchi shart, jangda mardonalik ko'rsatsinlar. O'z navbatida, podshoh ham ularga to'rt ish qilishi kerak. Birinchisi shuki, minar otlari va aslahalarini muhayyo qilsin. Ikkinchisi, har birining martabasini bilsin va unga shu martabaga munosib muomala qilsin. Uchinchisi, ishchan kishilarni yaxshi tarbiya qilsin va lashkar ichida sarafroz etsin. To'rtinchisi, dushmandan qo'lga tushgan o'lja molidan ularni ham bahramand aylasin”.

Alloma bu fikrni asoslash maqsadida bir voqea tafsilotini keltiradi. Qubod to'g'risida aytadilarki, u kohindan so'radi: “Lashkarga qanday muomala qilay?”. Javob berdi: “Bog'bon bo'stondagi giyohdan xabardor bo'lib turganday doimo ular ahvolidan xabardor bo'lish kerak. Go'yoki qaysi giyoh ishga yaramasa, uni yulib tashlab, qaysi bir sabzadan foyda kelsa, unga qarab parvarish qilsin. Lashkar orasida ham shundaylar borki, ular hech ish qilolmaydi. Ularga essiz maosh. Ularning nomlarini maosh daftaridan yo'q qilishni buyurish va ishchan yigitlar

⁵⁴ Husayn Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy (“Yaxshi xulqlar”). – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – B. 142-143.

tarbiyasi bilan mashgʻul boʻlish lozim”. Qubod yana soʻradi: “Ularga maoshni qanday tayinlashim kerak?”. Javob berdi: “Moʻtadil ravishda. Chunki ularning turmushlari agar farovon boʻlsa, oʻzlaridan ketib, xizmatda tixirlik qilurlar. Agar ularning turmushlari nochor boʻlsa, norozi boʻlib, boshqa rahbarni xohlab qoladi”. Demak, “askarlar maosh olmasalar, ular xizmatdan bosh tortadilar, ular yordamga kelmaydilar. Shu tariqa podsholik qoʻldan ketadi”⁵⁵.

Voiz Koshifiy hukmdorlarga murojaat qilib zaiflar, beva-bechoralar va muhtojlarga qoʻl koʻtarmaslikni talab qiladi. Alloma oqilona farmoyishlar yordamida mehr-shafqat va saxiylik koʻrsatib dushmanning ishonchini qozonib, u bilan doʻstlashsa boʻladi, degan fikrni ilgari suradi. Koshifiy urush va janjallarga qarshi aql va donolik bilan oʻylab ish tutishni qarama-qarshi qoʻyadi. U kishilarni har qanday janjal chiqishiga yoʻl qoʻymaslikka, toki tinchlik toʻgʻrisida sulh tuzish imkoniyati bor ekan, urushni boshlamaslikka chaqiradi.

Shunday qilib, Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” asari va unda koʻtarilgan qoʻshinni boshqarish, lashkarlarning tarbiyasi toʻgʻrisidagi qimmatli fikrlar bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Oʻylaymizki, allomaning bunday ilgʻor va purmaʼno fikrlari milliy armiyamizni mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini oshirish va ularda yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashda muhim manba boʻlib xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Koshifiy, Husayn Voiz. Axloqi muhsiniy (“Yaxshi xulqlar”) /Husayn Voiz Koshifiy. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010. – 664 b.
2. Maxmudov, R. Dagonimni ulusqa margʻub et /R.Maxmudov. – T.: Oʻzbekiston, 1992. – 88 b.
3. Sotsialno-utopicheskiye idei v Sredney Azii /Otv. red. M.M.Xayrullayev. – T.: Fan, 1983. – 139 s.

YOSHLARNING HUQUQIY ONGI VA HUQUQIY MADANIYATI DARAJASINI YUKSALTIRISH MASALASI

Umarqulova Kamola
Maʼnaviyat asoslari va huquq taʼlimi
kafedrasi oʻqituvchisi

Mamlakatimizda bugungi kunda yoshlar masalasiga alohida eʼtibor qaratilib ularga davlat siyosati darajada yuksak ahamiyat berilmoqda. Mamlakat miqyosida

⁵⁵ Sotsialno-utopicheskiye idei v Sredney Azii. – T.: Fan, 1983, 132-bet.

qabul qilinayotgan qonun va qarorlar, farmon va farmoyishlar, aynan shu masalaga alohida e'tibor qaratishni taqozo qilmoqda. Shuningdek yoshlar siyosiy ongini oshirish hozirgi globalallashuv davridagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolayapti.

Ma'lumki har qanday qonun va qonuniy me'yorlar ham axloq qoidalarini asosida vujudga kelgan. Bugungi kunda mamlakatimizda qabul qilingan va amalda bo'lgan qonunlarning barchasi aslida yoshlarning mamlakatdagi o'rnini va ahamiyatini yanada oshirish, ularga har tomonlama yaratilayotgan imkoniyatlarning huquqiy mezonlarini ishlab chiqishdan iboratdir. So'nggi yillarda qabul qilingan va kuchga kirgan qator qonunlar, xususan, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida" (Mazkur qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2010 yil 12 avgustda qabul qilingan va Senat tomonidan 2010 yil 28 avgustda ma'qullangan) gi qonuni yoshlar orasida huquqbuzarlikni oldini olish, mazkur jarayonlarda o'quv muassasalari va ota-onalarning rolini yanada oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratib o'tilgan.

Yoshlar kundalik hayotida siyosiy madaniyat masalasi bugungi kunda ancha dolzarb masala bo'lib yoshlar siyosiy ongini, madaniyatini oshirish yo'lida juda katta ishlar olib borilmoqda. Yoshlar siyosiy madaniyati deganda avvalo bugungi zamonaviy yoshlarning mahalliy va jahonda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarga munosabati, mamlakatda qabul qilinayotgan, qonun, qonunosti hujjatlardan bevosita xabardor bo'lishi va unga amal qilishi, bu haqda yon atrofdagilarni ham ogohlantirib turishi ham tushuniladi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasida 2014 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturi⁵⁶ mazkur sohadagi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yoshlarning siyosiy madaniyati ularning kundalik hayotdagi huquqiy madaniyati darajasini belgilaydi. Har kuni yoshlar turli darajadagi huquqiy me'yorlarga duch keladilar. Ularni to'g'ri anglab yetish va munosabat bildirish olish yoshlarning huquqiy bilimlari, huquqiy ong va huquqiy madaniyatlarini u yoki bu darajada ekanligini ko'rsatadi. Yoshlar kundalik turmush tarzida huquq va majburiyatlarning turli xilini bajarib, ayrim hollarda esa turli sabablar tufayli har xil xatoliklarga yo'q qo'yishga majbur bo'ladilar. Bu kabi holatlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasida qator qonun va qoidalar, farmon va farmoyishlar ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Yoshlarning kundalik hayotida doimiy ravishda murojaat qiladigan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni, ularning fuqarolik va huquqiy burchlari, mehnat

⁵⁶ <http://lex.uz/>.

va iste'molchilik huquqlari kafolati hisoblangan O'zbekiston Respublikasining Mehnat va Fuqarolik Kodekslarini qay darajada bilishi masalasida o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatdiki, so'rab chiqilganlar Jinoyat, Mehnat va Fuqarolik Kodekslariga qaraganda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunga ko'proq murojaat qilar ekanlar. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi"ni qisman o'qigan so'rab chiqilganlarining 34,4 foiziga qaraganda so'rab chiqilganlarning 45,9 foizi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun bilan qisman tanish ekanligini qayd etdi.⁵⁷

So'ralganlarning ko'pchiligi uchun ta'lim muhim qadr-qimmatni o'zida ifoda etishi bilan, ularning ko'pchiligi oliy o'quv yurtlariga kirishni xohlayotgan maktab va o'rta maxsus o'quv yurtlari talabalari ekanliklari bilan ushbu tafovutlarni tushuntirish mumkin.

Yoshlar orasida siyosiy madaniyatini yanada oshirish yoshlarning o'z huquq va erkinliklarini yanada teranroq anglashlariga yordam beradi. Bu borada o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, aksariyat yoshlar huquqiy madaniyatni oshirishda avvalo O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaxshilab o'rganish lozimligini ta'kidlaydilar.

Siyosiy madaniyat masalasida gap borar ekan yoshlar kundalik hayotida siyosiy partiyalarning ahamiyati masalasi ham muhimdir. Bu borada siyosiy partiyalar tomonidan olib borilayotgan ishlar, yoshlar kundalik hayotida siyosiy partiyalarning o'rni va rolining qanday ekanligini ham tahlil qilish dolzarb hisoblanadi. Sir emaski ayrim yoshlar siyosiy partiyalarga a'zolikni ma'qul ko'rishsa, ayrimlari esa aksincha, u yoki bu sabab bilan ularga a'zo bo'lmaslikka harakat qilishadi. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi ular davlatiing ichki siyosiy hayoti, asosiy siyosiy institutlar (Oliy Majlis, siyosiy partiyalar va b.) faoliyatidan qanchalik xabardor ekanligiga ham bog'liqdir.

Bu haqda o'tkazilgan so'rov doirasida yoshlarning O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar to'g'risida qay darajada ma'lumotga egaligi, shuningdek siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar dasturlarida pozitivistik ruhni kuchaytiruvchi g'oyalar mavjudligi, o'zlaridagi bunyodkorlik rag'batini qaysi siyosiy partiya orqali ro'yobga chiqarishi mumkinligi to'g'risidagi fikri o'rganildi.

Unga ko'ra, respondentlarning O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar haqida ma'lumotga egalik darajasini o'rtacha deb baholash mumkin. Ya'ni so'rovda ishtirok etgan yoshlarning 69.8 foizi siyosiy partiyalar to'g'risida o'rta darajada bilishini ta'kidlagan. 12% respondent siyosiy partiyalar haqida yaxshi bilishini, 9.3 foizi esa ma'lumotga ega emasligini aytgan. 9% respondent ushbu savolga javob berishga qiynalgan.

⁵⁷ O'zbekiston yoshlari ijtimoiy qiyofa. – T.: "Ijtimoiy fikr". 2008. 69-bet.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yoshlarning siyosiy madaniyatini oshirishda konstitutsiya va qonunlarning o‘rni va ahamiyati naqadar yuksakligini inobatga olgan holda, mazkur hujjatlar bilan yoshlarning doimiy ravishda birga bo‘lishlari va ularga rioya qilishlari mamlakat kelajagi buyukligini ta’minlaydi.

YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASIDA TA’LIM MASALALARI

*Otamuratova Sadoqat Ravshanovna
TDPU Ijtimoiy gumanitar fanlarni
o‘qitish metodikasi (ma’naviyat asoslari)
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Ta’lim olish huquqining Konstitutsiya darajasida qayd etilishi yuksak ahamiyat hamda ulkan ma’no-mazmun kasb etadi. Zero, bugungi kundagi eng qimmat resurs hisoblanmish inson kapitalining yaratilishida ta’lim tizimining o‘rni beqiyos hisoblanadi. “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga boshlovchi bilim”) asarining muallifi Yusuf Xos Hojibning tabiri bilan aytganda “Hamma ezguliklar bilim tufaylidir. Bilim tufayli go‘yo ko‘kka yo‘l topiladi”. Darhaqiqat, ta’lim jarayoning natijasi, albatta, bilimli yoshlarni tarbiyalash, O‘zbekiston Respublikasining ilm-fan sohasidagi muvaffaqiyat cho‘qqilarini egallash hisoblanadi.

Jumladan, Prezidentlik lavozimiga kirishgandan dastlabki kunlaridanoq SH.Mirziyoev ta’lim, o‘qituvchi va uning jamiyatdagi nufuzini oshirish borasida davomli fikrlarni ilgari surib keldi. Jumladan, 2022 yilda Prezident SH.Mirziyoevning mamlakat parlamentiga yo‘llagan murojaatnomasida eng ko‘p ishlatilgan so‘z “**ta’lim**” bo‘lganligi, shuningdek 2023 yilni “**Insonga e’tibor va sifatli ta’lim**” yili deb e’lon qilganligi Yangi O‘zbekistonda ta’limga e’tibor davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligidan guvohlik beradi.

Shubhasiz, olib borilayotgan har bir islohotning samarali natijalar keltirishida uning huquqiy asoslari qay darajada puxta, tizimli va mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilganligiga bog‘liq. SHu maqsadda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida boshqa muhim masalalar qatorida ta’lim munosabatlari ham yangicha ruh va yangicha yondashuv asosida o‘z in’ikosini topdi. Xususan, Asosiy qonunimizning 50-moddasida belgilangan “**har kim ta’lim olish huquqiga ega**” mazmunidagi norma ta’lim sohasining huquqiy asoslari uchun muhim printsip bo‘lib yangragan bo‘lsa, mazkur moddaning “**Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi**” tarzida davom ettirilishi davlatimizning zamonaviy ta’limga nisbatan

konstitutsiyaviy darajada ifodalangan yondashuvi sifatida barchada yorqin taasurot uygʻotdi. Sababi taʼlimning turlari bilan birga “ishlab chiqarishdan ajralgan holda taʼlim olish (kunduzgi)”; “ishlab chiqarishdan ajralmagan holda taʼlim olish (sirtqi, kechki, masofaviy)”; “dual taʼlim”; “oilada taʼlim olish va mustaqil taʼlim olish”; “katta yoshdagilarni oʻqitish va ularga taʼlim berish”; “inklyuziv taʼlim”; “eksternat tartibidagi taʼlim” kabi taʼlim shakllarining davlat tomonidan eʼtirof etilishi va ularning teng rivojlanishi uchun sharoit yaratib berilishi milliy taʼlim tizimi rivojidagi ulkan yutuqlardan biri sifatida tarixda qoladi.

Davlat tomonidan nafaqat davlat taʼlim tashkilotlarini rivojlantirish uchun, shu bilan birga nodavlat yoki xususiy taʼlim tashkilotlari yoxud davlat xususiy sheriklik asosidagi taʼlim tashkilotlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi, yaʼni muhim qonunchilik hujjatlarini qabul qilish, subsidiyalar yoki imtiyozli kreditlar berishi kabi yoʻllar bilan yordam koʻrsatishi belgilab qoʻyilmoqda. Natijada bugungi kunga kelib mamalkatimizdagi jami 210 ta oliy taʼlim muassasalari mavjud boʻlib, shundan 80 tasi nodavlat va xorijiy oliy oʻquv yurtlari hisobiga toʻgʻri kelmoqda. Taʼlim olish huquqining Konstitutsiya darajasida qayd etilishi yuksak ahamiyat hamda ulkan maʼno-mazmun kasb etadi. Zero, bugungi kundagi eng qimmat resurs hisoblanmish inson kapitalining yaratilishida taʼlim tizimining oʻrni beqiyos hisoblanadi.

Taʼlimning bir turi sifatida Bosh qomusimizda oliy taʼlim masalalariga ham alohida eʼtibor qaratilganligi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning eng diqqatga sazovor jihatlaridan biri hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda zamonaviy kasb va koʻnikmalarga ega, raqobatbardosh kadrlarni yetkazib berish, shuningdek fan-texnika rivojining lokomotivi va tom maʼnodagi yadrosi darajasiga koʻtarilish uchun oliy taʼlim muassasalariga zamonaviy yondashuvni talab etardi. Bu chaqiriqqa javob sifatida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ***Oliy taʼlim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, oʻzini oʻzi boshqarish, tadqiqotlar oʻtkazish va oʻqitish erkinligi huquqiga ega*** ekanligi qayd etildi. Akademik sohada, boshqaruv, ilmiy-tadqiqotlar olib borish, shuningdek oʻqitish borasidagi erkinlik oliy oʻquv yurtlariga bir qator imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Jumladan:

qotib qolgan qoliplardan xalos boʻlgan holda zamon talablariga mos oʻquv reja va oʻquv dasturlarini ishlab chiqish hamda ular asosida sifatli taʼlim berish;
talabalarga oʻzlari oʻqiydigan fanlarni tanlash imkoniyatini berish orqali oliy taʼlimning jozibadorligini oshirish;

xalqaro nufuzli oliy taʼlim muassasalari va ishlab chiqarish tashkilotlari bilan oʻzaro manfaatli hamkorlik aloqalarini oʻrnatish;

talabalarni ilm-fanning eng so'ngi yutuqlari bilan tanishtirish hamda ularda keng dunyoqarashni shakllantirish maqsadida akademik mobillik dasturlarini yo'lga qo'yish; "Universitet 3.0" modeli asosida fan-ta'lim natijalarini tijoratlashtirish.

Bosh qomusimizning 1-moddasida O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy davlat sifatida e'lon qilinishi ta'lim sohasida ham o'z aksini topdi. Xususan, ***"Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi".*** SHuningdek, ***"Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi"*** mazmunidagi konstitutsiyaviy normalarni davlatning o'z fuqarolari oldidagi ulkan g'amxo'rligi sifatida qabul qilish mumkin. Zero, imkoniyatlaridan qat'i nazar har bir bolaning sifatli ta'lim olishi va u orqali o'zini, dunyoni, qo'yingki, butun borliqni anglashiga yordamlashish va eng muhimi bu boradagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yishni ta'minlanishi ta'lim sohasida Asosiy qonunimiz yaratgan eng katta imkoniyatlardan biri sanaladi. Konstitutsiyada ilk marotaba inklyuziv ta'lim uchun sharoit yaratishga oid alohida normaning belgilanishi alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun ta'lim va tarbiya ularning jismoniy va aqliy rivojlanishini hisobga olgan holda tashkil etilishi, ta'lim olish jarayonida ularni biror-bir shaklda kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, barcha bolalarning tengligi ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan 21 231 nafar bolalar uchun respublikamizda 90 ta ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, yengil darajadagi nogironligi bo'lgan 18 000 nafarga yaqin o'quvchilar maktablarda sog'lom bolalar bilan birgalikda o'qishmoqda.

Qolaversa, asosiy qonunimizda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir" mazmunidagi normaning mavjudligi davlatning ta'lim va tarbiya sohasidagi asosiy majburiyatlarini ham belgilab beradi. Konstitutsiyamizda mazkur normaning belgilanishi va davlat rahbarining olib borayotgan bu boradagi siyosati natijasida ta'lim bo'yicha bir nechta xalqaro reytinglarda mamlakatimizning o'rni yuqorilab bormoqda. Jumaldan, joriy yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27,7 foizdan 72 foizga, MTTlar soni 5211 tadan 29 mingdan ziyodga yetkazildi. 2022 yilda "Finance inquirer" nashri bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilish bo'yicha eng yaxshi dinamikaga ega bo'lgan dunyodagi eng peshqadam 10 ta davlatni e'lon qildi. Unda O'zbekiston jahon reytingida birinchi o'rinni egalladi.

So'zsiz, ta'lim haqida gap ketganda, avvalo, ko'z o'ngimizda o'qituvchi-pedagog gavdalanadi. Ushbu shaxsning huquqiy maqomi, unga yaratib beriladigan shart-sharoitlarni hal qilmasdan turib, sifatli zamonaviy ta'lim haqida o'ylash mumkin emas, aslida. Ushbu haqiqatni chuqur his qilgan holda ishlab chiqilgan

Konstitutsiyamizning 52-moddasi quyidagicha ko‘rinish oldi: **“O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etiladi”**. Mazkur Konstitutsiyaviy normaning mohiyatini teran anglaydigan bo‘lsak, nihoyatda keng qamrovli ma‘no kasb etishini tushunib yetamiz. Sababi O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish, munosib avlodni shakllantirish, shu bilan birga xalqimizning ma‘naviy va madaniy salohiyatini yanada boyitishning asosi sifatida o‘qituvchining mehnati ko‘rilmoqda.

Albatta, o‘qituvchi shaxsiga berilgan bunday e‘tiborning mantiqiy davomi bo‘lishi ham tabiiy hol edi. SHu sababli Konstitutsiyamizning keyingi o‘rnida davlat o‘qituvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi ta’kidlandi. Ushbu konstitutsiyaviy normalarni hayotga to‘laqonli tadbqiq etish maqsadida qator qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilmoqda. Jumladan, keng muhokamalar asosida loyihasi tayyorlanayotgan “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunini keltirib o‘tish mumkin. Muxtasar qilib aytganda, ta’limga bo‘lgan e‘tibor Bosh Qomusimizda alohida qayd etilishi va bu boradagi davlatimiz tomonidan olib borilayotgan keng ko‘lmali islohotlar kelajakda O‘zbekistonning ilm-fan sohasidagi muvaffaqiyat cho‘qqilarini egallashiga xizmat qiladi.

TA’LIM OLISHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI.

Jonibek Qo‘chqorov
Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi
3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: N.M.Akayeva

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham ta’lim olish huquqi alohida huquq normasi (50-modda) sifatida mustahkamlangan. Mazkur huquq ko‘plab xalqaro hujjatlarda e‘tirof etiladi. 1948 yil 10 dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasida, 1966 yil 16 dekabrda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 13-14-moddalari, 1950 yil 4 noyabrda Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa Konventsiyasi 1-sonli Protokolining 2-moddasi, 1960 yil 14 dekabrda Ta’lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurashish Konventsiyasining 1-7-moddalarida aks ettirilgan.

Yillar davomida rivojlangan davlatlar ro'yxatida eng yuqori o'rinlarda turuvchi mamlakatlar taraqqiyoti zahirida, eng avvalo, ta'lim va unga nisbatan jamiyat va davlatning munosabati yotishi ko'p bora ta'kidlab kelindi.

Ushbu aksioma bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi, aksincha yanada dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan ahamiyat kasb etayotganligini chuqur anglangan holda mamlakatimizda ham o'ziga xos islohotlar yo'lga qo'yildi. Ularni hayotga samarali tadbir etish borasida olg'a va dadil qadamlar tashlanmoqda.

Ta'lim olish huquqining Konstitutsiya darajasida qayd etilishi yuksak ahamiyat hamda ulkan ma'no-mazmun kasb etadi. Zero, bugungi kundagi eng qimmat resurs – inson kapitalining yaratilishida ta'lim tizimining o'rni beqiyos hisoblanadi. Ta'lim olish huquqi har bir insonning fundamental huquqlaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim olish huquqi o'z mohiyatiga ko'ra shaxsning sub'ektiv huquqi, chunki butun jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib, bilim, malaka va kompetentsiyaga ega bo'lishda davlat tomonidan ta'minlanadigan tashkiliy imkoniyatlar mavjud bo'lishini kafolatlaydi.

Mamlakatimizda ta'lim olish huquqining Asosiy qonun darajasida mustahkamlanishi bu boradagi davlat siyosati naqadar ahamiyatli ekanligi va jamiyatning ta'lim darajasini oshirish mamlakatimiz oldida turgan eng asosiy maqsadlardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Jahon standartlariga muvofiq, ta'lim olish huquqini ta'minlashda "4A" tizimiga asoslanish lozimligi belgilanadi. Bunda "ta'lim tizimining mavjudligi", "barcha shaxslar teng foydalana olishi", "qabul jarayonlarining ochiqqligi" va "ta'lim tizimining zamonaviy tendentsiyalarga moslashuvchanligi"ga barcha davlatlar amal qilishi va shu asosida ta'lim tizimini yo'lga qo'yishi talab etiladi.

BMT tomonidan ishlab chiqilgan mazkur me'yorlar mamlakatimizning ta'lim tizimida to'liq qo'llaniladi.

Shuningdek, ta'lim olish huquqi umum tan olingan bir necha printsiplarni o'z ichiga oladi:

Xalqaro umum e'tirof etilgan hujjatlarni tadqiq etish orqali ishlab chiqilgan mazkur printsiplarni ko'rib chiqish asnosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida mazkur printsiplarning barchasi mujassamlashtirilganligiga guvoh bo'lish mumkin.

Konstitutsiyamizda alohida normaning belgilanishi va davlat rahbarining olib borayotgan bu boradagi siyosati natijasida ta'lim bo'yicha bir nechta xalqaro reytinglarda mamlakatlarimizning o'rni yuqorilab bormoqda. Jumladan, 2022-2023 yilda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 27,7 foizdan 72

foizga, MTTlar soni 5211 tadan 29 mingdan ziyodga yetkazildi. Ayni vaqtda esa dunyoda jami 300 millionga yaqin bolalar ta'lim olish huquqidan mahrum bo'lmoqda.

2022 yilda "Finance inquirer" nashri bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilish bo'yicha eng yaxshi dinamikaga ega bo'lgan dunyodagi eng peshqadam 10 ta davlatni e'lon qildi. Unda O'zbekiston jahon reytingida birinchi o'rinni egalladi.

Muxtasar qilib aytganda, ta'lim sohasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar kelajakda O'zbekistonning ilm-fan sohasidagi muvaffaqiyat cho'qqilarini egallashiga xizmat qiladi.

BOLA HUQUQLARINING XALQARO HUJJATLARDA KAFOLATLANISHI.

Mamanazarov Solijon Sherzodovich o'g'li
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalish
2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: X.Jumaniyozov

O'zbekiston istiqbolga erishgach, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mintaqasida birinchilardan bo'lib "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konventsiyani 1992 yil 9 dekabr kuni ratifikatsiya qildi. Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar asosiy huquq va erkinliklarini belgilovchi hujjat – bu BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan va 1990 yil 2 sentyabrda kuchga kirgan "Bola huquqlari to'g'risida"gi konventsiyadir.

Konventsiya ustida taxminan 10 yil ishlendi va nihoyat 1989 yil 20 noyabr kuni Bola huquqlari deklaratsiyasining 30 yilligi sanasida "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konventsiya ma'qullandi. Konventsiyaning asosiy g'oyasi – bolaning eng yaxshi manfaatlarini ta'minlash bo'lsa, uning qoidalari bolalar huquqlarini ta'minlashi kerak bo'lgan 4 ta asosiy talabga jamlangan. Omon qolish, rivojlanish, himoya qilish va jamiyatda faol ishtirokini ta'minlash shular jumlasidan.

O'zbekiston Respublikasi mazkur konventsiyani ratifikatsiya qilish bilangina cheklanmadi. Hozirgi kunga qadar "Bola huquqlari to'g'risida"gi konventsiyaga doir, bolalarning qurolli mojarolarda ishtirokiga taalluqli fakul'tativ protokol (Nyuy-York, 2000 yil 25 may) va bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli fakul'tativ protokolni (Nyuy-York, 2000 yil 25 may) ham ratifikatsiya qildi.

Konventsia **54 ta moddadan iborat** bo'lib, unga binoan, **bola mustaqil shaxs sifatida** qabul qilinadi. Konventsia bolani o'ziga xos huquqlarga ega bo'lgan shaxs sifatida tavsiflaydi. Va nihoyat, 2008 yilda O'zbekiston parlamenti tomonidan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Ushbu qonunning 1-moddasida bolaga tushuncha berilgan. Ya'ni, unga ko'ra bola (bolalar) o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar bo'lgan shaxs. Bola huquqlari – bolaga nisbatan inson huquqlari toifasi, irqi, jinsi, tili, dini, tug'ilgan joyi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har bir bola ega bo'lishi kerak bo'lgan huquq va erkinlikdir, xalqaro huquqda 18 yoshga yetmaganlarning barchasi bola deb tan olinadi.

Bolaning huquq va erkinliklari yangi Konstitutsiya himoyasida

Mamlakatimizda 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinib, u Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Bu borada bolaning huquq va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash va kafolatlash yangi Konstitutsiyada mustahkamlanishi, bu masala davlat darajasiga ko'tarilganligini yaqqol isbotidir. Jumladan, Bosh qomusimizning 44-moddasiga asosan bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan ta'lim olishga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlandi.

Shuningdek, ilk bor Konstitutsiyaning 50-moddasida ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi alohida mustahkamlandi. Eng muhimi. yangi Konstitutsiyaga Oila, bolalar, Yoshlar deb nomlangan yangi bob kiritilib, unda bolalarning maqomi yanada kuchaytirildi.

Xususan, Bosh qomusimizning 77-moddasida ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetgunga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar. Mazkur moddada davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlanishi ham belgilab qo'yilgan.

Asosiy qonunimizning 78-moddasida esa bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va

madaniy jihatdan to'laonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekanligi alohida ko'rsatilgan.

Mamlakatimizda bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularni doimo qo'llab-quvvatlash, huquqlarini himoya qilishga davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratilayotgani bejis emas. CHunki yurtimizda bolalar hayotimiz davomchilari, kelajagimiz vorislari sifatida qadrlanib, mamlakatning katta xazinasi hisoblanadi. Agar bolalarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi va orzu intilishlarini ro'yobga chiqarishga zarur sharoitlar yaratilsa, ularda oldinga intilish, harakat bo'ladi. Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgan ushbu yangiliklar shubhasiz, farzandlarimizning har jihatdan sog'lom, hur fikrli avlod sifatida kamolga yetishishiga xizmat qiladi.

BOLA HUQUQ BA ERKINLIKLARI QONUN HIMOYASIDA

Hamroyeva Yulduz Akromovna

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: A.Rasulova

O'zbekiston bolaning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hujjatlarni va shu asosda qabul qilingan qonunlar ijrosini ta'minlashda bosqichma-bosqich, tizimli ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2017 yildan boshlab, davlatning bu boradagi faoliyati tubdan o'zgardi. CHunki, endilikda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar "Inson manfaati hamma narsadan ustun" degan tamoyilni amalda ro'yobga chiqarishga qaratildi. Bunga quyidagi misollar keltirish mumkin.

Masalan, bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning institutsional va huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish maqsadida Prezidentimizning 2019 yil 22 apreldagi tegishli qarori bilan "Bola huquqlari to'g'risida"gi konventsia talablarini har tomonlama hayotga tatbiq etish, O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarida nazarda tutilgan bolalarning huquqlarini amalda kafolatlash, ularning jismoniy, intellektual va ma'naviy yetuk avlod bo'lib yetishishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari – Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi tashkil etildi.

Shuningdek, bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash va ushbu sohadagi xalqaro majburiyatlarni bajarishning ta'sirchan tizimini yaratish

maqsadida 2020 yil 29 may kuni “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Hujjatda Bola huquqlari bo‘yicha vakilning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari aniq belgilab berildi.

Prezidentimizning 2021 yil 9 avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon bilan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) o‘rinbosari — Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimi tugatilib, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) instituti ta’sis etildi.

Ushbu farmon bilan:

Birinchidan, Bola huquqlari bo‘yicha vakil o‘z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari, ularning mansabdor shaxslariga tobe bo‘lmagan tarzda amalga oshirishi, o‘z faoliyatida Oliy Majlis palatalariga hisobdor ekanligi;

Ikkinchidan, Bola huquqlari bo‘yicha vakil Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanishi;

Uchinchidan, Bola huquqlari bo‘yicha vakil lavozimiga nomzod O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko‘rib chiqishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kiritilishi mustahkamlandi.

Bola huquqlari bo‘yicha vakilga — bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ishonchli himoya qilinishini ta’minlash, ularning ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lishining oldini olish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari va tarbiya koloniyalari faoliyatida bola huquqlariga rioya etilishini monitoring qilish vakolati berildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada bolaning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini kafolatlash va ta’minlash qonunchilikda o‘z ifodasini topmoqda. Masalan, 2020 yilda parlament tomonidan “Bola huquqlarining qo‘shimcha kafolatlari belgilanishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan bir qator qonunlarimizga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi.

Jumladan, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasiga “Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganda, shu jumladan, ota-ona (ulardan biri) yoki ota-onaning o‘rnini bosuvchi shaxslar bolaga ta’minot, tarbiya, va ta’lim berish bo‘yicha majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda yohud ota-onalik huquqlarini suiiste’mol qilganda bola o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini so‘rab vasiylik va homiylik organiga, shuningdek boshqa davlat organlariga mustaqil ravishda murojaat qilishga haqli ekanligi hamda bunday murojaat bola to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lmaganligi sababli ko‘rib

chiqmasdan qoldirishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risida o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Qonunning 15-moddasining matni esa oilada har qanday masala hal qilinayotganda bola o‘z fikrini ifoda etishga, shuningdek har qanday sud muhokamasi yoki ma‘muriy muhokama jarayonida so‘zlashga haqli ekanligi belgilanib, bunda qaror qabul qilishga vakolatli bo‘lgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda bolaning fikrini, uning yoshidan qat’iy nazar, ko‘rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi to‘g‘risida tahrir qilindi. Oila kodeksining 68-moddasi qaror qabul qilishga vakolatli bo‘lgan organlar va mansabdor shaxslar bolaning manfaatlariga taalluqli masalalarni hal qilishda bolaning fikrini, uning yoshidan qat’i nazar, ko‘rib chiqishi hamda bolaning eng ustun manfaatlaridan kelib chiqqan holda qarorlar qabul qilishi kerakligi to‘g‘risida yangi mazmundagi jumla bilan to‘ldirildi. “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga esa voyaga yetmagan shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari deb nomlangan yangi 24¹-modda kiritildi.

Mazkur moddaga binoan voyaga yetmagan shaxslar o‘z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi masalalari yuzasidan davlat organlariga, tashkilotlarga yoki ularning mansabdor shaxslariga ushbu qonunda belgilangan tartibda mustaqil ravishda murojaat berishga haqli ekanligi belgilangan. Shu bilan birga, mazkur moddada davlat organlari, tashkilotlar yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan voyaga yetmagan shaxsning murojaatlarini ko‘rib chiqish uning qonuniy vakillari, shuningdek vasiylik va homiylik organlari ishtirokida amalga oshirilishi mumkinligi hamda voyaga yetmagan shaxslar to‘liq muomala layoqatiga ega bo‘lmagani sababli ularning murojaatlarini ko‘rib chiqmasdan qoldirishga yo‘l qo‘yilmasligi mustahkamlangan.

Joriy yilning aprel oyida "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinib, bolaning huquq va erkinliklari yanada kuchaytirildi.

Ushbu qonun xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini taziyq va zo‘ravonlikdan ishonchli himoya qilishning institutsional hamda huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirishga, bolalar orasida nazoratsizlikning va ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga, shuningdek nogironligi bo‘lgan bolalarni hamda ota-ona qaramog‘idan

mahrum bo‘lgan bolalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

SOG‘LOM VA BILIMLI YOSH AVLOD MILLAT RAVNAQINING POYDEVORI.

Avezova Kamola Hazratovna

*TDPU Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi
(ma’naviyat asoslari) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti*

Istiqlol yillarida ijtimoiy-gumanitar sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlar jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo‘naltirilgan davlat xarajatlari 5 barobar ko‘paydi, xalqimiz turmush darajasi sezilarli ravishda oshdi. Xususan, “Bolalarni asraylik” xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan jahon reytingida O‘zbekiston bolalar salomatligi mustahkamlash borasidagi katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatayotgan eng ilg‘or yetakchi o‘n mamlakat qatoridan joy oldi.

Mamlakatimizda mustaqillikni dastlabki yillardanoq inson huquqlariga oid xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillariga tayanib, bola huquqlarini himoya qilish tizimini bosqichma-bosqich isloh etish, bola huquqlariga oid xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va qonunchilikni takomillashtirishga jiddiy e’tibor qaratildi. Bu borada voyaga yetmaganlarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ko‘zda tutuvchi muhim islohotlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonda Bola huquqlari bo‘yicha 100 dan ziyod Qonunlar, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Eng muhimi, mamlakatimizda bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha kompleks huquqiy asoslar yaratildi.

Ayniqsa 2008 yil 7 yanvarda qabul qilingan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” gi Qonun O‘zbekistonda bola huquqlariga oid birinchi tarixiy hujjat bo‘ldi. Mazkur Qonunning qabul qilinishi, birinchidan, bola huquqlariga oid qonun hujjatlarining kodifikatsiya qilinishiga zamin yaratishga, ikkinchidan, BMT ning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasida belgilangan bola huquqlarni himoya qilishga oid xalqaro standartlarga milliy qonunchilikning mosligini ta’minlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, bola huquqlarini himoya qilish mexanizimining oshkora va samarali bo‘lishi uchun bola huquqlari himoya qilinishning aniq kafolatlarini belgilab olishga imkoniyat berdi.

Shuningdek 2010 yil 30 sentabrda “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzurliklarning profilaktikasi to‘g‘risida” gi Qonunning amalga kiritilishi bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy

asoslarini yanada mustahkamladi. Ya'ni ushbu Qonun voyaga yetmaganlarning nazoratsizligini va ular o'rtasida huquqbuzarliklar kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan kompleks huquqiy chora-tadbirlar tizimini belgilab berdi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bollarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda ularga keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan o'ta muhim umummilliy davlat dasturlari qabul qilindi. Endilikda ular bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Bunday muhim hujjatlar yurtimizda inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish borasida o'ziga xos huquqiy taraqqiyotga erishilganligining yorqin amaliy ifodasidir.

Umuman aytganda, bugungi kunda O'zbekistonda bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'ziga xos milliy huquqiy tizim shakllangan bo'lib, ayni paytda mamlakatimiz bu yo'lda dadil qadam tashlayotgan davlatlardan biridir. Nima uchun O'zbekistonda Bola huquqlariga katta e'tibor qaratiladi. Buni quydagilar bilan izohlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi aholisining 40% ni 18 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etadi, 64% ni esa – 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.

Shu sababli, inson huquqlari va erkinliklari sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bolalar va yoshlarning jismoniy, intellektual va ma'naviy rivojlanishi uchun qulay va eng yaxshi sharoitlarni yaratish, shuningdek ko'p bolali oilalarni, yetim bolalarni va oila muhitidan mahrum bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash hisoblanadi.

Mamlakatimizda bolalar huquqini himoya qilishning zarur huquqiy bazasi yaratilgan. Ta'kidlash joizki, mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston qo'shilgan ilk xalqaro shartnomalardan biri BMT ning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasidir.

Inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik asosi avvalo O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan meyorlar va qonunlarga tayanadi. Milliy qonunchilikdagi ustuvor yo'nalishlardan biri-bu bolalikni muhofaza qilish bo'yicha BMT xalqaro konvensiyalari qoidalarini implementatsiya qilishdan iborat bo'lib, mazkur yo'nalishda YuNISEF bilan faol hamkorlik olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi 1992 yil 9 dekabrda BMT ning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini ratifikatsiya qilishi bola huquqlariga oid davlat siyosatining shakllanishi uchun zamin yaratdi va ushbu siyosat bola huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun samarali mexanizimni yaratishga qaratilgan davlat organlari va

mahalliy davlat hokimiyati organlarining izchil olib borilayotgan faoliyatida namoyon bo'lmoqda.

Bola huquqlarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi BMT ning; 1) Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro PAKT;
2) Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro PAKT;
3) Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya;
4) Irqiy kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi konvensiya va qiynoq va muomila va jazoning shafqatsiz, noinsoniy va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa turlari to'g'risidagi konvensiyasi kabi boshqa asosiy xalqaro shartnomalariga ham tayanadi.

BMTning oltita asosiy xalqaro hujjatiga qo'shilgach, O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan printsiplari va normalariga muvofiq tarzda bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha muayyan xalqaro majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi.

Mamlakatimizda bola huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, farzandlarimizning qonuniy manfaatlarini muhofaza etish, eng muhimi, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Birinchi Prezidentimiz "Farzandlarimiz bizdan afzalroq, bizdan o'tkirroq, bizdan pokroq, savob ishlarni bizdan ham ko'proq qiladigan bo'lishlari lozim.

Ular jahon umumbashariy yutuqlarini egallashi, tariximizni, madaniyatimizni, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni chuqur bilmog'i kerak. Bizning asosiy kuch-qudratimiz va kelajagimiz ana shunda. Bugun zo'r umidlar bilan qurayotgan yangi jamiyatimizning mazmun mohiyati ham aslida ana shundadir" degan so'zlari bejiz emasdi.

Farzandlarning yashashi, kamol topishi uchun oila birdan-bir makon va tabiiy muhit bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasiga asosan, bola tug'ilgan va yashab turgan oilaga uning farovon hayot kechirishi va kamolga yetishi haqida g'amxo'rlik qilish, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish vazifasi yuklatiladi.

Shu bois, bola huquqlarini ta'minlash va himoya qilish uchun zarur bo'lgan huquqiy va tashkiliy sharoitlar va kafolatlar yaratish O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

QONUN USTUVORLIGI ADOLATLI JAMIYAT QURISHNING ASOSIY SHARTI

Ahmadjonova E'zoza

O'zbekiston qisqa muddatda o'nlab yillarga teng taraqqiyot bosqichidan o'tib, o'ziga xos taraqqiyot modelini yaratib, keng ko'lamli yutuqlar ko'lamini muttasil oshirib bordi. Ushbu rivojlanish modelining asosiy xususiyati nafaqat dinamik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, balki demokratik mezonlar, shuningdek, qonun ustuvorligini kiritish, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarida jadal o'sishni muvaffaqiyatli ta'minlash muhim ahamiyat kasb etdi. Qadimgi yunon faylasufi Demokritning yozishicha, siyosat odamlarni ishontirish, ularni ma'lum maqsadlarga safarbar etish, ongiga ta'sir etish vositasidir. Siyosiy rahbar ishonch qozonish uchun tanlagan vositalari qanchalik halol va sof bo'lsa, xalqning ishonchi shunchalik mustahkam bo'ladi. M.A.Atavullaev "Ma'naviy-axloqiy imperativlar huquq, yuridik dogmatikaga qanday muhtoj bo'lsa, aksincha, huquq yuridik normalar ham ma'naviy- axloqiy imperativlar yordamiga shunchalik muhtoj. Ma'naviy-axloqiy imperativlar esa insonning erkin yashashga moyilligini, iloji boricha, chegaralamaslikka intiladi, bu borada unga turli vosita va yo'llarni tanlashga imkon qoldiradi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy imperativlarning huquqiy qadriyatlarga ta'siri ularda gumanistik normalarga o'rin qoldirganda ko'zga tashlanadi" ,- deb ta'kidlaydi. Taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri jamiyatda qarorlar va insoniy munosabatlarning qonun asosida shakllanishidir. Bu qonun ustuvorligi deb ataladi. Qonun ustuvorligi tamoyili birinchi marta Magna Cartada uchraydi. Bu hujjat 1215 yilda qo'zg'olonchi baronlar tomonidan imzolangan va Angliya qiroli Jonni unga imzo chekishga majbur qilgan. Hujjatda hatto qiroli qonunga bo'ysunishi kerakligi ko'rsatilgan. Professor Albert Venn Daysi qonun ustuvorligini kontsepsiya sifatida ishlab chiqqan shaxs edi. Daysi 1885 yilda chop etilgan "Huquq va Konstitutsiya" kitobida qonun ustuvorligini uchta tamoyil bilan bog'lagan. Bular qonun ustuvorligi, hammaning qonun oldida tengligi, jamiyatda qonunga hurmat ruhi yoki an'anasining mavjudligi. Qonun ustuvorligi o'z-o'zidan paydo bo'lishi va faoliyat yuritishi mumkin emas. Uning ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar, ayniqsa, siyosiy iroda bo'lishi kerak. Avvalo, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat o'rtasida, ya'ni qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat o'rtasida aniq chegara bo'lishi kerak. SHu bilan birga, sudlarning mustaqilligi va ularning qarorlariga hech qanday tarzda aralashmaslikdir. Yana bir muhim shart – jamiyatda qonunni hurmat qilish an'anasi va munosib madaniyat bo'lishidir. Odamlar qonunlarga, sud qarorlariga va umuman adolatga shubha bilan qaraydigan jamiyatlarda qonun ustuvorligi katta

xavf ostida bo‘ladi. Qonun ustuvorligining mavjudligini belgilovchi yana bir omil - bu sudga kelgan har bir shaxsga nisbatan adolatli sudlovning ta‘minlanishidir. Bu odamlarning jinoyat sodir etishda aybi isbotlanmaguncha oqlanishini ham o‘z ichiga oladi. Qonun ustuvorligi bizning kundalik hayotimizga, boshqa odamlar va hukumat bilan munosabatlarimizga bevosita daxldor bo‘lgan mezondir.

Qadimgi Yunonistonda davlat qonun ustuvorligini ta‘minlovchi siyosiy institut hisoblangan. Yunon faylasufi Geraklitning aytishicha, “Odamlar qonun uchun ham, o‘z devorlari uchun ham kurashishlari kerak”. Pifagor “Qonun hamma narsaning mohiyatidir” desa, Platon “Davlat adolatli qonunlar mavjud bo‘lgan joyda mavjud bo‘lishi mumkin”,-deydi. Aristotelning ta‘kidlashicha, “Kimki qonun shohligini izlasa, u, albatta, Xudo va aql shohligini qidiradi”. XVII-XVIII asrlarda Yevropa liberal-demokratik tafakkuri vakili bo‘lgan faylasuflar qonun ustuvorligi tamoyilini yangi davrga muvofiq talqin qildilar. Lokk huquqiy davlatning asosiy xususiyati bo‘lgan erkinlikni huquq bilan tenglashtirgan: “Qonun bo‘lmagan joyda erkinlik ham bo‘lishi mumkin emas”. Yevropada qonun ustuvorligi asoschisi hisoblangan Monteske bu g‘oyani ishlab chiqdi va erkinlik qonun bilan ruxsat etilgan hamma narsani qilish huquqi ekanligini ko‘rsatdi. XVIII asrda Frantsiyaning eng ziddiyatli siyosatchilardan biri Robespier qonunlarning kuchi adolatga bog‘liqligini ta‘kidlaydi. Qonun ustuvorligi tamoyili XVIII asrda qabul qilingan Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasida va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948)da o‘z ifodasini topgan. Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasining 5, 6, 7 va 8 moddalarida qonun ustuvorligi ta‘kidlangan: “Qonun faqat jamiyatga zarar keltiradigan xatti-harakatlarni taqiqlash huquqiga ega. Qonunda taqiqlanmagan har qanday narsaga yo‘l qo‘yiladi, hech kim qonunda ko‘rsatilmagan ishlarni qilishga majburlanmasligi kerak”. Qonun umumiy irodaning ifodasidir. Barcha fuqarolar qonun yaratishda shaxsan yoki o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 7 moddasida qonun ustuvorligi mustahkamlangan: “Barcha insonlar qonun oldida tengdir va hech qanday kamsitilmasdan, qonun oldida teng himoyalanih huquqiga ega”. Huquqiy davlat qurishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan O‘zbekiston Respublikasi bu sohada qonun ustuvorligini eng muhim omil deb bildi.

Qonunchilik asosan quyidagi masalalarni qamrab oladi:

- 1) qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;
- 2) qonunlarning bajarilishi va ularga rioya etilishi;
- 3) qonunlarning bajarilishini nazorat qilish. Demokratik huquqiy davlat qurish siyosiy-huquqiy jarayon bo‘lib, u normativ-huquqiy tartibga solishga muhtoj bo‘lgan jamoat munosabatlarini aniqlash va qonuniylashtirish jarayonini

o'z ichiga oladi. Qonunlar ijrosini nazorat qilish - bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining nafaqat qonunlar ijrosiga, balki ushbu qonunlarning bajarilishini nazorat qilishga asoslangan faoliyatidir. Qonun hujjatlarining mazmuni nafaqat davlat organlarining o'z vazifalariga rioya etishi va ularning bajarilishi ustidan nazoratni, balki qonunlar ijrosini ham o'z ichiga oladi. Huquqiy davlat qurishda qonun ustuvorligi tamoyilini ta'minlashda quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyatga ega: - mustaqil, demokratik, huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy yo'naltirilgan davlat qurish yo'lida birgalikda sa'y-harakatlarni amalga oshirish istagida bo'lgan O'zbekiston fuqarolarini o'z atrofida birlashtirib, partiyaviy ishlarga jalb etish; – davlat qurilishini professional boshqaruv va demokratik tamoyillar asosida rivojlantirish, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha asosli taklif, dastur va platformalarni ishlab chiqish ; - qonunlarga nisbatan umumxalq hurmatini ta'minlash, qonunlar ijrosini ta'minlash, jamiyat hayotining barcha sohalarini demokratlashtirish maqsadida keng ko'lamli siyosiy faoliyatni amalga oshirish.

Shavkat Mirziyoev huquqiy davlat qurishda tarixiy va milliy an'analarga tayanishdan tashqari, jahon tajribasidan olingan demokratik tamoyillardan foydalanishni asosiy shart deb bildi va huquqiy davlatning quyidagi asosiy tamoyillarini amalga oshirishni strategik vazifa sifatida belgilab berdi:

1. Qonun ustuvorligi.
2. Fuqarolar huquq va erkinliklarining realligi tamoyili.
3. Davlat va shaxsning o'zaro javobgarligi tamoyili.
4. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tarmoqlariga bo'linishi printsipi.
5. Qonunlarning bajarilishi ustidan sud, prokuror nazorati, hakamluk nazorati va boshqalar amalga oshiriladi.

Demokratik huquqiy davlatni amalga oshirish oddiy jarayon emas, balki juda murakkab va ziddiyatli jarayondir. Demokratiya quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Jamiyatda qonun ustuvorligiga asoslanish.
2. Demokratiyaga idrok etilgan zarurat sifatida qarash.
3. Xalq hokimiyati institutlarini barpo etish va ularni hurmat qilish.
4. Demokratiyaga murakkab ziddiyatli jarayon sifatida qarash.

Huquqiy davlat fuqarolari erkin va mustaqildirlar, ular qonun bilan taqiqlanmagan har qanday ishni qilishlari mumkin. Boshqa tomondan, ular moddiy va ma'naviy qadriyatlar uchun javobgardir. Bunday fuqarolik jamiyati qonun ustuvorligini va davlatning mamlakat xavfsizligini ta'minlash qudratini tan olishi kerak. Qonun ustuvorligini himoya qilishning oliy tamoyilini davlatchilikning bosh maqsadiga aylantirgan Shavkat Mirziyoev rahbarligida davlat-fuqaro

munosabatlarida yangi bosqich boshlandi. O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini yuqori darajada himoya qilish, insonparvarlik g‘oyalarini ro‘yobga chiqarish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, davlat boshqaruvini demokratlashtirish imkoni yaratildi. Davlat yetakchisi faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri demokratik mezonlarni yanada mustahkam poydevorga o‘rnatish, fuqarolik respublikasi va huquqiy davlat barpo etish bo‘ldi. Bu borada amalga oshirilayotgan choratadbirlar jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olib, mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy va huquqiy tizimdagi tub o‘zgarishlar bilan ajralib turadi, eng zamonaviy jahon andozalariga moslashtiriladi.

Shavkat Mirziyoev tashabbusi va bevosita rahbarligida mamlakatimizda amalga oshirilgan huquqiy islohotlar, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlar, yangi institutsional institutlarning tashkil etilishi Yangi O‘zbekiston uchun yangi bosqichni ochib berdi.

O‘zbekiston Respublikasida huquqiy davlatning shakllanishi siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlarni amalga oshirish, ma‘naviy-axloqiy asoslar va umuminsoniy qadriyatlarni yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta‘minlash sharoitlarida doimiy ravishda kengayib bormoqda. SHuningdek, fuqaro bilan davlat, hukumat, boshqaruv, sud organlari o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar jamiyat, huquq va siyosatning yangilangan o‘zaro munosabatlari geneziyasini davom etmoqda. O‘zbekiston bugun dunyoning eng tez rivojlanayotgan davlatlaridan biriga aylandi. Respublikamiz jadal ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlamoqda, yirik infratuzilma loyihalari, hududiy dasturlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida kuzatilayotgan uyg‘onish va tiklanish inson huquqlari tizimini takomillashtirishga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Eng muhimi, bugungi kunda O‘zbekiston jamiyatining yaxlitligi va mustahkamligi ta‘minlandi, odamlar muvaffaqiyatli kelajakka umid qilmoqda. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida kuzatilayotgan uyg‘onish va tiklanish inson huquqlari tizimini takomillashtirishga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70- modda, 20-son
2. Atavullaev M.A. Jamiyatni modernizatsiyalashda huquqiy qadriyatlarning o‘rni. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – B.15.
3. Rahimjonov, A. (2022). Ko ‘chmas mulk sotilganda yer uchastkasiga bo ‘lgan huquqning yuridik taqdirini belgilash. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 421-429.

YOSHLAR HUQUQLARINING QONUNCHILIKDA KAFOLATLANISHI

Isakulova Kamola

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: M.Sobirova

Bugun mamlakatimiz yoshlari tomonidan erishilayotgan ulkan yutuqlar zahirida istiqbolning ilk yillaridan boshlab yoshlar tarbiyasi, ta'limi, umuman kadrlar tayyorlash tizimiga alohida e'tibor qaratilgani mujassam. Mamlakatimizda yoshlarga, barkamol avlodga berilayotgan e'tibor, ularga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik doirasi yildan-yilga kengayib bormoqda. Bugungi kunga qadar davlatimiz tomonidan yoshlar huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, barkamol avlod kamoloti uchun xizmat qiluvchi huquqiy asoslarni yaratish borasida ham salmoqli natijalar qo'lga kiritildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev davlat rahbari sifatidagi dastlabki faoliyatini aynan yoshlar masalasiga kengroq e'tibor qaratishi, ularga barcha imkoniyatlarni yaratish uchun muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan boshladi. So'zimiz isboti sifatida esa 2016 yil 14 sentyabr kuni "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun qayta ishlab chiqilib, takomillashtirilgan holda qabul qilinganligini e'tirof etishimiz mumkin. O'tgan bir yil davomida yoshlar masalasiga doir 40 qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston yoshlarining huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan 30dan ortiq halqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilindi. Mamlakatimizda yoshlarga oid qonunlar ijrosini ta'minlash hamda aynan yoshlar hayotiga daxldor ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladigan, orzu va istaklarini ro'yobga chiqarishda ko'maklashadigan, intilish va maqsadlariga erishish yo'lida imkoniyatlar maydonini yarata oladigan islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida 2017 yil "Yoshlar ittifoqi" tashkil etildi. Davlatimiz tarixida ilk bora 30 iyun - "Yoshlar kuni" sifatida nishonlana boshladi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan 30-iyun - "Yoshlar kuni" etib belgilanganligi yoshlar uchun o'ziga xos quvonchli bayram bo'lishi bilan birga, ularni yangi, yuksak marralarga chorlovchi, jonajon vatanimizga sadoqatini yanada kuchaytiruvchi beqiyos rag'bat hamdir. Vatan kelajagini bunyod etishga bel bog'lagan, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan daxldorlik hissini tuygan, jamiyatimizning

turli sohalarida faoliyat olib borayotgan, fidoiy yoshlarimizni rag'batlantirish maqsadida "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi. Globallashuv davrida yoshlarni turli illatlardan himoya qilish, yoshlarda mutoola madaniyati, kitobxonlikni keng targ'ib etish maqsadida Prezidentimiz tashabbusi bilan "Yosh kitobxon" tanlovining respublikamiz miqyosida o'tkazilib, ommalashgan tadbirga aylantirildi. "Yosh kitobxon" tanlovini yanada ommalashtirish, iqtidorli yoshlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish maqsadida ikki yosh toifasida ikki nafar g'olib kitobxonga "Spark" avtomashinasi topshirildi. Jamiyatda xotin-qizlarning faolligini yanada oshirish, qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish, iste'dod va qobiliyatini yuzaga chiqarish, ular orasida haqiqiy yetakchilarni tarbiyalash ishlarini yanada kuchaytirish maqsadida "Qizlarjon" jurnali ta'sis etildi. Mamlakatimizda yoshlarga qaratilgan davlat siyosati tarixida ilk bora, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etildi. Xorijda ishlab yurgan yoki tahsil olayotgan yoshlarimizni ijtimoiy himoyalash maqsadida O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasining tashkil etilishi muxim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston yoshlaridan iborat delegatsiya Xitoy, Germaniya, Rossiya, Hindiston, Turkiya kabi 10 dan ortiq davlatlarda bo'lib, xorijiy davlatlarning yoshlarga oid siyosatini o'rganishmoqda. O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi tomonidan o'z vatani va oilasidan yiroqda, musofirlikda yurgan yoshlar bilan uchrashuvlar o'tkazilib, ularga lozim bo'lsa huquqiy, moddiy va ma'naviy yordam berilmoqda. Yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g'oya va loyihalarini ruyobga chiqarishga ko'maklashish maqsadida "Yoshlar-kelajagimiz" jamg'armasi o'z faoliyatini boshladi. jamg'arma ko'magi asosida yosh tadbirkorlar safi kengayib, ular ham yurtimiz iqtisodiy taraqqiyoti yo'lida xizmat qilmoqda. Yurtimiz yoshlari ilmiy salohiyatini yanada oshirish, oliy ma'lumotga ega kadrlarni ko'paytirish maqsadida xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari hamda yangi oliy ta'lim muassasalarining ochilishi ham muxim ahamiyatga ega. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta'kidlab o'tganlaridek "Yoshlarkelajak bunyodkorlari". Yurtimiz kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti, osmonimiz musaffoligi va xalqimiz farovonligi –yoshlar qo'lidi. Bugungi kunda yoshlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. O'ylaymanki, yurtimizda amalga oshirilayotgan har bir islohatlarni yoshlarimiz to'g'ri anglagan holda yurtimiz taraqqiyoti uchun har biri fidokorona xizmat qiladilar.

Frydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Atamuratov, S. A. (1991). Natsionalnoe samosoznanie i internatsionalnoe vospitanie. Uzbekiston.
2. Otamuratov, S. (2005). Milliy rivojlanish falsafasi. T.: Akademiya.
3. Atamuradov, S. (1992). Natsionalnaya kul'tura i natsionalnoe samosoznanie v protsesse obnovleniya obshchestva. T.,(Atamuradov S.(1992). National culture and national identity in the process of updating society, Vol.).

XOTIN-QIZLAR VA BOLALAR HUQUQLARI HAMDA ISHONCHLI HIMOYA

Ibragimova Maktuba

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalish 1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: D.Xodjayeva

Ma'lumki, yurtimizda xotin-qizlarning va bolalarning ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, salomatligini mustahkamlash, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishning huquqiy kafolatlari yaratilgan bo'lib, u zamon talabi asosida takomillashtirib borilmoqda. Zero, sog'lom oilani shakllantirish orqali jamiyatda yuksak ma'naviy-axloqiy muhitni qaror toptirish, oila mustahkamligini ta'minlash hamda uning manfaatlarini himoya qilish, sog'lom bola tug'ilishi va uni tarbiyalash masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Aytish joizki, keyingi yillarda ushbu sohani ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashmoqda. Bejiz "ishonchli himoya qilish" tushunchasi keltirilmadi. Bu orqali mavjud amaliyotni qayta ko'rib chiqish, hayotda, matbuotda real voqelikni aks ettirish, sohadagi muammolarga yechim topish, talabga javob bermaydigan huquqiy normalarga o'zgartishlar kiritish, bu boradagi javobgarlik choralarini yanada kuchaytirish nazarda tutilayotir.

Afsuski, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, salbiy holatlar, ya'ni xotin-qizlar, voyaga etmaganlarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiqlar, o'z huquq va erkinliklaridan foydalanishda to'siqlar hali ham uchrab turibdi. Qolaversa, xotin-qizlar orasida o'z huquqlarini yaxshi bilmaydigan, muntazam qiynoqqa uchragani uchun qo'rqq, ojiz, himoyasiz bo'lib qolganlar ham bor. Ko'p holatlarda ular sud yoki boshqa organlarga murojaat qilmay, oilaviy zo'ravonlikka chidab yashab kelmoqda, Yanada achinarlisi, bu zo'ravonlikka uning voyaga yetmagan farzandlari ham guvoh bo'lib, ularning yaxshi muhitda tarbiyalanish huquqlari buzilayotir. Bolalarning kelajakka ishonchi yo'qolyapti, ta'lim olishga bo'lgan layoqati pasaymoqda, ruhiy holatida keskin muammolar kelib chiqyapti, shu orqali ota-onalik maqomiga putur yetyapti.

Oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar jabrini birinchi galda ayollar tortadi. Bu ko'plab ayollarning huquqlari toptalishiga, turmush tarzidan

qoniqmay, hatto, o'z joniga qasd qilish darajasigacha borishiga, voyaga yetmagan farzandlarning ona mehridan erta judo bo'lishiga sabab bo'ladi. So'nggi paytlarda ayollar bilan bog'liq bir necha ko'ngilsiz hodisalar ham ro'y berdi. Bularning barchasi yurtimizda yechilishi lozim bo'lgan qator o'tkir muammolar mavjudligini va sohani tartibga soluvchi qonunchilikda ayrim bo'shliqlar mavjudligini anglatadi.

Shu sababli, davlatimiz rahbari xotin-qizlar va bolalarning huquqiy himoyasini kuchaytirish masalasiga alohida urg'u berib, ayni chog'da tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarni himoyaga olish tizimini takomillashtirish zarurati borligini bir necha bor qayd etgandi. Mazkur tashabbus barcha davlat idoralari va nodavlat tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Albatta, bu amaldagi qonunchilik normalarini puxta ko'rib chiqishni talab qiladi. SHu munosabat bilan yaqinda "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Unga ko'ra, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan nomaqbul harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlik yanada kuchaytirildi, shuningdek, oilaviy zo'ravonlik, shilqimlik qilganlik uchun javobgarlik belgilandi.

Qonunda oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun, ta'qib qilish, shahvoniy shilqimlik, ayolni o'z homilasini sun'iy ravishda tushirishga majburlaganlik uchun javobgarlik ko'z tutilgan. Ayni chog'da, ayollarni jinsiy aloqa qilishga majbur etish, turmush qurishga majburlash yoki to'sqinlik qilish uchun yarashish institutini qo'llamaslik ham belgilangan. Bularning barchasi pirovardida zo'ravonlikning oldini olish va uning mudhish oqibatlariga barham berishga xizmat qiladi.

Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 592-moddasi, ya'ni oilaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun javobgarlik belgilanib, xuddi shu harakatlarni bir yil ichida qayta sodir etgan taqdirda Jinoyat kodeksining 1261-moddasida jinoiy javobgarlik belgilandi.

Jinoyat kodeksi 1413-modda, ya'ni shaxs sha'nini va qadr-qimmatini kamsituvchi, inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi modda bilan to'ldirildi. Unga ko'ra, tovlamachilik alomatlari mavjud bo'lmagan taqdirda, shaxsiy roziligisiz yalang'och holdagi foto, videotasvirni o'z ichiga olgan axborotni tarqatish, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish yoki bunday axborotni tarqatish bilan qo'rqitish, bazaviy hisoblash miqdorining

400 baravaridan 600 baravarigacha jarima yoki 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks shahvoniy shilqimlik qilganlik uchun javobgarlikni belgilovchi 411-modda bilan to'ldirildi.

Endilikda shaxsga nisbatan uning uchun nomaqbul bo'lgan hamda uning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirleydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda, chaqirishda ifodalangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan harakatlar bir marta qo'pol ravishda yoki bir necha marta sodir etilsa, bazaviy hisoblash miqdorining 2 dan 5 baravarigacha jarima solishga yoki 5 sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi. Bu harakat ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilsa, jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, ota va ona o'z farzandini tarbiyalashda majburiyatlarini bajarmaganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi, agar ota yoki ona yashash joyida uch oydan ortiq bo'lmaganda yoki uzrli sabablarga ko'ra o'z majburiyatlarini bajara olmaganda voyaga yetmagan farzandiga vasiy yoki homiy tayinlamasa, ma'muriy javobgarlikka tortiladi.

Ayrim ota-onalar ishlash uchun yoki boshqa bir sabab bilan chet elga yoki yashash joyidan uzoqroq hududga ketib, farzandlarini qarindoshlari yoki tanishlariga tashlab ketadi, qarindoshlar yaxshi bo'lsa, bola huquqlari buzilmaydi. Lekin amaliyotda bolalar qarovsiz qolib, ularning tarbiyasi bilan hech kim shug'ullanmasligi, ular nazoratsiz qolib ketish holatlari, eng yomoni, bolalar bilib yoki bilmay jinoyat yo'liga kirib qolish holatlari ham uchraydi.

Shundan kelib chiqib, ota va onalarga majburiyatlarini to'liq bajarish va ular yo'qligida farzandiga homiy yoki vasiy tayinlash majburiyati belgilanmoqda, aks holda ular javobgarlikka tortiladi.

Jinoyat kodeksining 73-moddasidagi jazodan muddatidan ilgari shartli ozod etish kabi normalar voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar uchun, jumladan, voyaga yetmagan shaxsning nomusiga tekkanlik, jinsiy aloqada bo'lish, uyatsiz-buzuq harakatlar qilganlik, voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, namoyish etish, qo'shmachilik qilganlik, fohishaxonalarni tashkil etganlik uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

E'tiborlisi, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan bu kabi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning javobgarligi kuchaytirildi, jazo muddatlari va miqdori oshirildi.

Qolaversa, endilikda ayollarning tazyiq va zo'ravonlikdan himoya orderi muddati bir yilgacha jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudi tomonidan uzaytirilishi belgilandi.

Keltirilganlardan ham ko'rinib turibdiki, ushbu qonun bugungi kun uchun nihoyatda dolzarb. U xalqimizning huquqiy ong va madaniyatini yanada oshirish, xotin-qizlar va voyaga yetmaganlarning huquqlarini ishonchli himoya qilish, ularga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olish, shu harakatni sodir etgan shaxslarga adolatli jazo choralarini belgilash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash hamda bolalar va xotin-qizlar huquqlari bilan bog'liq xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o'rnini yaxshilashga xizmat qiladi.

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

Ismoilov Bobur

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalish 1-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: A.Norboyev

Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy muammolardan biri, jamiyatning har bir a'zosi uchun ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishidir. Nogironligi bor shaxslarga ta'lim berish, ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Kundalik hayot tarzimizga "Nogiron shaxs" atamasi muomalaga kiritildi. Davriy nashrlarda va ilmiy tadqiqot ishlarida nogironlik tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan bo'lib ularning ko'pchiligida ushbu tushunchaning mazmuni keng yoritilgan. Xususan: birlashgan millatlar tashkiloti Nogironlar huquqlari to'g'risidagi koventsiyasida "Nogironlik-tana funktsiyalari buzilgan insonlar hamda munosabat va infratuzilma bilan bog'liq to'siqlar orasidagi o'zaro aloqa natijasida vujudga keladigan holat", "Nogironlik-bu ta'lim olish uchun maxsus sharoit yaratmasdan, ta'lim dasturlarini ishlab chiqishga to'sqinlik qiladigan jismoniy va (yoki) aqliy qobiliyati cheklangan shaxs. Yo'qlik-bolaga nisbatan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya va kattalarga nisbatan tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi tomonidan tasdiqlangan jismoniy yoki aqliy nogironlik. Jismoniy nogironlik-bu inson organi yoki surunkali somatik yoki yuqumli kasallikning rivojlanishi va (yoki) ishlashida belgilangan tartibda tasdiqlangan vaqtinchalik yoki doimiy yetishmovchilik. Aqliy nogironlik-bu insonning aqliy rivojlanishidagi, shu jumladan nutqning buzilganligi, hissiy-irodaviy soha, shu jumladan autizmning, miya shikastlanishining oqibati, shu jumladan aqliy rivojlanishning sustligi, o'qishdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan vaqtincha yoki doimiy ravishda yetishmaslikdir". Shu nuqtai nazardan nogironlarni o'qitish murakkab, ko'p kuch va vaqt sarflanadigan jarayon bo'lib, ta'lim tizimidan ushbu ko'p qirrali muammoni hal etishga kompleks

yondashishni talab qiladi. Hozirgi kunda jahon hamjamiyatida qonuniy asosda nogironlarni ta'lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish zarurati qayd etilgan. Xususan, Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro deklaratsiyaning 26- moddasida, Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyaning 28- moddasida, nogironlarning huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyada, nogiron bolalarga ta'lim olishda ko'maklashish, ushbu shaxslarning ta'lim olishi uchun o'quv dasturlari va baholash mezonlarini ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqishning huquqiy tamoyillari mustahkamlangan. XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahonning ko'plab mamlakatlarida umume'tirof etilgan standartlar asosida professional ta'lim olish imkoniyatlarni taqdim etish maqsadida sog'ligida nuqsonlari mavjud shaxslarni ommaviy ta'lim muassasalarga integratsiyalash g'oyasi ishlab chiqilib amaliyotda keng qo'llanilishi boshlandi.

Bugungi kunda aksariyat mamlakatlar ta'lim muassasalari Segregatsiyadan voz kechib (ajratish, chetlatish, kiritmaslik) nogironlarni ommaviy ta'lim muassasalari o'quv jarayonlariga integratsiyalashga o'tmoqda. Bu, o'z navbatida, nogiron bolalarni ta'lim muassasalarida o'qitishda yangicha yondashuvni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu sohadagi yangi yondashuvlardan biri bu "Inklyuziv ta'lim" dir. Inklyuziv ta'lim – bu har hil ehtiyojli bolalarning umumiy, o'rta va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olishlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish, ular uchun ta'lim muassasalarida qo'shimcha moslamalarni yaratilishini talab etuvchi ta'lim tizimidir. Odatda inklyuziv ta'lim modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi: Har bir shaxs tengdoshlarining qo'llab-quvvatlashiga muhtojdir; SHaxsning qadr-qimmati uning iste'dodi va yutuqlari bilan bog'liq emasdir; Har bir insonda fikrlash va his qilish qobiliyati mavjud; Inson eshitish va muloqot qilish qobiliyatiga egadir; Inson insonga muhtojdir; Insonning to'liq va munosib ta'lim olishi faqat real hamkorlikda amalga oshadi; Bugungi kunda aksariyat mamlakatlar inklyuziv modelni ta'lim jarayonida joriy etishi quyidagi muammolarga duch kelmoqda: Aksariyat ta'lim muassasalari sog'lom, nogironligi bo'lmagan o'quvchilar uchun mo'ljallangan va jihozlangan; Nogironligi mavjud shaxslarning jamiyatga qo'shilolmaslik muammosi; Nogiron shaxslarning boshqa insonlarga qaramligi; Nogiron shaxslarning moddiy mablag' bilan ta'minlanmaganligi; O'quv mashg'ulotlari olib boriladigan auditoriyalarda o'quvchilar sonining ko'pligi; Ba'zi holatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan salbiy munosabat; Nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitishda professor-o'qituvchilar bilan bog'liq muammolar (aksariyat o'qituvchilar bunday toifadagi talabalarni o'qitishga moslashmagan); SHiddat bilan rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida nogironligi bor shaxslarda oliy ma'lumotli bo'lish hayotni tashkil qilishning eng samarali usullaridan biridir. Oliy ma'lumotli bo'lish bunday

toifadagi shaxslarga; hayotni tanlash erkinligi, ma'naviy va moddiy mustaqillikni beradi; dunyoqarashi va hayotiy maqsadlarini shakllantiradi; insonning o'zgaruvchan ijtimoiy vaziyatga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi; hayotga teran nigo bilan qarash va dunyoqarashini uyg'unlashtiradi, bu ayniqsa nogiron yoshlar uchun juda muhimdir; Dunyo aholisining yetti foizdan o'n foizigacha nogironlar tashkil qilayotgan hozirga sharoitda nogironlarni oliy ma'lumot olish imkoniyatini ro'yobga chiqarish juda dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. SHu sababli, nogironlar uchun oliy ta'lim tizimini ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlariga, ushbu toifadagi talabalar ehtiyojlari va hayotiy maqsadlariga moslashtirish orqali oliy ma'lumot olish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Nogironligi bor talabalar bilan ishlashni oliy ta'lim muassasalari sharoitida tashkil etish va amalga oshirish davlat ijtimoiy siyosatidagi zamonaviy tendentsiyalarni aks ettiruvchi g'oyalarga, kasb-hunar ta'limni rivojlanishida, xususan talabalar kontingentining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda oliy o'quv yurtlarida nogironligi bo'lgan talabalar uchun o'qitishni tashkil etishga qo'yiladigan talablarni asoslovchi tamoyilar, nazariyalar va yondashuvlarni ishlab chiqish davrni o'zi talab qilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2015 yili Mingyillik rivojlanish deklaratsiyasi doirasida 17 ta maqsadni taqdim etdi, ulardan 6 tasi: inklyuziv ta'limni rivojlantirish, qashshoqlikni yo'q qilish, sifatli ta'limni ta'minlash, tengsizlikni yo'q qilish, gender tengligini ta'minlash va ijtimoiy inklyuziyaga yo'naltirilgan. Ushbu maqsadlar, o'z navbatida, ta'lim sohasida o'g'il va qiz bolalar o'rtasida dunyo miqyosidagi tenglikka erishishni ta'minlaydi. Jahon miqiyosida nogironligi bor shaxslarga yaratilgan imkoniyatlar borasidagi islohotlar O'zbekistonda ham faol olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida nogironlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va ta'lim jarayonida munosib bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan: "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi"da mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasida quyidagilar nazarda tutilgan: aholining ijtimoiy zaif guruhlarini, xususan, nogironligi bo'lgan odamlarni oliy ma'lumot bilan qamrab olishni kengaytirish; nogironlar uchun ta'lim xizmatlari turlarini ko'paytirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish va tegishli adaptiv texnologiyalarni joriy etish; nogiron o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, hamma joyda inklyuziv ta'lim g'oyasini ilgari surish uchun keng imkoniyatlar yaratish; nogiron talabalar uchun oliy o'quv yurtlari va talabalar turar joylarida qo'shimcha sharoitlar yaratish, zarur adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish; Ushbu

kontsepsiya 2030 yilga qadar umumta'lim maktab va kasb-hunar texnikumlari bitiruvchilarining oliy ma'lumot bilan qamrab olinishini 50 foizgacha ta'minlashni nazarda tutadi, bu 2020 yilga nisbatan ikki baravar ko'p bo'lib oliy o'quv yurtlarida nogironligi mavjud talabalar sonining ko'payishi va oliy ta'lim olish imkoniyatlarining kengayishidan dalolat beradi. Bugungi kunda nogironlarni oliy ma'lumot bilan qamrab olish muammosi, ularning o'qishi uchun tegishli sharoitlarning mavjud emasligida namoyon bo'lmoqda. Jismoniy yoki aqliy nogironligi mavjud aksariyat yoshlar ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida o'qishga majbur bo'lmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarni umumiy ta'lim maktablarida o'qitish uchun zarur shart-sharoitlar mavjud emasligi sababli ular uyda o'qiydi va bu, o'z navbatida, oliy o'quv yurtlarining kirish imtihonlari talablariga javob bermaydi. O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida inklyuziv ta'limni rivojlantirish shakllanish bosqichida bo'lib, ushbu tizimda bir qator kamchiliklar ham yo'q emas.

O'zbekistonning aksariyat oliy o'quv yurtlarida binolar va inshootlar nogiron bolalarni o'qitish uchun moslashtirilmagan, bu ularning tengdoshlari qatori umumiy sinflarda ta'lim olishiga jiddiy to'siqdir. Ushbu kamchiliklar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: aksariyat o'quv binolarida liftlar mavjud emas yoki kapital ta'mirtalab holatda; oliy ta'lim muassasalarida jadvalga muvofiq talabalar binoning turli qavatlarida joylashgan auditoriyalarda o'qiydilar, baland zinapoyalar, panduslarning yo'qligi nogironlar aravachasidagi talabalar uchun binoga kirish va bino ichida harakatlanishiga to'siq bo'lmoqdadir; SHu munosabat bilan, nogiron yoshlarning O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlari uchun tegishli shart-sharoitlarni shakllantirish ushbu tizimning ustuvor vazifasi bo'lib, shoshilinch choralar ko'rishni talab etmoqda. Nogironligi mavjud talabalarni oliy o'quv yurtlarida tahsil olish jarayonida ham bir qator muammolar ko'zga tashlanmoqda. Jumladan: - aksariyat oliy o'quv yurtlarida professor-o'qituvchilar tarkibi inklyuziv ta'lim shakli bo'yicha tayyorgarligi yetarli darajada emas; - oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limga moslashtirilgan maxsus o'quv dasturlarining yetishmasligi, zaruriy adabiyotlar bilan ta'minlanmaganligi; O'z navbatida bu kamchiliklar va oliy ta'lim tizimidagi mavjud muammolar 2030 yilgacha mo'ljallangan oliy ta'lim tizimini isloh etish kotsepsiyasini hayotga tadbqiq qilishda salbiy ta'siri ehtimoli yo'q emasdir.

Bizning fikrimizcha O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni samarali tatbiq etish va rivojlantirish uchun quydagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi: - nogironligi mavjud yoshlarning ta'limning barcha bo'g'inlarida (maktabgacha ta'lim-maktab-universitet) ta'lim olishining huquqiy asoslarini takomillashtirish orqali mamlakatning ta'lim siyosati

maqsad va vazifalariga moslashtirish; -ta’limning barcha bosqichlarida (maktabgacha ta’lim-maktabuniversitet) inklyuziv ta’lim modelini ishlab chiqish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmini ishlab chiqish; - nogironligi mavjud shaxslarning ehtiyojaridan kelib chiqib ularning sifatli ta’lim olishlari uchun davlat tomonidan kafolatlangan tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish; respublika, viloyat, oliy ta’lim muassasasi va undagi alohida yo‘nalishlar kesimida nogiron talabalar soni, ta’lim olishi, yashashi va dam olish sharoitlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish va statistikasini olib borish ishlarini takomillashtirish;-bevosita inklyuziv ta’lim modeli bilan shug‘ullanadigan pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish; - respublikadagi mavjud oliy ta’lim muassasalari bino va inshootlari infratuzilmasini bevosita imkoniyati cheklangan talaba yoshlarga moslashtirilgan holda takomillashtirish; - oliy ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talaba yoshlar ehtiyojaridan kelib chiqqan holda maxsus o‘quv dasturlari asosida o‘quvslubiy majmualar va talabalar bilimni nazorat qilish tizimini ishlab chiqish; - inklyuziv ta’lim jarayonida nogiron talabalarning professoro‘qituvchilari va ota-onalariga yordam berish maqsadida oliy o‘quv yurtlarida murabbiy-tsyutorlar faoliyatini tashkil etish; Bu tavsiyalarga amal qilish 2030 yilgacha mo‘ljallangan oliy ta’lim tizimini isloh qilish kontseptsiyasida nazarda tutilgan maqsadlarga erishish hamda ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni samarali integratsiyalash, moslashtirish va rivojlantirish borasidagi islohotlarning hayotga tadbiiq etishda yordam berishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Konventsia o pravax invalidov. prinyata rezolyutsiey 61/106 general’noy assamblei oon ot 13 dekabrya 2006 goda. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/disability.shtml
- 2.Kondratyeva S.I. “Mexanizm upravleniya innovatsionnym proektom po vnedreniyu inklyuzivnoy modeli obrazovaniya v VUZe” dissertatsiya na soiskanie uchyonoy stepeni kandidata ekonomicheskix nauk. M.: Moskovskiy gosudarstvennyy universitet ekonomiki, statistiki i informatiki – 2010 god.
- 3.Universal declaration of Human rights. New York, United Nations, 1948. 4.Convention of the Rights of the child. New York, United Nations, 1989.
- 5.O‘zbekiston respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-soni farmoni. <https://lex.uz/docs/4545884>

VATAN HIMOIYASI MUQADDAS BURCH

Omonov Jasurbek

*Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari
va huquq ta’limi yo‘nalishi
1-bosqich talabasi*

Vatan himoyachisi bo'lish sharaflı burchdir. Kindik qoni to'kilgan vatanni, shu mustaqil yurtni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash inson uchun go'yo o'z oilasi, sha'ni, or-nomusini, imon-e'tiqodini himoya qilish kabidir. Buyuk ajdodlarimiz yurt himoyasi yo'lida sha'ni, oru nomusi, imonini o'rtaga qo'yib yovga qarshi kurashgan. Ularning so'zi, ahdu paymonlari qilichdanda o'tkir bo'lgan. Zamonlar, makonlar o'zgarsada vatanga muhabbat, imonga sadoqat aslo o'zgarmadi. Ona Vatan himoyasi mavzusida so'z borar ekan, Temur Malik, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi vatanparvar, vatan ozodligi yo'lida jon bergan SHayx Najmiddin Kubro, vatan hajri va dog'ida yonib o'tgan Boburlar beixtiyor ko'z oldimizga keladi. Vatan himoyasi mavzusida so'z borar ekan beixtiyor Temur Malik qissasi yodimizga tushadi. Temur Malik vatanni qanday sevib ardoqladi? Uning qancha umri vatan tuprog'iga g'anım oyoq bosmasligi uchun bedor kechdi. Tunlarni kunlarga, kunlarni tunlarga uladi. Janglarda bosqinchi yovga mardona boqib, "Bu muborak zaminni bosishingga, toptashingga yo'l qo'ymayman", - dedi.

Vataniga muhabbati bor kimsa uning himoyasi uchun harakat qiladi. Uning yo'lidagi hizmatni o'zi ham muqaddas burch va sharaf deb biladi. Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhu aytgan ekanlar: "Agar odamlar vatanlariga qanoatlari kabi rizqlariga ham qanoat qilganlarida edi, biror banda rizqidan shikoyat qilmagan bo'lardi". O'z yurtidagi rizqqa qanoat qilmagan kimsa o'zga yurtdagisiga ham qanoat qilmaydi. Kim yurtida tinch, sog'-omon, kunlik rizqini topib turgan bo'lsa, o'sha bandaga butun dunyo berilgani hadisi shariflarda keltirilgan. Imomi SHofi'iy aytadilar: "Kishining xor bo'lishi uchun vatanidan va oilasidan ayrilishi kifoya qiladi". Vatanni qo'riqlash va uning ostonasini g'anımlardan himoya qilish bu – insonning o'z uyi, oilasi, qarindosh-urug'i va ayniqsa, dinini himoya qilishidir. Vatan tinch bo'lsa, kelajak avlod osoyishta yashaydi, yurt obod bo'ladi, o'zi va oilasi baxtli-saodatli hayot kechiradi va toat-ibodatları o'z vaqtida ado etiladi. Demakki, har bir inson butun jamiyat a'zolari uchun muhim bo'lgan tinchlikni saqlash yo'lida hamkorlik qilishi eng zaruriy burch va vojib amaldır. Alloh taolo mustaqil yurtimizni tinch va omonlikda, askaru zobitlarimizni O'zining xifzu himoyasida saqlab, jannatmakon diyorimizni yomon ko'zlardan va barcha ofatlardan asrasin!

1992 yil 14 yanvar kuni mustaqil davlatimiz tarixida muhim tarixiy hujjatga imzo chekildi. SHu kundan boshlab mamlakatimizda har yili «14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni» bayrami ozod va erkin xalqimizning muqaddas bir bayrami sifatida keng nishonlanib kelinmoqda. Bosh Qomusimiz bo'lgan Konstitutsiyamizda mustaqqilligimiz va tinchligimizni saqlash va himoya qilish

masalalriga bag‘ishlangan «Mudofaa va xavfsizlik» bobining 152- moddasida: «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi.», deb yozib qo‘yilgan.

Vatanni sevish, ardoqlash, himoya qilish – har birimizning sharaflı burchimizdir. Vatan himoyasi – muqaddas burch. Har yili Vatan himoyachilari bayrami arafasida bir-birlarini tabriklayotgan nafaqat harbiylar, balki yurtimizda faoliyat olib borayotgan boshqa kasb egalari, shuningdek o‘quvchi-talabalar, iqtisodchilar, injenerlar, agronomlar, sportchilar ham bir- birlarini shu aziz bayram bilan tabriklayotganida yuragimiz yorishib ketadi. Barchamizning bugungidek tinch, xotirjam xayotimiz qurolli Kuchlarimiz tomonidan ishonchli tarzda himoya qilinmoqdaki, mana shunday mas’uliyatli burchni sidqidildan ado etayotgan, taraqqiyotimiz barqarorligiga kamarbasta bo‘layotgan o‘g‘lonlarimizni har qancha e‘zozlasak, ko‘kka ko‘tarsak, arziydi. Ona yurtimiz har doim o‘zining mard, jasur yigitlari bilan faxrlanib kelgan. Yigitlarimiz ota-ona va oilasini, o‘zi yashayotgan yurt tuprog‘ini muqaddas bilib, Vatan himoyasi uchun doimo shay turishni burch deb hisoblagan. Ushbu bayramning nishonlanishi xalqimizning o‘z armiyasiga nisbatan cheksiz hurmatini, yigitlariga nisbatan iftixorini bildiradi.

KONSTITUTSIYA VA YOSHLARGA YARATILGAN IMOKONIYATLAR

Bektiboyev Sunnat

«Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi»

yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar X.D.Ruziyev

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.⁵⁸

O‘zbekiston aholisi 13-noyabr 2023-yil holatiga ko‘ra 36 708 200 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, qariyb 55,6 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi.

Bugungi kunda Konstitutsiyamizda yoshlarga oid moddlar juda ko‘p. Bunga misol qilib O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 79-moddasida “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

⁵⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.⁵⁹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2016-2021-yillarda yoshlarga oid davlat siyosatiga doir 5 ta qonun va 55 ta qonunosti hujjati qabul qilindi.

2017-yil 30-iyunda O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topdi. Mazkur ittifoqning faoiyati davomida 841147 nafar yoshlarning bandligi taminlandi. 2021-yilning birinchi yarmida yoshlar ishlari agentligi tomonidan 78140 nafar yosh ishga joylashtirildi, 5684 nafar yoshga subsidiyalar ajratildi, 127 nafar talabaning 350 million so'mlik kontrakt shartnoma mablag'lari to'lab berildi.

Ta'lim tarbiya tizimida yoshlarning manfaatlarini ko'zlab ko'plab o'zgarishlar amalga oshirildi. Birinchidan, maktabgacha ta'lim va umumta'lim maktablari faoliyati tubdan yangilandi. Maktabgacha ta'limga qamrab olish darajasi 60 foizga yetdi. Bog'chalar soni 14 mingdan oshdi. Yoshlarni chuqur bilim olishini taminlash maqsadida 98 ta ixtisoslashgan maktablar tashkil etildi. Respublikamizning turli hududlarida Prezident maktablari tashkil etimoqda.

Ikkinchidan, oliy ta'limga yoshlarning qamrovi oshirildi. 2016-yil mamlakatimiz hududida 65 ta oliy-ta'lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lsa, 2021-yilda ularning soni 127 taga yetdi. 2023-yilda Oliy ta'lim muassasalari uch marta ko'payib 210 taga, qamrov darajasi esa 9 foizdan 38 foizga yetdi. Uchinchidan, ta'lim tizimida davlat siyosati takomillashtirildi. Ta'lim sohasini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda yoshlarni uzliksiz ta'lim olishini ta'minlash maqsadida oliy ta'limda kunduzgi ta'lim shaklidan tashqari, sirtqi ta'lim shakli, kechki ta'lim shakli, masofaviy ta'lim shakli tashkil etildi. Dual ta'lim yo'lga qo'yildi.

To'rtinchidan, yoshlarning bilim olishi uchun zarur shart-sharoitlar amalga oshirildi. 2021/2022 o'quv yilidan boshlab tijorat banklari tomonidan ta'lim kreditlarini Markaziy bankning asosiy stavkasida ajratishning yangi tizimi joriy etildi. Bunda ta'lim kreditining asosiy qismi talaba oliy ta'lim tashkilotini tugatgandan so'ng yetinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytarisi belgilandi.

Beshinchidan, xalqaro talablarga javob beradigan kadrlarni tayorlashga etibor qaratilmoqda.

2018-yil 25-sentabr kuni "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida prezident farmoni qabul qilindi.

⁵⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XIV bobi.

Ushbu jamg'arma yoshlarni nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olish, ilmiy-tadqiqot faoiyatini olib borishni, xorijda bakalavriat, magistratura va doktoranturada o'qish uchun stipendiyalar ajratadi.

Jamg'arma faoliyatining asosiy yo'nalishlari

-respublika hududlaridan yoshlar va davlat ximatchilarini rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim olishini tashkil etish.

-xorijda istiqomat qilayotgan, ilg'or bilim va boy tajribaga ega bo'lgan hamda professional faoliyat yuritayotgan vatandoshlar bilan doimiy muloqot o'rnatish.

-zamonaviy bilimga ega va kreativ fikrlaydigan yangi avlod kadrlarini shakllantirish va ularni davlat xizmatiga jalb etishga ko'maklashish.

Jamg'arma 2018-yil 378 ta, 2019-yil 600 ta, 2020-yil 15 ta, 2021-yil 313 ta, 2022-yil 320 ta yoshlarni chetga bakalavriat, malaka oshirish, amaliyot, magistratura, doktoranturani o'qish uchun xorijiy davlatga jo'natgan.

“El-yurt umidi” jamg'armasi orqali 2018-2022 yillar davomida xorijda ta'lim olgan, bugungi kunda mamlakatimizga qaytib kelib, turli soha hamda tarmoqlarda samarali faoliyat olib borayotgan stipendiantlari to'g'risida ma'lumot;

-doktorantura-20 ta

-magistratura-100 ta

-malaka oshirish-737 ta

-amaliyot-232 ta.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari □ “Prezident maktablari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktabari” bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e'lon qilindi.

Yosh avlodni sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan “besh muhim tashabbus”ni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.⁶⁰

Yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2016-yil 14-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid

⁶⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 18.01.2021 yildagi 23-son

davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunda yoshlarga oid davlat siyosati — davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi sifatida qat'iy mustahkamlab qo'yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari quydagilardan iborat:

- ochiqlik va shafoflik;
- yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi;
- yoshlar tashabbuslarini qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish;
- ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'ymasligi.

Yoshlar xalqimiz, davlatimizning bebaho boyligi. Ular uchun barcha shart-sharoit yaratilgan, imkoniyatlar eshigi keng ochilgan.

Xulosa qilib aytganda so'ngi besh yil davomida yoshlarni har tomonama qo'llab-quvvatash, ularni komil inson sifatida yetishi uchun zamin yaratildi. Yoshlarga berilayotgan bu e'tibor, oxir-oqibat, o'z mevasini berdi. Bunga yoshlarimiz xalqaro va respublikada erishayotgan yutuqlari yaqqol dalildir.

KONSTITUTSIYA VA OILALAR MUSTAHKAMLIGI

Elbek Donayev

*“Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari
huquq ta'lim yo'nalishi” talabasi
Ilmiy rahbar X.D.Ruziyev*

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi maskandir.

Jumladan, yangi konstitutsiyamizning bir nechta boblarida oila masalasiga bag'ishlangan bo'lib, uning 5-modasida “Oila to'g'risidagi qonunchilikning vazifalar oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishdan yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishni hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir”. Va yana Konstitutsiyamizning 8-moddasida

“Qonunchilikda oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli normalar bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi tamoiilariga zid bo'lmagan mahalliy urf-odat va an'analar qo'llaniladi” - deb yozilgan. Bundan ko'rinib turibirdiki oilaning turmush tarzi bir -biriga bog'liqqi ham jihatligi jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun qonunlarda ham mustahkamlab qo'liylganlini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Oila mustahkamlini va bardavom etishi uchun har bitta oila a'zoninglarning bir biriga bo'lgan hurmati muhimdir bu borada Konstitutsiyamizning eski tahrirni ko'rsak oila mustahkamligi to'g'rida alohida bob va moddalar ajratilgan. Jumladan Konstitutsiyamizning XIX-bobi to'laligicha oila masalasiga bag'ishlangan bo'lib, uning 63-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidur hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega”- deb yozilgan. Bilamizki har bir jamiyat a'zosi ma'lum huquqlarga ega va shu huquqlar doirasida jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarga qatnashishi mumkin.

Har qanday jamiyatda ham oila tushunchasi farzandlarni kelajak avlodni tarbiyalovchi, voyaga yetkazib beruvchi muqqadas maskan, jamiyatninag eng kichik va dastlabki bo'g'ini hisoblanadi.

Oilani muqqadas maskan sifatida e'zozlash, oilada tinchlik-osoyishtalik farovonlik muhitini qaror toptirish xalqimizga azaldan xos bo'lgan fazilatdir. Oila va oilaviy qadiriylatlar va har qanday inson hayotida quriladigan eng muhim poydevor hisoblanadi. Shaxsning shakllanishi oilada boshlanadi.

Qonunchiligimizga nazar solar ekanmiz oilaga katta e'tibor qaratilganligini, jumladan uni qanday tashkil qilish oila a'zolarining huquqlari va burchlari, umuman oilaviy hayotning barcha masalalariga urg'u berib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

Buyuk allomalarimiz oilaga katta e'tibor qaratib, uning mustahkamligini ta'minlash, asrab-avaylash borasidagi hayotiy xulosalarni ibratli hikoya-urivoyatlar farzandlarga maktublar, hikmatli so'zlar, she'riy satrlar pand-nasihatlar shaklida yozib qoldirgan. Yurtimizda so'ngi yillardagi o'zgarishlar, yangilanishlar silsilasida ajdodlardan merosi an'anaviy qadiriylatlarimizni yanada boyitgan holda zamonaviy, namunali va farovon oilani barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi “Inson qadri uchun” tamoiili asosida olib borilayotgan islohatlar har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini, fuqarolar totuvligini mustahkamlashdek ezgu maqsadlarga qaratilgani bilan alohida ahmiyat kasb etmoqda. Zotan manaviyati yuksak insonlarda oilaga, uning mustahkamligini asrashga fidoyilik kuchli bo'ladi. Oila mustahkamligini ta'minlashda tajribali, ko'pni ko'rgan otaxon va onaxonlar o'giti, purno'ma nasihatleri, ularning ibratli hayot ham muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan olganda,

jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi oilalarga ular turmushi ibrat bo'lsa, tajribasidan o'rganishsa, oila yanada mustahkam va voyaga etayotgan farzandlar tarbiyasi bo'ladi. Binobarin oila qo'rg'oni ma'naviy yetuklik va boy tajriba asosida yanada mustahkamlanib boriladi.

Shu o'rinda takidlash joizki muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oila haqida o'z fikrlarini aytib o'tilar. Prezidentimizning fikricha, har bir inson hayotida eng muhimi, bu – oila. ” Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oila muhit, oilada halolik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har qanday farzandimga ham nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor har bir nevaramning alohida xarakterimni bilaman, orzusini, istagini bilaman”, - dedi u.

Prezidentimiz fikrlarida shu narsa ko'rinib turibdiki oila muhtakamligi unga bo'lgan mehrining cheksizligi, oilaga muhabbat, ezgu amallarni bajarishi mumkinligi, qayerda bo'lishidan qat'i nazar oilasi uchun harakatda ekanligini nazarda tutdilar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yana oila haqida ajoyib fikrlarini bildirdilar “Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo'lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo'lsa men o'zimni baxtli deb bilaman”, - deya takidladi prezident.

Oila to'g'risida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 76-moddasiga ko'ra, davlat oila jamiyatining asosiy bo'g'ini hamda u jamiyat va davlat muhofazasida ekanligini saqlab qolgan holda, nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqligiga asoslanishi belgilanmoqda.

Shu o'rinda, davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun nafaqat ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, balki davr talabidan kelib chiqqan holda boshqa shart-sharoitlar yaratishni ham o'z zimmasiga olmoqda. Masalan, 2022-yilda tariximizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmagan darajaga olib chiqildi. Misol uchun, 2017-yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, bugunga kelib 2 milliondan ortiq oilalarga ko'mak berilmoqda. Ajratilayotgan mablag'lar esa, 7 barobar ko'paytirilib, yiliga 11 trillion so'mga yetdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, oilalar mustahkamligi tinch totuv yashashligi aytaylik iqsodiy, madaniy, ma'naviy, yetukligi, hamjihatligi, farovon turmush tarzini yaratishi, farzandlarining baxti kamolini ko'rishi oila a'zolarining orasida

ahlik, mehr oqibat bo'lsa jamiyat orasida o'z o'rinlarini topadilar nafat o'z o'rnini balki davlatimi ravnaqi uchun ham o'z hissasini qo'shadilar

ВЛИЯНИЕ КОНСТИТУЦИИ НА ВОСПИТАНИЕ.

*Ибрагимжанова Камила Санджаровна
студентка III-курса Национальная идея,
основы духовности и правовое образование
Научный руководитель Х.Д.Рузиев*

Аннотация: В данной статье изложены вопросы, раскрывающие роль Конституции Узбекистана в обеспечении воспитания молодёжи в духе уважения национальных ценностей, процветания Родины и благосостояние народа.

Ключевые слова: Конституция, воспитания, национальный ценность, молодежи, уважения.

Введение.

Конституция является основным законом государства, который определяет основы государственного устройства, права и обязанности граждан. Она является основой для формирования системы воспитания и образования в стране. В данном реферате будет рассмотрено влияние конституции на воспитание и образование в Узбекистане.

Конституционные основы воспитания.

Человек, его жизнь, земля, честь, достоинство и другие неприкосновенные права являются высшей ценностью. Также "народ Узбекистана независимо от национальности является гражданином Республики Узбекистан", "все граждане Республики Узбекистан имеют одинаковые права и свободы и равны перед законом независимо от пола, расы, национальности, языка, религии, социального происхождения, национальности, личного и социального положения". В то же время такие правовые нормы играют большую роль в обеспечении мира и спокойствия в Узбекистане, равенства и согласия между народами, когда в ряде стран мира возникают острые конфликты, вызванные национальной, религиозной и расовой дискриминацией. В частности, то, что особое внимание уделяется гармонии общечеловеческих и национальных ценностей, способствует миру и развитию страны. "Государственным языком Республики Узбекистан является узбекский. Республика Узбекистан обеспечивает уважение языков, обычаев и традиций всех национальностей и народностей, проживающих на ее территории, создает условия для их развития".

Уважение к женщинам, женщинам и их равенство с мужчинами во всех сферах жизни общества 58 статья имеет свое собственное выражение: "женщины и мужчины имеют равные права". Конституция подчеркивает не только общечеловеческие ценности нации, такие как согласие, демократические ценности, социальная справедливость, человеческая жизнь, честь, достоинство, знания, но и обязанность народа Узбекистана сохранять и беречь историческое, духовное и культурное наследие. Отражаются и наши национальные ценности, такие как неизбежность семьи, ответственность родителей в воспитании своих детей, забота о родителях. Такие вопросы, как патриотизм, сохранение и рациональное использование национального богатства, также отражены в статьях 61, 62, 64 Конституции. В частности, "охрана Республики Узбекистан является обязанностью каждого гражданина Республики Узбекистан", "граждане обязаны бережно относиться к окружающей природной среде", "Земля, подземные ресурсы, вода, растительный и животный мир и другие природные ресурсы являются национальными ресурсами, рациональное использование которых необходимо, и они находятся под государственной охраной".

Основные принципы воспитания в конституции.

В конституции Узбекистана определены основные принципы воспитания и образования. Среди них:

- Гуманизм - уважение к личности каждого человека, его правам и свободам.
- Приоритет семьи в воспитании детей - семья является основной ячейкой общества, которая должна играть ключевую роль в воспитании детей.
- Защита детства - государство должно создавать условия для развития и защиты детей, особенно тех, кто нуждается в особой заботе и поддержке.
- Свобода образования - каждый имеет право на получение образования, независимо от пола, национальности, социального статуса и других факторов.
- Поддержка науки и культуры - государство должно поддерживать научные исследования, развитие культуры и искусства, чтобы обеспечить интеллектуальное развитие общества.

Роль конституции в формировании системы воспитания.

Конституция является основой для формирования системы воспитания и образования в Узбекистане. Она определяет основные принципы и направления развития системы образования, а также права и обязанности граждан в этой сфере.

Принципы образования.

Конституция Узбекистана устанавливает принципы образования, которые ориентированы на социализацию личности, развитие творческих способностей, формирование критического мышления и гражданской ответственности. Также, важной частью воспитания является уважение к истории, культуре и традициям народа, а также развитие межнационального диалога и толерантности.

Защита прав детей.

Конституция Узбекистана гарантирует защиту прав детей на образование и воспитание, а также защиту от насилия, эксплуатации и дискриминации. Государство и общество обязаны обеспечивать безопасную и благоприятную среду для детей, а также предоставлять программы и услуги, направленные на их развитие и благополучие.

Роль образовательных учреждений.

В рамках конституционных положений, образовательные учреждения в Узбекистане имеют важную роль в воспитании молодого поколения. Они должны содействовать формированию активного гражданства, патриотизма, уважения к правам и свободам людей, а также развитию нравственных ценностей.

Вывод: Таким образом, конституция играет важную роль в формировании системы воспитания и образования в Узбекистане. Она определяет основные принципы и направления развития системы образования, а также права и обязанности граждан в этой сфере. Конституция является основой для формирования системы воспитания и образования в Узбекистане.

Используемая литература.

1. Конституция Республики Узбекистан. - Т.: Узбекистан, 2023.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-konstitutsii-v-vospitanii-molodezhi-v-duhe-uvazheniya-natsionalnyh-tsennostey>
3. Гулом Мирзо. Конституция и духовность. - т.: духовность, 2019. – С.32.
4. https://t.me/ChatGPT4U_bot

ОСНОВНЫЕ ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ ЧЕЛОВЕКА И ГРАЖДАНИНА

*Адвокатова Елизавета Дмитриевна
студентка III-курса «Национальная идея.
Основы духовности и правовое образование»
Научный руководитель Х.Д.Рузиев*

В этой статье подробно разберем основные права и обязанности человека и гражданина по Основному Закону Республики Узбекистан – Конституции.

Человек, который не знает свои гражданские права можно заставить выполнять то, чего он делать не должен либо лишить его того, на что имеет право, люди могут безнаказанно унижать и запугать несуществующей ответственностью и не обращать внимания на его требования. Человек не будет знать, как можно законно добиваться своего и защищаться, не выходя за рамки дозволенного, он просто вынужден терпеть унижение, и не понимает, что можно нарушителей призвать к ответу. Очень много людей даже не догадываются, что в руках у них есть мощное средство для решения всех проблем, называемое «право», которым не очень то и сложно пользоваться, как может показаться.

На примере Конституции Республики Узбекистан разберем какие есть права и обязанности граждан во всех сферах жизнедеятельности. Согласно статье 19 Конституции Республики Узбекистан.

В Республике Узбекистан признаются и гарантируются права и свободы человека согласно общепризнанным нормам международного права и в соответствии с настоящей Конституцией. Права и свободы человека принадлежат каждому от рождения.

В Республике Узбекистан все граждане имеют одинаковые права и свободы, равны перед законом независимо от пола, расы, национальности, языка, религии, убеждений, социального происхождения, общественного положения.

В Узбекистане следят за соблюдением законов граждан. Правовое обучение в школах введено с 8 класса, но я бы предложила ввести с 5 класса, так как очень важно обучать молодое поколение правоведению. Вырастая, люди уже будут знать, что каждое действие и сказанное слово несет определенную законную ответственность и за несоблюдение закона человек карается штрафом или ограничением свободы.

Основные ценности

В основе концепции прав человека лежат две основные ценности: первая – это **человеческое достоинство**, а вторая – **равенство**. Права человека можно понимать как нечто, определяющее базовые нормы, необходимые для того, чтобы жить с чувством достоинства, и их универсальность вытекает из того, что в этом все люди равны. Мы не должны и не можем здесь кого-то выделять. В сущности, чтобы принять

концепцию прав человека, достаточно лишь признания этих двух убеждений или ценностей, и вряд ли кто-нибудь станет с ними спорить. Именно поэтому права человека получают поддержку со стороны всех мировых культур, всех цивилизованных правительств и всех основных религий. Почти везде признано, что власть государства не может быть безграничной или произвольной, она должна быть ограничена необходимостью обеспечить хотя бы минимальные условия всем, кто находится под его юрисдикцией, чтобы они могли жить с чувством человеческого достоинства.

«Я рассматриваю смертную казнь как жестокое и аморальное явление, подрывающее нравственные и правовые основы общества. Я убежден... что жестокость порождает только жестокость.»

Андрей Сахаров

1 августа 2005 года Президент Ислам Каримов подписал указ, в котором говорилось, что “смертная казнь отменяется в Республике Узбекистан с 1 января 2008 года как вид уголовного наказания и заменяется пожизненным заключением или длительными сроками лишения свободы”

Смертная казнь — одно из древнейших наказаний, известных человечеству. Она применялась еще до того, как возникло уголовное право в современном смысле этого слова. Вопрос о возможности применения смертной казни был актуальным в той или иной степени на протяжении всего существования государства, одновременно одним из самых острых вопросов не только уголовного права и юриспруденции, но многих других наук, таких как философия, психология, социология и др.

Первый Президент Узбекистана Каримов Ислам отметил, что если несколько лет назад смертный приговор в Узбекистане выносился за преступления, предусмотренные 15 статьями УК РУз, то сейчас высшая мера наказания применяется за две статьи - терроризм и убийства при отягчающих обстоятельствах. "Надо отказываться от применения смертной казни, как высшей меры наказания, - сказал президент, - однако, общественное мнение еще не готово к принятию решения об отмене применения смертной казни". "Опросы, проведенные в республике, свидетельствуют, что большинство граждан остаются сторонниками применения этой меры наказания за преступления. Для изменения ситуации надо работать, разъяснять все общественности, чтобы отказаться и от оставшихся в УК двух статей", - считает И. Каримов.

Почти повсеместно признано, что власть государства не может быть безграничной или произвольной, она должна быть ограничена

необходимостью обеспечить хотя бы минимальные условия всем, кто находится под его юрисдикцией, чтобы они могли жить с чувством человеческого достоинства.

Из основных ценностей можно вывести многие другие, и с их помощью точнее определить, как на практике должны сосуществовать люди и общества. Например:

boisdan ham Asosiy Qonunimizning 4-moddasida: “O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”, deb mustahkamlab qo'yilgan.

Yana Konstitutsiyamizning 19-moddasida “barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir”, - degan qoida ham mustahkamlab qo'yilgan.

E'tibor berilsa, mazkur qoidada mamlakatimiz barcha fuqarolarining his-tuyg'ulariga daxldor bo'lgan bir qator umumbashariy tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilish mumkin:

Avvalo, fuqarolarning milliy mansubliklaridan qat'iy nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan, qolaversa, fuqarolarning diniy, e'tiqodiy farqlaridan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi ta'kidlangan. Shuningdek, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan.

Asosiy Qonunimiz yurtimizda hukm surayotgan tinchlik, barqarorlik hamda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglikning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Endilikda ana shu huquqiy asoslarga tayangan holda o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik, mardlik, saxiylilik, bag'rikenglik ruhida tarbiyalab borishimiz zarur. Chunki, tobora globallashtirish jarayonlari avj olib borayotgan bir davrda esa yoshlar kamoloti va tarbiyasi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 19 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqida ta'kidlanganidek, “... yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avlod, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir”.

Prezidentimiz fikrlaridan ham ko'rinib turibdiki, axborot xurujlari va turli ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda eng samari omil bu – ta'lim-tarbiya omilidir. O'z davrida ulug' ma'rifatparvar ajdodimiz Abdurauf Fitrat kuyunchaklik bilan qayd etganidek, “Agar saodat, izzat, osoyishtalik, rohat, sharaf,

nomus va e'tibor bizga kerak bo'lsa, tezroq avlod tarbiyasi usullarini bilib olib, bolalarimizni shu usul va qoidalar asosida tarbiya etishimiz lozim".

Yuqorida keltirilgan fikrlarni xulosalab shuni ta'kidlash lozimki, bugun O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning nazariy asoslari yaratilayotgan ekan, shunga mos ravishda o'quvchi yoshlar ongida ham yangilanish, o'zgarishlar bo'lishi kerak. O'sib kelayotgan yosh avlodning ongini o'zgartirmay turib, ko'zlangan maqsadlarga erishish qiyin, mumkin ham emas. Zero, buyuk davlatni barpo etish uchun aql-idrokli, iste'dodli, ma'naviyatli, yuksak axloqli, kelajakka ishonch bilan qaraydigan yoshlar kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston NMIU, 2023 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 19 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi. // Xalq so'zi. 2017 yil 20 sentyabr.
3. Abdurauf Fitrat. Oila. – T.: "Ma'naviyat", 1998. 8-bet.

**HUQUQIY ONG VA MADANIYAT INSON KAMOLOTI VA JAMIYAT
TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI**

Norboyeva D.O.

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi2-bosqich talabasi*

Mamlakatimizning kelajagi bo'lgan yosh avlod davlatimizda qabul qilinayotgan qonunlarni bilmasdan, ularni hurmat qilmasdan turib ma'naviy-ahloqiy jihatdan kamolotga erisha olmaydi. Huquqiy bilimdonlik, huquqiy onglilik va madaniyatlilik inson barkamolligining eng muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizning kuch qudrati, uni yuksalib borishi faqatgina uning tabiiy boyliklari, iqtisodiy salohiyati bilan belgilanmaydi, balki intellektual salohiyati, ma'naviyati, ma'rifati darajasiga, ayniqsa huquqiy bilimdonligi va madaniyati darajasiga, qonunlarga bo'lgan munosabatiga qarab xam belgilanadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida"gi farmon qabul qilingan.

Huquqiy ong va madaniyat insonda qonunlarga hurmat tuyg'usini shakillantirib beradigan muhim omillar ekanligi doimo ilmiy ravishda asoslab berib kelinmoqda. Qolaversa mintaqamiz xalqlari adolat tamoyillarini hurmat qilishgan har doim katta e'tibor berib kelganlar.

Mintaqamizda yashab o'tgan buyuk allomalar huquqa doir ko'plab asarlarni yozib kelganlar ularni asarlari ko'p tillarga tarjima qilinib o'z zamonasida bo'lganidek, bugungi kunda ham katta ahamiyat o'ynab kelmoqda. Hamda qonunlarni yanada takomillashtirib borish yo'lida foydalanilmoqda.

Buyuk ajdodlarimizning huquq borasidagi asarlaridan, fikrlaridan bugungi kun yoshlarni tarbiyalab borishda foydalanish katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u har bir kishini huquqiy ongi va madaniyatini yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy bilim va madaniyatga ega bo'lish millati, yoshi, jinsidan qat'i nazar har bir fuqaro uchun muhim va shartdir. Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bugungi kunda har bir inson, birinchi galda yoshlar o'z haq huquqlarini yaxshi bilishlari, ularni himoya qila olishlari zarur. Mamlakatimizda jamiyatning har bir a'zosini huquqiy madaniyat, huquqiy bilimlar ta'sirida voyaga yetkazib borishga asosiy vazifalardan biri sifatida qarab kelinmoqda. Huquqiy bilimdonlik xar bir kishi uchun zarur bo'lgan fazilatdir.

Huquqiy bilimdonlik va huquqiy madaniyatni har bir o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi bilan birga ular o'rtasida uzviy bog'liqlik bordir, mana shu uzviylik qanchalik kuchli bo'lsa inson kamoloti jamiyatni yuksalishiga ko'rsatiladigan ta'sir shunchalik kuchli bo'ladi, qonunlarni hurmat qilish tuyg'usi ortib boraveradi. Inson kamolotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy madaniyat doimo umuminsoniy madaniyatning tarkibiy va ajralmas qisimi bo'lib kelgan va u doimo takomillashib boraveradi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat yuksalib borishini ta'minlab beradigan moddiy, ma'naviy, huquqiy, ahloqiy, mafkuraviy singari omillari bo'lib insonning huquqiy kamolotiga mana shunday omillar ta'sirida rivojlanib boradi. Bunday omillar ta'sirida jamiyat a'zolari huquqiy davlatning mohiyatini anglab boradilar.

Huquqiy onglilik, bilimdonlik va madaniyatlilik insonning yetuklik darajasini ko'rsatadigan me'yordir. Huquqiy bilimdonlik va madaniyatlilik faqatgina qonunlarni bilish emas, balki qonunlarni hurmat qilish, ularga bo'ysinish, qonunlarni jamiyat hayotida tutadigan o'rni bilish hamdir va ular jamiyatning xar bir a'zoriga xos bo'lishi zarur.

Jamiyat a'zolarini qonunlarga itoatkorligi, qonunlarga amal qilgan holda faoliyat ko'rsatishlari, o'z haq huquqlarini qonun doirasida himoya qila olishlari, qonunga zid holda faoliyat ko'rsatmasliklari ularni yetuklik darajasini belgilab beradi.

Prezidentimiz asarlarida jamiyat a'zolarini huquqiy bilimdonliklari va madaniyati ularni qonunlarni dildan, chin yurakdan, qalbdan hurmat qilishlari, qonunlarga rioya etgan holda yashashlari bilan birgalikda deb ko'rsatilgan.

Huquqiy ong va huquqiy bilim xar bir kishida qonunlarning mohiyati, ularni jamiyatga tadbiq etilish sabablari, jamiyatda qonun ustuvorligiga erishish zarurligi to'g'risidagi tamoyilning mohiyati to'g'risidagi tasavvurlarni paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Qonunlarga amal qilgan holda yashash va faoliyat ko'rsatish yuksak ma'naviy fazilatdir va u inson kamolatiga, jamiyatdagi barqarorlikka xizmat qiladi. Jamiyat a'zolarida huquqiy bilimlarni va huquqiy madaniyatni shakillantirib borishni ularni yoshligidanoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

Mustaqilligimiz sharofati bilan mamlakatimizda zamon talablari darajasidagi dunyoqarashga ega, yuksak bilim va tafakkur egasi bo'lgan navqiron avlod vakillarini shakillantirishga xizmat qiladigan shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Mamlakatimiz aholisini katta foizini yoshlar tashkil etadi va ularga yurtimiz kelajagini belgilab beradigan kuchlar sifatida baho berilib kelinmoqda.

Aqliy salohiyat yuksak, ma'naviy jihatdan barkamol, jismonan yetuk insonlar mamlakatimiz kelajagi uchun qimmatli kuch hisoblanadi. Ularni huquqiy jihatdan ongliligi va madaniyatlilik bu imkoniyatlarni yanada oshiradi.

Jamiyatimizni yosh avlod vakillarida huquqiy bilimdonlikni va madaniyatni shakillantirib borish ular qonunlarni hurmat qilish fazilatlarini shakillantirib berish ishlariga yuzaki qarash kerak kerak emas, bu ma'suliyatli va sharaflil vazifadir. Yoshlarda huquqiy bilimlarni shakllantirishda oilaning, jamoatchilikning, ta'lim muassasalarining, jamoat tashkilotlarining, profilaktika ishlarini ahamiyati kattadir.

Huquqiy ong va huquqiy bilimlar doimo huquqiy madaniyatning asosiy va muhim tarkibiy qismlaridan bo'lib kelgan. Ular kishilarning qonunlarga munosabatlarini ifodalovchi qarashlaridan, huquqlar xaqidagi tasavvurlaridan iboratdir.

Huquqiy ongning o'ziga xos bo'lgan xususiyati shundan iboratki, u jamiyat a'zolarining huquqqa, qonunlarga muvofiq faoliyat ko'rsatmaslik singari fazilatlarini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy ong, bilim, madaniyat inson kamoloti uchun zarur bo'lgan fazilatlarini shakillantirib uning kamolotiga katta ta'sir ko'rsatish bilan birga jamiyat taraqqiyotini belgilab berishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida jamiyat a'zolarini huquqiy bilimlari va madaniyatlari muhim zamin bo'lib xizmat qiladi. Kishilarning

huquqiy bilimlarini zamon talablari darajasida rivojlantirib borish eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning yuksalib borishi shaxs huquqlari va erkinliklarining kengayib borishidir. Huquqiy bilim va madaniyat xalq, millat jamiyat yetukligining muhim belgisidir, bunday xalq millat o'zini-o'zi anglab yetadi, o'z imkoniyatlariga to'g'ri baho bera oladi.

Huquqiy ong, bilim, madaniyatning muhim jihatlaridan biri shundan iboratki, uning zaminida inson har qanday qonunga zid bo'lgan ishlardan, jamiyat, xalq manfaatlariga zararli bo'lgan harakatlardan saqlana oladi. Huquqiy bilimdon va madaniyatli insonlar har qanday salbiy illatlardan saqlanish bilan birga jamiyatning boshqa a'zolarini xam salbiy xarakatlardan saqlanishiga chaqiradi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy hayotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatib uning kelajagini belgilab beradi.

Jamiyatning huquqiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan g'oyalar, bilim va tasavvurlar, huquq bilan bog'liq bo'lgan nazariyalar jamiyat ijtimoiy xayotining barcha sohalariga chuqur singib borib kishilarning amaliy faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Huquqiy ong, bilim va madaniyat kishilarni o'zlarini idora qilishga, jamiyat qabul qilgan qonun va qoidalar doirasida faoliyat ko'rsatishga undaydi.

Bugungi kunda malakatimizda jamiyat a'zolarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, ma'rifiy sohalarida faol etib borayotganligini, ularning huquqiy ongi va madaniyati o'sib borayotganligidan dalolat bermoqda.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA SHAXSIY HUQUQ VA ERKINLIKLARI TA'MINLANISHI.

Jalilova Aziza

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi yo'nalishi2-bosqich talabasi*

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning samarali mexanizmini yanada takomillashtirilishini taqozo etmoqda. Ta'kidlash joizki, mazkur islohotlarning mazmun va mohiyatini belgilashda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan, mamlakat xalqining erkirodasini o'zida ifodalagan, demokratik tamoyillarni o'ziga singdirgan, inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishini

kafolatlagan, qolaversa davlat organlari faoliyatining asosiy yoʻnalish va faoliyatini belgilab bergan Asosiy qonundir.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqillik mahsuli boʻlib, umuminsoniy va umumbashariy qadriyatlarni oʻzida mujassam etgan va xalq manfaatlari negizida yaratilganligi bois, u demokratik andozalarga toʻliq mos keladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida “Oʻzbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga koʻra inson, uning hayoti, erkinligi, shaʼni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi” deya mustahkamlab qoʻyilgan. Darhaqiqat, Konstitutsiyaning butun mazmun-mohiyatida ustuvorlik qiladigan oʻzak masala – bu insonning oliy qadriyati, bebaho boylik bilib, uning haq – huquqlari, erki, qadr –qimmatini ustuvor oʻringa qoʻyishdir. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi har bir insonning erkinligini, mustaqil Vatanimizda hur va farovon hayot kechirishini, oʻz taqdirining egasi boʻlishini huquqiy taʼminlash va kafolatlashning hayotbaxsh manbayidir. Inson va fuqarolarning Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qoʻyilgan asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari xilma-xil va koʻp qirrali boʻlib, ular turli sohalarida oʻz ifodasini topib kelmoqda. Shuning uchun ham istiqlolning dastlabki kunlaridanoq inson huquq va erkinliklarini taʼminlash davlat organlari va uning mansabdor shaxslarining eng dolzarb vazifalaridan biri boʻlib kelmoqda.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimi islohotlarining eng muhim vazifasi ham qonuniylikni taʼminlash, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, avvalo, asossiz jinoiy taʼqib va xususiy hayotga aralashishdan himoyalaniish, shaxsiy daxlsizlik huquqlari samarali muhofaza etilishini taʼminlash hisoblanadi.

Konstitutsiyani barcha bilishi, uning normalariga rioya etishi va hurmat qilishi lozim. Shundagina demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun mustahkam zamin yaratiladi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan inson va fuqarolarning asosiy huquqlari tizimida eng muhim va birlamchi huquq va erkinliklar, bu soʻzsiz shaxsiy huquq va erkinliklardir. Zero, kishilarning shaxsiy huquq va erkinliklari taʼminlanganidan keyingina Konstitutsiya, qonunlar va qonun hujjatlarida mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va himoya qilinadigan boshqa huquq va erkinliklarni taʼminlash uchun haqiqiy shart-sharoit yaratiladi. Shu bois fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi huquq va erkinliklariga bevosita shaxsiy huquq, erkinliklarning uzviy davomi sifatida qarash lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini “shaxs-jamiat-davlat” tizimi aks ettiradi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Konstitutsiyamizda belgilangan qonun ustuvorligi prinsipi jamiyatimizda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash, barcha islohotlarni samarali amalga oshirishning muhim kafolatidir” deb ta’kidlaganligi shaxsiy huquq va erkinliklarni amalga oshirishga tegishli.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi har bir insonning erkinligini, mustaqil Vatanimizda hur va farovon hayot kechirishini, o‘z taqdirining egasi bo‘lishini huquqiy ta’minlash va kafolatlashning hayotbaxsh manbayidir. Inson va fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari xilma-xil va ko‘p qirrali bo‘lib, ular turli sohalarda o‘z ifodasini topib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarining negizi hisoblangan shaxsiy huquq va erkinliklar to‘g‘risidagi normalar mustahkamlangan. Ta’kidlash joizki, shaxsiy huquq va erkinliklar turkumi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklarining bosh o‘rmini egallaydi.

Zero, insonning shaxsiy huquq va erkinliklari ta’minlanganidan keyingina Konstitutsiya, qonunlar va qonun hujjatlarida mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va himoya qilinadigan boshqa huquq va erkinliklarni ta’minlash uchun haqiqiy shart-sharoit yaratiladi. Shu bois fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi huquq va erkinliklariga bevosita shaxsiy huquq, erkinliklarning uzviy davomi sifatida qarash lozim.

Insonning asosiy huquq va erkinliklarining himoya qilinishini ta’minlash fuqarolik jamiyati qurish yo‘lini tanlagan har qanday davlatning ajralmas belgisidir. Uning amalga oshirilishi, shaxsning, davlat va uning organlari bilan huquq-tartibot hamda jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi munosabatlarini, insonning hayotiy faoliyati uchun juda muhim bo‘lgan sohalariga aralashuvlardan xoli bo‘lishining ta’minlashini kafolatlashga qaratilgan. Bundan tashqari, davlat va xususan, uning huquqni muhofaza qilish organlari zimmasiga ularning o‘zidagi mavjud vosita va usullar orqali inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini kafolatlash vazifasini yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi har bir insonning erkinligini, mustaqil Vatanimizda hur va farovon hayot kechirishini, o‘z taqdirining egasi bo‘lishini huquqiy ta’minlash va kafolatlashning hayotbaxsh manbayidir. Inson va fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari xilma-xil va ko‘p qirrali bo‘lib, ular turli sohalarda o‘z ifodasini topib kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, davlatning eng muhim vazifalaridan biri inson haqida g'amxo'rlik qilishdir. Binobarin O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson omili, uning shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkamlangan. Konstitutsiya normalarida har qanday holatdan qat'iy nazar, shaxsning qonuniy huquq va manfaatlari kafolatlangan va himoya qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarining negizi hisoblangan shaxsiy huquq va erkinliklar to'g'risidagi normalar mustahkamlangan. Ta'kidlash joizki, shaxsiy huquq va erkinliklar turkumi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklarining bosh o'rmini egallaydi.

Zero, insonning shaxsiy huquq va erkinliklari ta'minlanganidan keyingina Konstitutsiya, qonunlar va qonun hujjatlarida mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va himoya qilinadigan boshqa huquq va erkinliklarni ta'minlash uchun haqiqiy shart-sharoit yaratiladi. Shu bois fuqarolarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi huquq va erkinliklariga bevosita shaxsiy huquq, erkinliklarning uzviy davomi sifatida qarash lozim.

Shaxsiy huquq va erkinliklarning aksariyati insoniyat paydo bo'lgandan beri amalda bo'lib kelayotgan tabiiy huquqlardir. Shaxsiy huquq va erkinliklar deganda shaxslarning faqat o'zigagina tegishli bo'lgan va hayoti davomida ajralmas bo'lib hisoblangan huquq va erkinliklar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qator moddalarida fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari huquqiy jihatdan tartibga solingan. Konstitutsiyada shaxsiy huquq va erkinliklar alohida tizimni tashkil etadi va quyidagilar kiradi:

1. Yashash huquqi ;
2. Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;
3. Aybsizlik prezumpsiyasi;
4. Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi;
5. Turar joy daxlsizligi huquqi ;
6. Shaxslarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi;
7. Fikr, so'z va e'tiqod erkinligi;
8. Fuqarolarni huquq va manfaatlariga daxldor bo'lgan hujjatlar, qarorlar va boshqa materiallar bilan tanishib chiqish huquqi;
9. Vijdon erkinligi.

Ta'kidlash joizki, mazkur masalalar qator xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan. Xususan, 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro

Paktda qayd etilgan inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklariga oid xalqaro andozalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'zining to'la aksini topgan.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING MUSTAQIL FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA OID INNOVATSIYALAR

*“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi”
bakalavriat ta'lim yo'nalishi 404 - guruhi talabasi
Yo'lchiboyeva Nilufar Dilshod qizi
Ilmiy rahbar N.Akayeva*

Mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasidagi islohotlarda “Ta'lim to'g'risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi muhim o'rin tutadi. Har bir mamlakatning rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga yuz tutishi mamlakatdagi ta'lim tizimining qay darajada takomillashganiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi”da oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan. Jumladan, Kontseptsiyada “mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” vazifasi belgilangan. SHuningdek, unda ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash, malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetentsiyalarga ega bo'lishi, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishishlari mumkinligi ta'kidlangan. Mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonini tashkil qilish muhim o'rin tutadi. Hozirgi kunda o'quv rejalarida talabalar o'quv yuklamasining hajmi auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limning nisbati bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida 40/60

foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha, magistratura mutaxassisliklarida 30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha ajratilgan. Ta'lim dasturining o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masala va muammolari mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi lozim. Mustaqil ta'lim talabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallaridan bir qismining mustaqil o'zlashtirilishidir. Oliy ta'limning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri mutaxassisni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimini ko'paytirishga, innovatsion faoliyatga qobil bo'lgan ijodiy shaxsiyatini shakllantirishga yo'naltirishdan iboratdir. Bunday vazifani amalga oshirish uchun tayyor bilimlarni o'qituvchi tomonidan talabaga berishning o'zigina kamlik qiladi. Bunday yo'l talabani bilimlarni o'zlashtirishning passiv iste'molchisiga aylantirib qo'yadi. Vaholanki, bugun bizga bilimlarni o'zlashtirishdagi passiv iste'molchi emas, balki uning faol ijodkori zarurdir. Natija shunday bo'lishi kerakki, bo'lg'usi mutaxassis har qanday nazariy va amaliy muammoni ifodalay oladigan, uni yechishning yo'llarini ilmiy yoki metodik jihatdan tahlil qilishni uddalaydigan eng munosib va muvofiq natijalarni topib, uning to'g'riligini isbotlab bera oladigan bo'lsin. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ta'lim mazmuni bilan chambarchas bog'liq. Yangilanishlar talabalar o'qishini tashkil etishning yangi shakli va usullari haqida ham bosh qotirishni talab etadi. Shu ma'noda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muhim shaklgina emas, balki ta'lim jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim qism bo'lishini taqozo etadi. Bularning barchasi ta'lim berish (olish)ning zamonaviy metodlarini egallashni, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishni har bir talabaning imkoniyat va salohiyatini e'tiborga olgan holda, guruh o'qishlaridan individual o'qishga o'tishni ko'zda tutadi. Bu jarayonni shunday tashkil etish lozimki, uning natijasida talabaning mustaqil bilim olishi va bu bilimlarini hayotga tatbiq etishga oid qobiliyati, ko'nikma va malakalari shakllansin. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil qilish maqsad va vazifalari: Talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi — talabada o'quv ishlarini mustaqil bajarishda kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalarning tashkil topishi va rivojlanishi. Talabalar mustaqil ishining vazifalari: Mustaqil ishlarni bajarish uchun yangi ma'lumot qidirishga kerakli chora-tadbirlarni aniqlash Informatsion manbalardan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida foydalanish Me'yoriy hujjatlar, ilmiy-metodik materiallar, o'quv adabiyotlar bilan ishlash Elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash Ish rejalarini ekspertizaga tayyorlash, ekspert xulosasiga ko'ra ularni qayta ishlash, ishning tizimli va ijodiy bajarilishi uchun sharoit yaratish Ishlab chiqilgan yechimni, g'oya yoki loyihani izohlash va himoya qilish Talabalar mustaqil ishi uchun belgilangan vaqt me'yoriga binoan kafedralarda barcha predmetlardan tashkiliy shakllar, mustaqil ish variantlari va mustaqil bajarish topshiriqlari ishlab

chiqiladi, ular fakultetning ilmiy-metodik kengashida va kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinib, tasdiqlanadi. Talabalar mustaqil ishini tashkillashtirish uning metodik ta'minlanishining tematikasi va shakllari ro'yxatini tuzish uchun har birining maqsad va vazifalarini ifodalab berish, yo'riqnoma yoki metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ilmiy adabiyotlarni tanlash degani. Mustaqil ta'lim — o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat. Mustaqil ta'lim — olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli. Mustaqil ish — o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limning faol metodi. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir. Ta'bir joiz bo'lsa, bo'lajak mutaxassisning fikrlash tarzini tarbiyalashga qaratilgan barcha harakat-faoliyat ularning asosini tashkil etadi. Talaba mustaqil fikri tug'ilishiga, uning bilish faolligini oshirishga imkon beradigan har qanday mashg'ulot turi mustaqil ishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Mustaqil ta'limni talabalarga bilim berishda ularni o'z holiga tashlab qo'yib, ularga beriladigan topshiriq va yuklamalarni kamaytirish deb tushunmaslik kerak, balki o'qituvchilar tomonidan muntazam boshqariladigan talabalarning interaktiv mustaqil faoliyatidir. O'quv jarayoni sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli katta. Buni anglagan holda, yurtimiz oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlariga ajratilayotgan mustaqil ta'lim soatlari ulushi muntazam oshirib borilmoqda. Talaba mustaqil ta'lim uning manfaatini ko'zlab amalga oshirilayotganini tushunishi kerak. Talabaning mustaqil ishi degan tushuncha uning auditoriya va undan tashqarida, o'qituvchi rahbarligi ostida yoki o'qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuini anglatadi.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi”

bakalavriat ta'lim yo'nalishi 205 - guruhi talabasi

Xaydarova Sabina

Ilmiy rahbar A.Rasulova

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik innovatsiyalarning o'rni ochib berilgan. Shuningdek, bugungi kunda talabalarning shaxsiy rivojlanishi ularning kelgusi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishi yoritib berilgan. Bundan tashqari, pedagogik innovatsiyalarni oliy ta'lim tizimida qo'llash ta'lim sifati va samaradorligini oshirishi ko'rsatilgan hamda pedagogik innovatsiyalarni ishalab chiqish, amalda qo'llash bosqichlari va mavjud muammolarga yechim topish yuzasidan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy talab, innovatsiya, bakalavriat, pedagogik faoliyat, ta'lim samaradorligi, shaxsni rivojlantirish.

Zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri – malakali mutaxassislar sifatida o'zligini, o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofida gilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan "Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" ustuvor vazifalari ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish masalalari dolzarbligini ko'rsatadi. Jahonda o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ularning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari asosida ularda mustaqil harakat qilish va o'z-o'zini rivojlantirishga o'rgatish katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun talaba shaxsini rivojlantirish, ularni pedagogik ijodiyotga, yangilikka intilish va yaratuvchanlikka yo'naltirish masalalariga e'tibor qaratilganligi hamda ularning innovatsion faoliyat olib borish qobiliyatlarini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarini samarali qo'llashning ilmiy-pedagogik asoslari, ahamiyati va imkoniyatlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Talaba shaxsini rivojlantirish shartlaridan biri tashkiliy ta'lim jarayoni hisoblanadi. Ta'lim oluvchi shaxsi ehtiyojlarining oshishida rivojlanishning xususiy mantiq'iga ega bo'lgan ichki dunyosiga e'tibor qilishni nazarda tutuvchi psixologik talablarni hisobga olish muhim hisoblanadi. O'z-o'zini rivojlantirish qobiliyati rivojlanish vositalari bilan jihozlanganlik, unga oqilona egalik qila olish va ulardan tizimli foydalanish bilan ta'minlanadi. Biz o'z-o'zini rivojlantirishni shaxsni uning bevosita ishtirokida boyitish, mukammallashtirish, ijtimoiylashtirish, harakatlantirish kabi o'rgandik. Binobarin, ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida, avvalo, talabalarning intilishlarini shakllantirishga va

takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bizning fikrimizcha, shaxsning rivojlanishini ta'lim oluvchining hayotdagi o'z muvaffaqiyati uchun shaxsiy javobgarligining, uning faoliyatning turli xil sohalarida va muloqotda ma'lum natijalarga erishish uchun shaxsiy harakat qilishga tayyor turishning shakllantirilishi nuqtai nazaridan ham qarab chiqish mumkin. Jamiyat rivojining o'zgarib ketgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari ta'lim tizimiga, uni isloh qilishning maqsadlariga, yo'nalishlariga, o'qituvchining kasbiy faoliyatiga; ta'lim tizimining egiluvchanligini oshirish, pedagogik faoliyat jarayonida ta'lim oluvchilarning individual talablarini va shaxsiy imkoniyatlarini yanada to'liqroq hisobga olishga bo'lgan talablarni tuzatishni nazarda tutadi. Jumladan, ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari ta'limning muqobilligida va individuallashtirilishida, ta'lim shakllari va turlarini kengaytirishda ko'riladi. Pedagogika bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasasining asosiy vazifasi shunday ta'lim muhitini yaratishdan iboratki, u jamiyat manfaatlari yo'lida zamonaviy, yuksak pedagogik mahoratga ega, innovatsion faoliyat olib borishga qodir bo'lgan o'qituvchini tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorlashni bakalavriatning birinchi bosqichidanoq boshlash maqsadga muvofiq. Jumladan, talabalarda yangilikka intilish hissini uyg'otish, mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish o'qishning dastlabki yillaridanoq boshlansa, yuqori kurslar holda pedagogik-psixologik turkum fanlarini bo'lajak o'qituvchini innovatsion faoliyat olib borishga yo'naltirib o'qitish, yangiliklarni mustaqil ravishda izlab topish, axborotlarni tanlab olish va amalga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish lozim bo'ladi. Ilmiy manbalarning nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabalarda mustaqil o'rganish, kommunikativlik, kreativlik, o'z-o'zini rivojlantirish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon yaratadi. Demak, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim shunday tashkil etilishi kerakki, bunda u ta'lim oluvchilarni ham o'quv, ham ijtimoiy xususiyatga ega muammolarni mustaqil hal qilishlariga qaratilgan bo'lsin. Ta'lim oluvchining o'zining yutug'i va mag'lubiyati uchun javobgarlik hissi real vaziyatni mustaqil baholashi va xulq-atvorni o'zi tanlashi orqali shakllantiriladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bugungi pedagogning innovatsion ta'lim texnologiyalardan samarali foydalanish, asosan, pedagogning kasbiy tayyorgarligiga hamda uning shaxsiy tajribasiga bog'liqligi ko'rinadi. Ta'lim tizimida har qanday innovatsion jarayon o'zining amalga oshirilishida o'zi amalga oshayotgan ijtimoiy pedagogik muhitga qaytmaydigan o'zgarishlarni muqarrar kiritadi. Bu xususan, biror pedagogik jarayonlar yoki hodisalar to'g'risidagi yaxlit tasavvurlar buzila boshlashiga olib keladi; pedagogik yangilikning ijtimoiy-pedagogik muhitga bostirib kirishi pedagogik ongning,

yangilik baholarining bo'linishiga olib keladi. Pedagogik innovatsiyaning muvaffaqiyati pedagogik faoliyatning an'anaviy qaror topgan yondashuvlarga, tamoyillari, metodlari va shakllarining asoslanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Innovatsiya-bu innovatsion rivojlanishning qayta tiklanish mexanizmidir; Pedagogik faoliyatning xususiyatlari, o'qituvchining innovatsion salohiyatining o'ziga xosligiga, bo'lajak o'qituvchining malaka talablari hamda innovatsion salohiyatni rivojlantirish omillari tahliliga asoslangan holda, kasbiy faoliyatni motivatsion, faoliyatli, hissiy-irodaviy, axborotli kabi tashkil etuvchi komponentlardan tashkil topgan. Komponentlar integratsiyasi talabalarning innovatsionligi namoyon qiladi. Innovatsionlik talabaning ichki dunyosini boyitadi, ijodiy imkoniyatlarni hamda o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, maqbul qarorlar qabul qilish va yangi g'oya va texnologiyalarni izlash va tadqiq etish va innovatsion eksperimentlar o'tkazishga undaydi. Biz shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning quyidagi pedagogik shart-sharoitlari belgilab oldik: Shunday qilib, pedagogik innovatsiyaning o'ziga xosligi shundaki, u asosan "pedagog va talaba" ning shaxsiy sifatleri bilan muvofiqlashtiriladi. Pedagogik faoliyat oldindan ishlab chiqilgan loyiha asosida tashkil qilinadi. Innovatsiyalar qo'llanilishi bir jixatdan ta'lim jarayonini doimiy takomillashtirish zarurligidan iborat bo'lgan pedagogik amaliyotning obyektiv ehtiyojlariga bog'liq bo'lgan, ikkinchi jihatdan esa ularni kullanish samaradorligi pedagoglarning subyektiv sifatlariga, ularning pedagogik innovatsiyalarning obyektiv zarurligini anglaganlik darajasiga bog'liqligi tushuniladi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarini innovatsion salohiyatini shakllantirish uchun ularni bosqichma-bosqich innovatsion faoliyatga o'rgatish, mustaqil ravishda innovatsion g'oyalarni izlashlari hamda amaliy ishlanmalar bilan innovatsion tanlovlar va loyihalardagi ishtiroklarini ta'minlash hamda bitiruv malakaviy ishlari mavzularini innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va pedagogik muammolarning nostandart yechimlarini topishga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Free and prosperous, democratic country of Uzbekistan / 2.
2. Зиямухаммедов Б. (2002) Новая педагогическая технология. Ташкент: "Абу Али ибн Сино".
3. Muslimov N.A., Usmanboyeva M.H., Sayfurov D.M., Torayev A.B. - T.: "Sano Standard" publishing house, 2015.-150 p.

4. Roziyeva D., Usmanboyeva M., Z. Interactive methods: essence and application / Met. hand. - T.: DTPU named after Nizami, 2013. - 115 p.
5. Tolipov O', Usmanboyeva M. Practical foundations of pedagogical technologies - T.: 2006. - 260 p.
6. Omonov N.T., Khojayev N.Kh., Madyarova S.A., Eshonov E.U. Pedagogical technologies and pedagogical skills. - Haliqova T.: "Economy-Finance", 2009.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
A.K.Qirg'izboyev. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi-huquqiy-demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning mustahkam poydevori.....	5
A.Saidov. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya -inson sha'ni, qadr-qimmat va huquqlarining mustahkam kafolati.....	7
X.T.Odilqoriev. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonun chiqarish jarayoni.....	14
A.A.Akramov. Konstitutsiya va saylov qonunchiligining takomillashuvi.....	20
O.T.Abdug'aniyev. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi–davlat hokimiyatining oliy vakillik va qonun chiqaruvchi organi.....	28
B.M.Negmatov. Abu Nasr Forobiy qonunchilik masalalari to'g'risida.....	34
F.X.Adilkarieva. O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi-huquqiy-jtimoiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning ustahkam poydevori	38
U.N.Mansurov. O'zbekiston Konstitutsiyasi-Inson huquq va erkinliklarining mustahkam kafolati.....	44
S.S.Fayzullayev. Jamoat birlashmalari va uning vazifalari	46
N.M.Akaeva. O'zbekistonda hakamlilik sudlarining shakllanishi va rivojlanish istiqbollari.....	49
X.S.Jumaniyozov. Konstitutsiyada davlatning inson huquqlarini ta'minlashdagi majburiyatlari belgilanishi – huquq va erkinliklarimiz kafolati.....	57
M.A.Sobirova. Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini.....	60
N.I.Saidakhmedova.Sh.K. Kurbaniyazov . Interrelations of organizational structures in the management process through prospective development strategy of the higher education institution.....	64
I.Xoliqov. Y.Manzarov . Inson huquqlarining zamon talablari darajasidagi taraqqiyoti – yetuk kadrlar tayyorlashdagi ulkan yutuqlarining garovidir.....	69
D.YU.Xodjayeva. Jamiyat barqarorligini ta'minlashda o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash omillari.....	77
Z.Ilhomov. Mamlakatimizda millatlararo totuvlikni ta'minlashda konstitutsiyamizning o'rni.....	81
U.B.Nigmanova. O'zbekistonda odil sudlovning konstitutsiyaviy asoslari	84
A.Norboyev. Huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy tarbiyaning o'rni....	89

A.M.Rasulova. Yoshlarni huquqiy tarbiyalashda ijtimoiy muhitning o‘rni.....	95
A.I.Murodov. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida xalqimizning ziyoli qatlami bo‘lgan o‘qituvchilarga qaratilgan etibor va uning ahamiyati.....	99
M.K.Abulova. Ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlarini konstitutsiyaviy kafolatlari.....	105
G.B.Ne‘matova. Buyuk mutafakkirlar asarlarida harbiy meros masalalari.....	106
K.Umarqulova. Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish masalasi.....	111
S.R.Otamuratova. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ta’lim masalalari.....	113
J.Qo‘chqorov. Ta’lim olishning konstitutsiyaviy asoslari.....	117
S.Sh.Mamanazarov. Bola huquqlarining xalqaro hujjatlarda kafolatlanishi.....	118
Y.A.Hamroyeva. Bola huquq va erkinliklari qonun himoyasida.....	120
K.H.Avezova . Sog‘lom va bilimli yosh avlod millat ravnaqining poydevori....	123
E.Ahmadjonova. Qonun ustuvorligi adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti..	126
K.Isakulova. Yoshlar huquqlarining qonunchilikda kafolatlanishi.....	130
M.Ibragimova. Xotin-qizlar va bolalar huquqlari hamda ishonchli himoya.....	132
B.Ismoilov. Oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni rivojlantirish.....	135
J.Omonov. Vatan himoyasi muqaddas burch.....	140
S.Bektiboyev. Konstitutsiya va yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar.....	141
E.Donayev . Konstitutsiya va oilalar mustahkamligi.....	144
К.С.Ибрагимжанова. Влияние конституции на воспитание.....	147
Е.Д.Адвокатова. Основные права и обязанности человека и гражданина...150	
А.И.Каримова. Конституция - способ воздействия правового государства на развитие гражданского общества.....	154
М.В.Семёнов .А.Ш.Эргашев. Конституция Республики Узбекистан. Прокуратура. Оборона и изменения в конституцию.....	162
Ф.Р.Хабибрахманова. Судебная власть как ветвь государственной власти Республики Узбекистан.....	170
Т.А.Murodullayev. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakat taraqqiyoti va jamiyat farovonligining huquqiy kafolati.....	173
О.Худойкулова. Актуальные вопросы организации изучения Конституции Республики Узбекистан в новой редакции.....	175

Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari
2023 yil 6 dekabr

М.А.Хазиева. Основная роль Конституции Республики Узбекистан в жизни граждан.....	182
К.Ибрагимжанова. Права человека в обновленной Конституции Узбекистана.....	185
Е.Адвакатова. Права детей и молодежи под особой защитой государства.	189
М.Семёнов. Защита прав человека в Узбекистане.....	192
К.Хрюкина. Конституция и образование в Узбекистане.....	195
Н.Беатриз. Права молодежи: возможности и механизмы защиты.....	198
Ф.Ҳабибрахманова. Обеспечение прав ребенка – глобальная проблема современности.....	201
З.Жураева . Конституционные гарантии трудовых отношений.....	205
S.X.Aliqulova. O‘zbekiston va xalqaro huquqiy-me’yoriy hujjatlarda bola huquqlari, erkinliklarini kafolatlanishi.....	207
L.Xolmatova . G‘oyaviy, mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi kurashning huquqiy asoslari.....	210
D.O.Norboyeva . Huquqiy ong va madaniyat inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotining muhim omili.....	214
A.Jalilova. O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasida shaxsiy huquq va erkinliklari ta’minlanishi.....	217
N.D.Yo‘lchiboyeva. Oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishga oid innovatsiyalar.....	220
S.X.Xaydarova. Bo‘lajak o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish.....	223